


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Bakalavriatning o`zbek filologiyasi yo`nalishi uchun

«YANGI O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI» fanidan

MA'RUZALAR MATNI



Namangan– 2014

TUZUVCHI: katta o`qit., f.f.n. O.KARIMOV

TAQRIZCHI: f.f.n.,dotsent F.KARIMOVA

| | |
|-----------------------|-------|
| Umumiy soat: | - 114 |
| Ma'ruza: | - 26 |
| Amaliy mashg`ulotlar | - 20 |
| Seminar mashg`ulotlar | - 20 |
| Mustaqil ta'lim | - 48 |

Ma'ruza matni
Namangan Davlat universiteti
filologiya fakulteti
o`zbek tili va adabiyoti kafedrasining
2014-yil 27-dekabrdagi yig`ilishida
muhokama qilinib ma'qullangan.

Kafedra mudiri:

f.f.n. Sh. Abdurahmonov

1-MA'RUZA:

"XX ASR-YANGI O'ZBEK ADABIYOTI"

FANIGA KIRISH.G'AFUR G'ULOMNING HAYOTI VA IJODI

DARS REJASI:

1. XX asr o`rtalaridan asr oxirigacha bo`lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit va adabiy jarayon.
2. Shu davr adabiyotini davrlashtirish.
3. G'afur G'ulom – yangi o'zbek adabiyotining yirik vakili.
4. O'qish yillari va ijodining boshlanishi.
5. Shoirning lirik va nasriy faoliyati.
6. She'riy to'plamlari, hikoya va qissalari. Tahlil.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008. 16 b.
 2. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -T.: O'zbekiston, 2009. 40 b.
 3. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
 4. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
 5. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
 6. Karimov N. G'afur G'ulom. T., 2003.
 7. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T., 2003.
 8. S. Mamajonov. Uslub jilolari. T., 1983.
 9. S. Mamajonov. Shoir va zamonaviylik. T., 1986.
 10. G'afur G'ulom. Asarlar. T., "Fan" 12 tomlik. 1970-1978.
- TAYANCH IBORALAR: Ma'naviyat. Sokinlik davri. Istiqloq davri. Moslashuv davri. Feliks bolalari. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. Kalendar shoir.

Ma'lumki, ma'naviyat o'zlikni anglashdan boshlanadi. Prezidentimiz Islom Abdig'aniyevich Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma'naviyatga eng muhim masala sifatida katta ahamiyat berib kelinmoqda. "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor"¹ risolasida ma'naviyatga, uning ajralmas qismi bo'lgan badiiy adabiyotga e'tibor qaratib, azaliy qadriyatlarimizni kelgusi avlodlarga yetkazishda adabiyotning o'rni va ahamiyati katta ekaniga jiddiy urg'u beradi.

¹ Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -T.: O'zbekiston, 2009. 40 b.

“Biz shoir deganda,avvalo, Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda Abdulla Qodiriy, Oybek singari o’z xalqi uchun nafaqat noyob iste’dodini, ayni paytda butun hayotini bag’ishlagan buyuk va mo’tabar insonlarni tasavvur etamiz...Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug’ bir dargoh deb biladi...”²deya ta’kidlaydi.Bu hikmatomuz fikrlarda mubolalag’a yo’q. Zero, inson o’zligini bilishi kerak, yurti, xalqi tarixini, adabiy merosini tinmay o’rganmog’i lozim.Shundagina kishilarimiz Vatan qadrini yana ham yaxshi tushunadilar. Bu fikrlarimiz Yurtboshimiz tomonidan aytigan quyidagi fikrlarda o’z tajassumini topgan:**”Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi,o’z milliy qadriyatlarini,milliy o’zligini anglashi,erkin va ozod jamiyatda yashash uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin”**³

Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy meros deganda talay ma’nolarni anglash mumkin. Shulardan eng muhimi o’zbek adabiyoti bo’lib chiqishi shubhasiz. Zero, har bir xalq adabiyoti dastlab o’z milliy tarixi, an’analari, madaniyati va milliy ma’naviyatini ifodalash bilan qimmatlidir. Bu haqda ham Yurtboshimizning quyidagi fikrlarini eslatib o’tish joiz bo’lardi:**”Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib,odamlarning yuragida,dunyoqarashida bo’layotgan o’zgarishlarni hammadan avval sezib,ularni ta’sirchan obrazlar,yorqin badiiy bo’yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan,el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar,deb bilaman”**⁴.

Bunday hikmatomuz fikrlarni ko’p aytish mumkin.Qisqasi millatning yashashi adabiyotga bog’liq (Cho’lpon).Yozuvchi va adabiyotshunoslarimiz o’z iste’dodi bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi,madaniy saviyasini yuksaltirish,xalq qalbining kuychisi bo’lishdek o’g’ir va murakkab, ulug’bir vazifani zimmasiga olgan ekan,iste’dod mas’uliyatini chuqur sezishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini Yurtboshimiz ko’p bora ta’kidlagan.”Adabiyotga e’tibor -

² Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. -T.: O’zbekiston, 2009. 6-7-betlar.

³ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat. 2008. 16 b

⁴ Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. 8-bet

ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" asarida fikrini davom ettirib, shunday deydilar: **"Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddir. Bu – qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir"**⁵.

XX asr o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o'rin egallaydi. Bu davr adabiyotining aksar namoyandalari sovet davrida yashab ijod etgan va ularning asarlari shu davr mafkurasi ta'siridan xoli bo'lmagan esa-da, milliy adabiyotimiz shu davrda jahon adabiyotining badiiy yutuqlaridan, mumtoz va zamonaviy ijodkorlarning tajribalaridan bahramand bo'ldi. Bu hol o'zbek adabiyotining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib yubordi. XX asr o'zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi.

Asr boshi adabiyotimizda milliy uyg'onish harakati vujudga keldi. Bular haqida, bu davrda yetishgan Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi allomalar haqidagi batafsil ma'lumotlar "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" kursida atroflicha o'rganilgan.

4-kursda asrimizning 40-yillaridan boshlab oxirigacha bo'lgan adabiy jarayonni o'rganamiz. Qariyb 60 yillik davrni quyidagi 3 kichik bosqichga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Moslashuv davri o'zbek adabiyoti (40-60-yillar):
2. Sokinlik davri o'zbek adabiyoti (60-80-yillar):
3. Istiqloq davri o'zbek adabiyoti (90-yillar).

Biz XX asrning 20-30 yillarida adabiyotga kirib kelib, 80-yillargacha yashab ijod qilgan G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Mirtemir kabilarning ijodini o'rganamiz.

40-60 yillar XX asr tarixida o'ziga xos va g'oyat murakkab sahifalarni tashkil etadi. 2-jahon urushi va bu urush jarohatlarini tiklash, 50-yillar o'rtalarida ozgina bo'lsa-da, demokratiya shabadasining esishi shu yillarga to'g'ri keladi. 30-yillarda partiyaning qattiqqo'llik bilan yurgizgan siyosati tufayli ustunlik qila boshlagan monologizm tendensiyasi 2-jahon urushi yillarida bir oz chekindi. Urush yillarida rus, ukrain, belorus adiblari hamkorlikda ijod qildilar, badiiy tarjima bilan bir-birlarini boyitishga alohida e'tibor berdilar. V.Jirmunskiy va H.Zaripovlarning "Pervoy o'zbekskiy geroicheskiy epos" nomli monografiyasi «Alpomish» dostonini qayta dunyoga keltirdi va elga tanitdi. A.Deych va Oybekning A.Navoiy ijodiga bag'ishlangan monumental tadqiqotlari ulug' shoirni rus va boshqa

⁵ Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. 17-18-betlar

qardosh xalqlar ruhiga yaqinlashtirdi. N.Pogodin, Hamid Olimjon, Uyg'un va S.Abdullalarning "O'zbekiston qilichi", Mirtemir va V.Smironovning "Ona" dramalari shular jumlasidandir.

O'zbek adabiyotiga 60-yillarda kirib kelgan bir guruh ijodkorlar uning sifatini yaxshilashga, yangi ohang va ruh olib kirishga harakat qildilar. Bular E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, M.Jalil, J.Kamol singari shoirlar, O.Umarbekov, X.To'xtaboyev, U.Nazarov, M.Mansurov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev kabi yozuvchilar A.Ibrohimov, M.Boboyevdek dramaturglar edilar. 30 yillar lirikasida asosan mehnat mavzusi yetakchi o'rinni egallagan, ijodkorlar lirik qahramonning ijtimoiy burchini qo'llashga ko'proq e'tibor bergan bo'lsalar, 50- yillarda haybarakallachilik, ritorik murojaat ustunlik qilgan, 60-yillarning o'rtalaridan boshlab she'riyatda tuyg'ular rang-barangligi, inson ruhini teran ifodalash kabi fazilatlar ro'yobga chiqdi. E'tiborli tomoni shundaki, har bir shoir o'zining xalq oldidagi mas'uliyatini anglab yetdi, unga nimalar haqda aytib berilish yo'llarini izladi...

G'afur G'ulom XX asr o'zbek adabiyotining yorik namoyandasi.U o'zbek she'riyati, badiiy publisistikasi, feletonchiligi, yumoristik qissachiligi va tarjimachilik rivojiga katta hissa qo'shgan so'z san'atkori hisoblanadi.

G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkentning Qo'rg'on tumanidagi mahallasida tug'ildi. Otasi G'ulom Mirza Orif o'g'li va onasi Toshbibi Yusuf qizi o'qimishli, fors tilini bilgan, adabiyotni sevgan odamlar bo'lishgan. Zehnli G'afurning savodi erta chiqqan. To'qqiz yoshidan Navoiy, Hofiz, Sa'diy, Fuzuliy asarlarini sevib mutolaa qiladi. Uylariga Xislat, Shomurod kotib, Muqimiy, Furqat, Muhyi kabi shoirlarning kelib turishini aytadi. Otasi "Mirza", "G'ulom" taxalluslarida she'r yozganini va "Bayozi Mirza" degan kitobi borligini ham aytadi. Ota-onasi juda erta o'tib ketadi, ukalari va singillari bilan yolg'iz qoladi. U oilani boqish uchun turli ishlarni qiladi. Avval boshlang'ich maktabda o'qidi, keyin 8 oylik rus-tuzem maktabida o'qidi. Salkam 45 yillik ijodi davomida G'.G'ulom ko'pdan-ko'p she'r, doston, ocherk, feleton, hajviya, hikoya, qissa va tarjimalarni e'lon qildi. Ular yuzdan ortiq to'plam va kitoblarda jamlanib, bosilib chiqdi.

"Mushtum", "Yer yuzi" jurnallarida, "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasida adabiy xodim va maxsus muxbir bo'lib ishladi. Rudakiy, Sa'diy, Firdavsiy, Bedil va Navoiyning forscha she'rlarini tarjima qildi. "Dinamo"(1931), "Tirik qo'shiqlar"(1932) dastlabki she'riy to'plamlari, "Jo'rabo'za", "Yigit"(1931), "Kulgi hikoyalar"(1932) nasriy to'plamlari chiqdi. "Netay", "Tirilgan murda", "Yodgor", "Shum bola" asarlari mashhur. L. Bat "Shum bola" asari haqida so'zlab, "Mohiyat jihatdan chuqur milliy ruhdagi bu asar Mark Tvenning "Tom Soyverning sarguzashtlari", Dikkensning ba'zi romanlariga yaqindir", degan edi.

"Kuzatish", "Sen yetim emassan", "Vaqt", "Sog'inish" kabi urush vaqtida yozilgan she'rlari shoir nomini dunyoga tanitdi. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi. O'zbekiston xalq shoiri G'.G'ulom 1966-yil 10-iyunda vafot etdi. 1999-yilda Prezident farmoniga binoan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. 2003-yilning may oyida shoir tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Prezidentimizning adabiyotga, ma'naviyatga doir qanday asarlarini bilasiz?
2. "Yangi o'zbek adabiyoti" fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'zbek adabiyotining yangilanish davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi?
4. Moslashuv davri o'zbek adabiyotiga qaysi yillar kiradi?
5. Sokinlik davri o'zbek adabiyotiga-chi?
6. Istiqloq davri o'zbek adabiyotiga-chi?
7. Ushbu davrlar adabiyotida qanday o'ziga xos xususiyatlar bor?
8. G'afur G'ulom ilk tahsilni kimdan oldi?
9. Uning ilk she'ri yozilish tarixini bilasizmi?
10. Shoir she'rlarida falsafiylik deganda nimani tushunasiz?
11. Shorning qaysi she'rlarini yod olgansiz?
12. Qaysi nasriy asarlarini o'qigansiz?
13. Qaysi asarlari kinolashtirilgan?

Oybek – XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili (1905-1968)

R E J A:

1. Oybekning tarjimai holi.
2. Oybek lirikasi. O'ziga xos xususiyatlari.
3. Oybekning liro-epik asarlari.
4. Oybek prozasi: qissa va romanlari.
5. Oybek ijodining o'ziga xosligi. Falsafiylik va romantizm.

A D A B I Y O T L A R :

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Karimov N. G'afur G'ulom. T., 2003.
5. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T., 2003.
6. N. Karimov. Oybek AXK. T., 1985
7. M. Qo'shjonov. Oybek mahorati. T., 1965
8. Oybek zamondoshlari xotirasida. T., 1997
9. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. T., 1975-85
10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2004.

TAYANCH IBORALAR: Oybekning hayot yo'li. Nasr. Prozada lirik, lirikada prozaik. Ilk she'riy to'plamlari va izlanish natijalari. Oybek lirikasining o'ziga xos xususiyatlari. Na'matak she'ri tahlili. Akademik yozuvchi. Avtobiografik asar.

Biz Oybek timsolida eng ko'p va samarali ijod qilgan yozuvchini ko'ramiz. U XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shoir va adibdir. Musomuhammad Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yilning 10-yanvarida Toshkentning Eski shaharida hunarmand to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Otasi Toshmuhammad aka dastlab bo'zchilik, keyin baqqolchilik qilgan. 1911-17-yillarda Oybek Govkush mahallasidagi eskicha maktabda savodini chiqaradi.

1921-yilda sho'ro maktabini tamomlab, A.Navoiy nomli ta'lim-tarbiya texnikumiga o'qishga kirdi. Bu yerda uning eskicha va yangi maktablarda olgan bilimlari qatoriga Pushkin, Lermontov va Tolstoy singari jahon tan olgan daholarning sabog'i qo'shildi. 1925-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisodiyot bo'limiga o'qishga kirdi. Oradan ikki yil o'tgach, bilimini chuqurlashtirish, rus tilini puxtaroq o'rganish maqsadida o'qishini Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahridagi Plexanov nomli Xalq xo'jaligi institutiga ko'chiradi. ammo bu shaharning sovuq havosi Oybekning sog'ligiga yomon ta'sir qildi va o'qishni tugatishiga imkon bermadi. Natijada Oybek oliy tahsilni yana O'rta Osiyo davlat universitetining iqtisod fakultetiga ko'chirib, uni 1929-32-yillarda tugatdi. Oybek universitetda 1935-yilgacha ishlaydi. Bu paytda Oybek bir necha to'plamlar e'lon qilib, shoir sifatida tanilib qolgan edi. 1935-37-yillardan Oybek O'zbekiston fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutiga ilmiy xodim bo'lib ishga o'tdi.

1942-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Oybek akademiklikka saylandi va 1944-yildan 1949-yilgacha O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'ldi. Ayni paytda "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri lavozimini ham bajardi. Oybekning bunday o'sib-unishi, obro'sining oshishi ichi qora "do'stlari" ning g'ashini keltirar edi. Unga qarshi kurash boshlandi. Dastlab "Navoiy", keyin "Oltin vodiyan shabadalar" romaniga hujum uyushtirildi va oxiri Oybek xasta bo'lib safdan chiqdi, ammo u ilmiy va ijodiy faoliyatini bo'shashtirmadi. 1958-yilda O'z.FAning til va adabiyot instituti organi bo'lgan "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalini tashkil qildi. Umrining oxirigacha shu jurnalda bosh muharrir bo'lib yurdi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1968-yilning 1-iyulida vafot etdi.

Oybekning birinchi she'riy to'plami "Tuyg'ular" nomi bilan 1926-yilda bosilib chiqqan. Bu to'plamga kirgan she'rlari o'z paytida shuhrat topa olmadi.

"Na'matak" she'ri shu qadar sehirli, jozibali, shu qadar tuyg'ularga boy, hisni shu qadar jo'shtiradiki, nazarimda, na'matak guli shoir ijodining timsoliga aylanib ketgandek taassurot qoldiradi. Uning o'z hidi, ko'rinishi, go'zalligi bor. O'zbekiston xalq shoiri R.Parfi bu she'r haqida "XX asr adabiyoti olamida Oybek deb atalgan muqaddas tog' bor. Uning osmonlariga bo'y cho'zgan yuksak g'oyalarida quyoshga savat-savat oq gul ko'targan na'mataklar nafis chayqaladi" der ekan, Oybek she'riyatining ko'rimliligi, yoqimtoyligiga e'tiborni tortadi.

Bu she'r ona tabiatning o`zligini chuqur his qilgan, undan zavqlangan, "viqor-la o`shshaygan qoyalar", "vahshiy toshlar"dan ham ajib bir go`zallik topa olgan, tarovat sezgan shaydoyi xassos insonning dil rozi, donishmand shoirning so`z bilan chizgan miniatyur manzarasidir.

"Na`matak" go`yo she'r emas, ohangrabo kuy, u go`yo badiiy asar emas, balki nafosat, go`zallik ma`budasi, xushbo`y gul, shaffof chashma, o`ynoqi anhor, jozibali suratdir! Bu she'r tabiatni go`zal manzarasigina emas, ayni paytda shoir hayotining bir parchasiga aylanib ketganligi bilan ham qadrlidir.

Oybekdan 19 ta doston yetib kelgan. Ular qatoriga "Dilbar-davr qizi", "O`ch", "Temirchi Jo`ra", "Baxtigul va Sog`indiq", "Qahramon qiz", "Qizlar", "Zafar va Zahro", "Navoiy va Guli" kabi dostonlarini kiritish mumkin. Shundan Amir Temur haqidagi dostoni tugallanmay qolgan, "Mahmud Torobiy" esa dramatik dostonidir.

"Davrim jarohati" xalqaro mavzuga bag`shlangan. Bu doston 1965-yilda Xirosima va Nagasaki halokatining 20 yilligi munosabati bilan yozilgan. Doston quyidagi gazabnok misralar bilan boshlanadi:

*Qalbmida davrimning jarohati bor,
Shuning-chundir she'rim gazabdor vulqon.
Jonimga bir kun tinchlik bo`lur yor,
Bombani, zulmini unutar inson!..*

Tinchliksevarlik ruhida bitilgan bu publisistik dostonda shoir urush olovini yoquvchilarga qarshi jahon xalqlarining nafratini ifodalaydi, tinchlik va do`stlikni ifodalaydi.

Oybek epik turning barcha janrlarida ijod qildi, 10 ta ocherk, 9 ta hikoya yozgan. "Kundaliklar" va pamfletlar ham yaratgan. Oybek o`zbek nasrini "Shonli yo`l" nomli kinopovestidan tashqari "Nur qidirib", "Bolalik", "Alisherning yoshligi" singari qissalari bilan boyitdi. Sayohat taassurotlari asosida Oybek "Qonli barmoqlar" hikoyasini "Zafar va Zahro" dostonini hamda mazkur qissani yaratdi. "Pokiston yo`lida" sarlavhali kundalik yozdi. "Nur qidirib" qissasida Pokiston yoshlarining ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashini aks ettirdi. Qissada Sharif Sulaymonov, Ahmad Husayn, Muhammad Jamol, Iskandar obrazlari orqali muallif oddiy fuqaroning ingliz mustamlakachilarga bo`lgan cheksiz nafratini aks ettiradi.

1963-yili yaratilgan "Bolalik" qissasi uchun Oybek Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan. "Bolalik" haqiqiy ma`noda avtobiografik asar bo`lib, uning asosiy qahramoni adibning o`zi – yosh Musadir. Undagi voqealar Toshkentning eski shahridagi mahallada ro`y beradi.

Qissa voqealari yosh Musavoyning 10 yillik davrini 1909-1918-yillarni o`z ichiga oladi. Ma`lumki, bu qisqa muddat ichida ikki katta tarixiy hodisa, o`zbek xalqi hayotida chuqur iz qoldirdi, boshiga og`ir kulfatlar soldi, ayni paytda uning dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qildi, o`z haq-huquqini bilib oldi. Bularning barchasi Musa va u uchratgan odamlar bilan bo`lgan muloqotlarda ko`rinib turadi. "Alisherning bolaligi" Oybekning so`nggi qissasidir.

Bizga Oybekdan "Qutlug` qon" (1940), "Navoiy" (1944), "Oltin vodiidan shabadalar" (1950), "Quyosh qoraymas" (1959), "Ulug` yo`l" (1966) kabi beshta roman qoldi.

"Qutlug` qon" romanini yozish uchun material yig`ib o`tirmadim,- deb yozadi adib, " Tarjimai holi" da roman uchun material ko`ngildan, xotiradan quyilib kelaverdi; shu tarzda qisqa muddatda 1938 -yil yozib tamomladi. 1940-yil roman nashr etildi. Muhokamada Maqsud Shayxzoda, H. Olimjon, I. Sulton kabilar asarga xolisona baho berdilar, ammo "Literatura i iskustvo O`zbeksitana " jurnalning muharriri S. Velinskiy professor Shtern kabilar romanni siyosiy ong yetishmaslikda, Yo`lchi ongini inqilobiy tus olishiga rus bolsheviklarning roli ko`rinmasligida, mahalliy burjuaziyaning rus kapitalistlaridan o`rnak olmasligida ayblanadilar. Bunga qarshi Oybek, boshqa o`zbek adiblarining e`tirozlari inobatga olinmadi. Natijada muallif kitobiga Petrov obrazini kiritishga majbur bo`ldi. Siz amaliy mashg`ulotda shu epizod romaniga qanchalik singib ketgan ketmaganligini aniqlang. Yana quyidagilarga e`tibor bering:

1. Romanda tasvirlangan davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit va xalqning ahvoli
2. Yo`lchi obrazini tahlili.
3. Mehnatkash xalq obrazi.
4. Mirzakarimboy va Hakimboyvachcha obrazlari.
5. Jadid Abdishukur obrazi va uning hayot haqiqatiga mosligi.

"Navoiy" romani bilan Oybek Abdulla Qodiriydan so`ng ikkinchi tarixiy romanchilik oqimini boshlab berdi. Agar Qodiriy romanlarida tarixiy voqelik asar markaziga olib chiqilgan bo`lsa, Oybek romaniga tarixiy shaxs birinchi o`ringa ko`tarildi. Adib tarixiy voqealarni ana shu tarixiy shaxs faoliyati bilan chambarchas bog`liq holda aks ettiradi.

Romanda tarixiy jarayonning haqqoniy tasviri Navoiy obrazi orqali ifodalanadi. Asar Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi va Husayn Boyqaro saroyida ulkan lavozimga tayin etilishi haqidagi xabar bilan boshlanadi. Navoiy birinchi uchrashuvdayoq o`quvchiga iliq taassurot qoldiradi. Boisi, u haqda biz shoir Turobiy, tolib ul-ilm Sultonmurod, Zayniddinlardan eshitganmiz. Masalan, shoir Turobiy do`stlarga shunday xushxabarni yetkazadi: "Men shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so`zi bebaho gavhardir". Dastlab muhrdor, keyin bosh muhrdor, so`ng bosh vazir lavozimlarini egallagan Navoiy "Saroyda... ko`pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga urindi. Shaharlarni obod qildirdi, ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirdi".

Navoiy har qanday ishni el-yurtning manfaati nuqtai nazaridan bajardi. Masalan, "Ixlosiya" madrasasi, " Shifoiya" shifoxona qasri, bir necha hammomlar, kutubxonalar bunyod ettirdi, ilm va nazm ahliga katta homiylik qildi. Uning niyatlari juda ko`p va xo`p edi. Ammo fisqu fasod bilan va nizolar bilan to`lgan bir sharoitda o`zining hamma istaklarini ham amalga oshirishga imkoniyat topolmadi. O`sha zamonda buning iloji ham yo`q edi. Chunki mamlakatni buzish, o`zaro urushlarni avj oldirish, xalqqa zulm qilishni odat qilib olgan bir guruh hukmdorlar Navoiyga qarshi zimdan ham, sirdan ham kurash olib bordilar. Siz amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rishda quyidagi tomonlarni yoritishga e`tibor bering:

1. Tarix va roman, zamon va roman.
2. Romanning konflikt qurilishi.
3. Romandagi asosiy obrazlar: a) tarixiy; b) to`qima.

4.Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarining tarixan yoritilishi.

5.Roman va adabiy tanqidchilik.

6.Romanning tili haqida.

Oybekning "Quyosh qoraymas" romani o`zbek askarlari va ofitserlarining urushdagi hayoti va qahramonligini ko`rsatishga bag`ishlangan.

"Quyosh qoraymas" romanidagi bir batalyon hayotining tez va shiddatli kechgan tarixini ifodalash orqali II jahon urushida fashizm ustidan g`alaba qozonish uchun barcha erksevar xalqlar bir jon, bir tan bo`lib, kurashishlari lozim ekanligi badiiy gavdalantirilgan. Asardagi katta - kichik, asosiy yoki yordamchi obrazlarining har biri ana shu ulug` istak bilan yashaydilar va jang qiladilar.

"Ulug` yo`l" romani "Qutlug` qon" romanining mantiqiy davomi sifatida tan olingan. Ular mavzu va muammo jihatdan bir - birini to`ldiradi, davom ettiradi va boyitadi. Agar "Qutlug` qon" romanida 1916-yilgi milliy ozodlik harakati va uning shafqatsiz ravishda bostirilishi tasvirlangan bo`lsa, "Ulug` yo`l" da undan keyingi yillardagi voqealar aks ettirilgan. Muhimi, Oybek bu romanida yangi tipdagi qahramon – ziyoli obrazini yaratgan.

"Ulug` yo`l" romani adibning og`ir xastalik yillarida bitilganligidan talay kamchiliklar, yetishmovchiliklar, til g`alazliklar, tasvirda no`noqliklar uchraydi. Ammo bu bilan asarni past saviyada yozilgan demoqchi emasmiz. Hamid Olimjon aytganidek, "Oybek prozada shoiru she'rda prozaikdir". Haqiqatan ham o`zbek nasriga she'riyatning muattar nafasini olib kirgan bo`lsa, she'riyatni faqat nasrga daxldor bo`lgan tafsilotlar marjoni bilan boyitdi. Nasriy asarlaridagi shoirona nutq boshqa biror yozuvchida uchramaydi, she'rlaridagi, dostonlaridagi tasvir mukammalligi esa uning o`zigagina xos fazilat bo`lib qolaveradi. 1999-yilda bir qator yozuvchilar qatori "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. O`zbekiston Hukumati qarori bilan 2005-yilda Oybekning 100 yilligi keng nishonlandi.

N a z o r a t s a v o l l a r i

1. Oybekning tarjimai holi haqida nimalar bilasiz?
2. U qanday qilib ijod gulshaniga kirib keldi?
3. Adibning ilk dostoni qachon yaratildi, unda nimalar haqida hikoya qilindi?
4. Adibning liro-epik merosi haqida so`zlab bering.
5. Oybek lirikasining yetakchi xususiyatini nimada deb bilasiz?
6. «Na`matak» she'rining badiiy xususiyati haqida so`zlab bering.
7. Oybekning qaysi she'rlarini yod olgansiz?
8. Oybek ijodida qanday o`ziga xos ramziy obrazlar mavjud?
9. Shoir lirikasining tili haqida so`zlang, misollar keltiring
10. Shoir lirikasiga bo`lgan adabiy jamoatchilikning fikri nimadan iborat?
11. Oybekning qaysi qissa va romanlarini bilasiz?
12. Oybekning qaysi dostonlarini bilasiz?
13. Oybekning tarjimonlik faoliyati haqida nimalar deysiz?

3-MA`RUZA: ABDULLA QAHHORNING HAYOTI VA IJODI (1907-1968)

R E J A:

1. Abdulla Qahhor – XX asr adabiyotiniung yirik vakili. Tarjimai holi va ijodiy faoliyati.
2. A. Qahhor – mohir hikoyanavis. Hikoyalari tahlili.
3. A. Qahhor – prozaik. "Sinchalak", "O`tmishdan ertaklar" qissalari hamda "Sarob" va "Qo`shchinor chiroqlari" romanlari haqida.
4. A.Qahhor – dramaturg."Ayajonlarim", "Shohi so`zana", "Og`riq tishlar", "Tobutdan tovush" komediyalari.
- 5.Abdulla Qahhorning adabiyotimizda tutgan o`rni.

ADABIYOTLAR:

1. 1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T.,1999.
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. T., 2003.
5. O.Sharafiddinov. Abdulla Qahhor. AKX.T.,1988
6. M.Qo`shjonov. Abdulla Qahhor mahorati.T.,1988
7. A.Qahhor zamondoshlari xotirasida. T.,1987
8. A.Qahhor. Asarlar.5 tomlik. T.,1987-88
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2004.

TAYANCH SO`Z VA IBORALAR: Tarjimai holi. Merosi. Hikoyanavis. Hikoyalarning asosiy fazilatlar. Epigraf. Maqol. Qissalari. Mavzu va muammo. "Sarob"ning qismati. Dramaturg.

Abdulla Qahhor "Ozgina o`zim haqimda" deb nomlangan maqolasida "Men 1907-yil kuzda, chorshanba kuni 17-sentabrda Qo`qonda Ko`mir bozori mahallasida tug`ilganman" deb yozadi.

Uzluksiz ko`chib yurganligidan Abdulla durustroq o`qiy olmadi. Dastlab bir otinoyi qo`lida savodini chiqaradi. Keyinroq Qo`qon yaqinidagi Oqqo`rg`on qishlog`iga ko`chib kelganlarida yangi usulda maktab ochgan Muhammadjon qori qo`lida ta`lim oladi. A.Qahhor ustoz haqida iliq fikrlar bildirganidek, o`qituvchi Muhammadjon qori ham o`z shogirdi Abdulla Qahhor haqida yaxshi gaplarni aytib,uning o`rtoqlari orasida qiziquvchanligi va salohiyati bilan ajralib turishini aytadi. "O`tmishdan ertaklar"da ta`kidlashicha, Abdulla Qahhor bu maktabga kirganda "Ovozi endigina do`rillay boshlagan" payt edi. Keyin bu maktabdagi o`quvchilar "Istiqbol" deb nomlangan maktab-internatga o`tkazildi. A.Qahhorning aytishicha, bu maktabdan dorilmuallimiga bir qadam edi. Shuning uchun u maktab-internatni tamomlagach, Qo`qon shahrida ochilgan o`zbek bilim yurtiga kirib o`qishni davom ettirdi. Bilim yurtiga o`sha davrning mashhur shoirlari Cho`lpon, Hamza, Rafiq Mo`minlar tez-tez kelib turardilar. 1925-yilda Toshkentga ko`chib keldi. 1927-yili O`rta Osiyo davlat universitetining ishchilar fakultetiga o`qishga kiradi. 1929-yilda tamomlab, Qo`qonga qaytadi va "Yangi Farg`ona" gazetasida mas`ul kotib bo`lib ishlaydi. Ikki yildan keyin yana Toshkentga kelib, universitetning pedagogika fakultetiga kiradi. Universitetni

tamomlab O`zbekiston Fanlar komitetiga qarashli Til va adabiyot institutida ishlaydi. 1954-56-yillarda O`zbekiston yozuvchilar uyushmasini boshqardi. Uzoq yillar uyushma qoshidagi nasr bo`limida adabiy maslahatchi bo`lib, o`nlab iqtidorli yoshlarni muqaddas adabiyot dargohiga olib kirdi. Said Ahmad, Anvar Muqimov, Uchqun Nazarov, O`lmas Umarbekov, O`tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi adiblar A.Qahhorning shogirdlari edilar.

1967-yilda 60 yilligi munosabati bilan unga "O`zbekiston xalq yozuvchisi" degan yuksak unvon berildi. Oradan 6 oy o`tar-o`tmas og`ir xastalik tufayli Moskvada 1968-yil 25-mayda vafot etdi.

A.Qahhorning birinchi kitobi "Qishloq hukm ostida" 1932-yilda bosilib chiqdi. Bu kichik qissa bo`lib, unda kolxoz tuzilishi va unga fidoyi yangi jamiyat kishisi obrazi yaratilgan. 1932-yilda uning birdaniga 2 hikoyalari to`plami e`lon qilindi.

Ko`p o`tmay, "Sarob" romani yaratildi. Qisqa muddatda Gorkiyning "Mening universitetlarim", F.Gladkovning "Olovli ot", M.Shaginiyaning "Gildrosentral", A.Serafimichning "Temir oqim", I.Lening "Tog`lar orasida" kabi yirik asarlarini, Chexov hamda Gogolning hikoyalari va qissalarini tarjima qildi. A.Qahhorning 30-yillarda yaratgan "O`g`ri", "Bemor", "Anor", "Ming bir jon", urush yillarida dunyoga kelgan "Asror bobo", "Kampirlar sim qoqdi", adibning nomini mangulikka daxldor qilgan "Dahshat", "Nurli cho`qqilar" hikoyalari umumadabiyotimizning oltin xazinasidan mustahkam o`rin olgan. Urushdan keyin A.Qahhor "Qo`shchinor chiroqlari" romanini, "Oltin yulduz", "Sinchalak", "O`tmishdan ertaklar", "Muhabbat" qissalarini yaratdi. Yozuvchining 80 yilligi munosabati bilan uning umr yo`ldoshi Kibiryo Qahhorova tugallanmagan "Zilzila" nomli qissasini ham topib e`lon qildi... A.Qahhor dramaturg sifatida ham o`zbek kitobxoniga yaxshi tanish. U hammasi balib, 4 ta drama yozgan. Hammasi kamediya janriga xos. Lekin ularning 2 tasi - "Shohi so`zana" bilan "Ayajonlarim" lirik, "Og`riq tishlar" bilan "Tobutdan tovush" satirik komediyadir. "Shohi so`zana" ("Yangi yer") pesasi uchun Davlat mukofoti, "O`tmishdan ertaklar" qissasi uchun Hamza nomidagi respublika davlat mukofotiga sazovor bo`lgan.

A.Qahhorning hikoyanavislik mahorati to`g`risida ko`plab tadqiqotlar yaratilgan va ularda adibning o`ziga xosligi yetarli ochilgan deyish mumkin. Biroq shunisi borki, har bir kitobxon bu hikoyalarni mutolaa qilar ekan, o`zini tamoman yangi hamda sehrli olamga kirib qolgandek sezadi. Yozuvchining hikoyanavis san`ati o`zidan keyingi butun bir ijodkorlar avlodi uchun iboratli maktab bo`lib qolmoqda. Uning ayniqsa, hikoya arxitekturasini qurishi va so`z ustida ishlash tajribasi tunganmas saboq bo`lib kelyapti. Mana, bu haqda davrimizning ulkan adibi O.Yoqubov shunday degan: "...til masalasida o`zim uchun biror narsa olish maqsadida Abdulla Qahhorni qo`lga olaman". Haqiqatan ham A.Qahhor hikoyalarni umrboqiy qilgan fazilatlardan biri so`z ustida ishlashidir. Yozuvchi xalq tilini benihoya chuqur bilar, qadrlar va unga mas`uliyat bilan yondashardi. Shu boisdan uning asarlaridagi muallif nutqi ham, personaj nutqi ham o`quvchiga o`ta tushunarli, tabiiy tuyuladi. Shunisi borki, asar organizmidagi bironta so`z ham ortiqcha bo`lmaydi, aksincha, ixcham

soʻzlardan tashkil topgan iboralar oʻzining siqqligi, maʼnodorligi bilan istalganidan koʻra koʻproq mazmun kasb etadi.

A.Qahhor hikoyalarnining fazilatlaridan yana biri voqelikning dabdurustdan, yaʼni aynan tugundan boshlanishidir. Bu xususiyat kitobxonni asarga birdan jalb qiladi, uni sehrlab oladi, oxirigacha qoʻyib yubormaydi. Birinchi iborani oʻqish bilanoq endi nima boʻladi degan savol tugʻiladi. Sanʼatkor esa bu savolga javob berishga shoshilmaydi. Javobni hikoyaning xulosasidan olishimiz mumkin...

Sanʼatkor asarlarining yoqimtoyligini taʼminlovchi fazilatlardan yana biri qahramon ruhiyatini tasvirlashda koʻrinadi. Bunda ham yozuvchi ortiqcha soʻz ishlatib oʻtirmaydi, balki koʻproq detallarga suyanadi. Bu jihatdan ayniqsa, yozuvchining mashhur "Asror bobo" hikoyasi diqqatga sazovordir.

Ijodini qissa yozish va nashr ettirishdan boshlagan yozuvchilar adabiyotimizda kam. Shulardan biri A.Qahhor boʻlib, ijodiy yoʻlini oʻrganganimizda ilk toʻplami "Qishloq hukm ostida" kichik qissadan iborat kitob ekanligini aytgan edik. Qissa oʻsha davr talablariga koʻra shoʻro hukumatining fidoyi kishisi obrazini yaratishga bagʻshlangan.

Ikkinchi qissa "Oltin yulduz" beshariqlik oddiy dehqon Ahmadjon Shukurovning urush jangohlarida koʻrsatgan qahramonligiga bagʻshlangan boʻlib, hujjatlarga asoslangandir. Asarda oʻzbek yigitining mushti gurziga teng ekanligini badiiy jihatdan isbotlashiga, xalqning obroʻsini koʻtarishga eʼtibor beriladi.

Uchinchi va eng mashhur qissasi "Sinchalak" boʻlib, asar mamlakatda biroz ijodiy erkinlik hukm surgan yillarda yozilgan. 1959-yili nashr qilindi. Biz bu asarni amaliy mashgʻulotda oʻrganamiz. Siz unda quyidagi muammolarni yechishingiz kerak:

- 1.Asar voqealari roʻy bergan davr va sharoit.
- 2.Unda koʻtarilgan muammo va konflikt.
- 3.Qissaning syujet va kompozitsion qurilishi.
- 4.Asosiy obrazlari va ularga tahlil.
- 5.Saida obrazidan kutgan niyatlari.
- 6.Qalandarov qanday obraz – ijobiy mi, salbiy mi yoki murakkab mi? U nega jazolanmadi? Raislikdan nega boʻshatilmadi? Bu oʻsha davr hayot haqiqatiga toʻgʻri keladimi? (bahs-munozara, tezkor savol-javob usulida)
7. Yozuvchining qissani yaratishdan koʻzlagan yashirin maqsadlarini nima?
- 8.Asarning tili. Personajlar nutqi xarakter tabiatiga mosmi? Asarni sinchiklab oʻqisangiz, bu savollarga toʻla javob topasiz deb oʻylayman.

A.Qahhor 4 qissasi "Oʻtmishdan ertaklar"dan ayrim parchalar oʻrta taʼlim maktabi dasturiga kiritilgan. Bu qissada ham kechagi kun voqealariga Chexov koʻzoynagi bilan qaraydi. Unda tasvirlangan hamma voqealar fojeali, oʻtmishdan yaxshilik unsurlarini topib boʻlmaydi. Bu albatta, hozirgi kun oʻquvchisida katta eʼtiroz tugʻdiradi. Bunday eʼtiroz oʻsha paytda ham aytilgan. Bunga izoh berib yozuvchi asarning "Bir-ikki soʻz" deb atalgan muqaddimasida "Men kitobni "Oʻtmishdan lavhalar"deb atamoqchi edim, mayli, shularning ham koʻngli toʻlsin, kitobni "Oʻtmishdan ertaklar"deb atay qolay" deb taʼkidlaydi. Qissa 1965- yilda nashr qilingan. Asarning asosiy qahramoni usta Abduqahhor. U tirikchilik vajidan

qishloqma-qishloq ko'chib yuradi, har xil odamlarni ko'radi, turli voqea-hodisalarga duch keladi. Bularni hikoya qilish yosh Abdulla zimmasiga yuklangan. Abdulla ro'y berayotgan voqea-hodisalarni kuzatuvchigina xolos. Ularda faol ishtirok etmaydi, ko'rgan, eshitgan voqealarni bayon etuvchi hikoyachigina xolos. Shu jihatdan ayrim ilmiy manbalarda qayd etilganidek, "O'tmishdan ertaklar" avtobiografik qissa emas. Avtobiografik qissaning janr xususiyatlarini yanada chuqurroq anglab olish uchun siz Oybekning "Bolalik" qissasi bilan taqqoslab ko'ring.

"Muhabbat" qissasi yozuvchining so'nggi nidosi bo'lib qoldi. "Muhabbat" nomiga yarasha yoshlarning bir-biriga ko'ngil qo'yishi, izhori dil qilishi emas. To'g'ri, ota-onasi yoshligida o'tib ketgan Anvar bir marta turmush ko'rgan Muhayyoga o'rganib qoladi. Ammo u buni boshqalar o'ylagandek, sevgi deb bilmaydi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: "Men Muhayyoni sevamanmi, yo'qmi, bilmayman. Ammo men hayotda Muhayyo degan insonga muhtojman". Demak, asarda sevgidan ham ulug'roq insoniy mehr- oqibat tasvirlanadi.

A.Qahordan 2 roman qoldi. Uning eng ko'p shov-shuvga sabab bo'lgan asari "Sarob" romanidir. Roman O'zbekiston Respublikasining tashkil etilganining 10 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tanlovda 2-mukofotga sazovor bo'lgan.

1947-yilda A.Qahhor "Qo'shchinor" deb nomlangan ikkinchi romanini e'lon qildi. Roman voqealari mamlakatdagi kolxozlashtirish siyosatiga bag'ishlangan. Unda Siddiqjon ismli yigitning kolxozga kirgach, baxtli va farovon turmushga erishishi ifodalanadi. Albatta, davr talablaridan kelib chiqib, adib kolxozlashtirish jarayonida kommunistlarning rolini bo'rytirib ko'rsatishg urindi. Siddiqjon raykom kotibi Ahmedov, qishloq sovetining raisi Samandarov, kolxoz partiya tashkilotining kotibi O'rmonjon, viloyat vakili Safarovlarning ko'magi bilan Zunnunxo'janing tuzoqlaridan qutulib, ilg'or kolxozchiga aylanadi. Biroq baribir bu roman haqida ham uzoq va jiddiy tortishuvlar ro'y berdi. Natija shunday bo'ldiki, roman g'oyaviy jihatdan zararli, tarixiy voqelik buzib ko'rsatilgan deb uzil-kesil xulosa chiqarildi. Yozuvchi romanni zararli g'oyadan tozalash, "buzilgan" tarixiy voqelikni haqiqatga yaqinlashtirish uchun uch yil qayta ishladi va 1951-yilda "Qo'shchinor chiroqlari" nomi bilan nashr ettirdi. Lekin roman baribir, mukammallik pog'onasiga ko'tarila olmadi. Undan hatto muallifning o'zi ham qoniqmadi.

Urushdan keyingi yillarda A.Qahhor dramaturgiyada ham ijod qilishga kirishdi. 1949-yili "Yangi yer yoxud shohi so'zana" nomli pyesasini yaratdi.

A.Qahorning 1967-yilda yaratilgan "Ayajonlarim" pyesasi ham lirik komediya janriga xosdir. Bu drama ham ko'tarilgan muammosi va konflikti bilan "Shohi so'zana"ni eslatadi. Unda ham bolalarning muhabbati, o'zgacha yashashga intilishi, axloqiy qarashlariga kattalarning munosabati va uni qabul qilish-qilmasliklari ifodalanadi. "Shohi so'zana"dan farqli o'laroq, "Ayajonlarim"da komik vaziyat butun asarni qamrab turadi. Buning bosh sababchisi Bo'ston buvidir. U o'z o'g'li Karimjonni juda baxtli bo'lishini xohlaydi, o'zining ko'nglidagi qizni olib berib, ularning huzurida yayrab-yashnab yashashni orzu qiladi. Biroq bolasi tushmagur u aytgan qizga uylanmaydi, uyga tayyor kelin - Umidani olib keladi. Asar markazida ana shu

mashmasha turadi va muammo yoshlar foydasiga ijobiy hal bo`ladi. Bo`ston buvi timsolida muallif o`zbeklarning bag`ri keng, mehribon onalarning tipik karakterini berolgan. Shu jihatdan ham bu drama "Shohi so`zana"dan ham ko`proq mashhur bo`ldi.

Agar "Shohi so`zana" bilan "Ayajonlarim"da yumoristik kulgi ustun tursa, "Og`riq tishlar" bilan "Tobutdan tovush" satirik komediyalar sifatida maydonga keldi. Demak, A.Qahhorning barcha dramalari dramatik turning komediya janrida yaratilgan: ikkitasi lirik, ikkitasi satirik komediya. Satirik komediyalarida muallif qalamga olgan muammoni hayot sahnasidan qo`porib tashlashni maqsad qilib quyadi. "Og`riq tishlar"da oila taqdiri asar markaziga qo`yilgan bo`lsa, "Tobutdan tovush" da undan ham muhimroq bo`lgan muammo - jamiyatni chirishga olib keluvchi illat poraxo`rlik qoralanadi.

Ko`rinadiki, A.Qahhorning har bir asari janridan va hajmidan qat`iy nazar, xoh ijobiy, xoh salbiy ma`noda adabiy jamoatchilikning e`tiboridan chetda qolmagan. Lekin hayotiy ildizlari mustahkam bo`lganligidan ular tanqid toshbo`ronlariga bardosh berib, to`siqlardan hatlab yashab kelmoqda. Adabiyot atomdan kuchli ekan, uning kuchini o`tin yorishga emas, balki umuminsoniy muammolarni yoritishga sarflangani uchun ham A.Qahhor buyuklik pog`onasidan joy olib turibdi.

O`zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo`shgan ulkan hissasi uchun Abdulla Qahhor "O`zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga, mustaqillik yillari davrida esa "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan. 2007-yilda el sevgan yozuvchining 100 yilligi keng nishonlandi.

NAZOARAT SAVOLLARI:

1. Yozuvchining tarjimai holi haqida qisqacha so`zlab bering.
2. Adibning ijodiy yo`li qanday kechdi?
3. A.Qahhorning qanday mashhur hikoyalari bor?
4. "O`g`ri", "Bemor" hikoyalaridagi hayotiy haqiqat nimada?
5. Adib ijodida yumoristik asarlar qanday o`rin tutadi?
6. Adibning "O`g`ri" hikoyasi kompozitsiyasi haqida so`zlab bering.
7. A.Qahhor asarlarining tili haqida nimalar deya olasiz?
8. U xalq og`zaki ijodining asosan qaysi janridan foydalangan?
9. Sizga A.Qahhorning qaysi asari yoqadi, nima uchun?
10. A.Qahhor asarlari haqida aytilgan ilmiy qarashlarga munosabatingiz.
11. A.Qahhor yirik prozaga asosan qaysi qissalarni yozish bilan kirib keldi?
12. Uning "Oltin yulduz" qissasida qanday voqea hikoya qilinadi?
13. "Sinchalak" qissasi nima uchun A.Qahhorga shuhrat keltirdi?
14. Asarda qanday voqelik hikoya qilinadi?
15. Qissasadagi konflikt nimadan iborat?
16. Qalandarov qanday obraz?
17. "O`tmishdan ertaklar" asari haqida so`zlab bering.
18. "Sarob" romanida nimalar haqida hikoya qilib beriladi?

19. "Qo`shchinor chiroqlari" romani qachon yozildi, unda nimalar haqida hikoya qilinadi?

20. O`zbek adabiyotshunosligidagi A. Qahhor asarlariga bildirilgan fikr qanday?

4 – MA'RUZA: MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODI (1908-1967)

R E J A:

1. Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi.
2. Lirik merosi. "Xiyobon" to'plami haqida.
3. Dostonlari va balladalari.
4. Dramaturglik va tarjimonlik faoliyati.
5. Shayxzoda – adabiyotshunos olim.

A D A B I Y O T L A R:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. T., 2003.
5. I. G`afurov. O`rtoq shoir. Maqsud Shayxzoda ijodi. T., 1975.
6. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy-tanqidiy ocherk. T., G`G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1969.
7. M. Shayxzoda zamondoshlari xotirasida. T., 1983 y.
8. M. Shayxzoda. Asarlar. 6 tomlik. T., 1969-74 y.
9. M. Shayxzoda. Dunyo boqiy. T., 1988

TAYANCH IBORALAR: Shayxzoda - o`zbek xalqining ozar o`g`loni. Lirikasi. Falsafiylik. Dostonlari. "Toshkentnoma". Tarixiy dramalari. "Jaloliddin Manguberdi".

Maqsud Shayxzoda o`zbek adabiyotining rivojlanishiga munosib hissa qo`shgan ulkan so`z san'atkoridir. Uning baland qoyalardan oqayotgan sharsharadek jo`shqin she'riyati, mavjlanib oqayotgan katta daryodek hayotbaxsh dostonlari, shifobaxsh buloqlar singari ta'mi tilingizda qoladigan dramalari o`zbek adabiyoti xazinasidan munosib o`rin olgan.

Maqsud Ma'sumbek o`g`li Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida shifokor oilasida tug`ildi. Otasi Ma'sumbek o`z zamonasining ilg`or ziyolisi, shifokori bo`lgan, el-yurt orasida katta obro`ga ega kishi edi. Ayni paytda adabiyotni va san'atni sevadigan, tarix va falsafani yaxshi bilgan inson sifatida uyida ilmiy va adabiy anjumanlar ko`p bo`lardir. Maqsudning tarbiyasida otasining ta'siri katta bo`ldi. O`zining hayot yo`li to`g`risida yozgan bir maqolasida otasining kelajagiga ijobiy ta'sirini minnatdorlik bilan quyidagicha eslaydi: "Agar she'r aytish qofiya topishdan boshlanadigan bo`lsa, men 5 yasharligimdan she'r to`qiganman. Otam ishdan qaytganda mahallamizdagi bolalarni to`plab, bitta so`z aytardi-da, unga qofiya topishni so`rardi. Biz bolalar qofiyadosh so`zlarni bir-birimizga gal bermay

chuvillashib aytardik. Menda she'rga havas ana shunday tug`ilgan. Hali alifboni egallamasdan oldin she'r yaratganman."

Shayxzoda Oqtoshdagi ibtidoiy maktabda savodini chiqardi. Zehni tezligi, iqtidori yaxshiligi tufayli 13 yoshidayoq Bokudagi dorilmuallimin bilim yurtiga o`qishga kiradi. Uni 1925-yili tamomlab, Dog`istonning Darband shahriga ishga yuboriladi. Maktabda muallim bo`lib ishlayotgan yigit siyosiy voqealarga ham aralasha boshlaydi. Bu paytda Dog`istonni Rossiya tarkibiga qo`shib olish harakati boshlangan edi. Bunga qarshi Dog`iston xalqi, ayniqsa, ziyolilar qattiq qarshilik ko`rsata boshlaydilar, mitinglar uyushtiriladi, namoyishlar o`tkaziladi. 17 yashar o`smir Shayxzoda bu voqealarda faol qatnashadi va tashkilotchi sifatida qo`lga olinadi. Keyin u sud qilinib, Ozarboyjondan badarg`a qilish haqida hukm chiqariladi. 1928-yilda Toshkentga kelib qolishining sababi aslida mana shundaydir. (Shayxzodashunos tadqiqotchi M.Zokirov bilan 1988-yil 23.11. da bo`lgan suhbatdan.) Bu voqea esa qariyb 70 yillar o`quvchidan sir saqlab kelindi. Shundan boshlab, Maqsud Shayxzoda o`zbek xalqining ozar o`g`loni bo`lib qoldi. U Toshkentga kelgach, o`zbek tilini qunt bilan o`rganadi va tez orada shoir sifatida taniqli bo`ldi.

Maqsud Toshkentga kelib Narimonov nomidagi texnikumda muallimlik qiladi. Keyin "Sharq haqiqati", "Qizil O`zbekiston" gazetalarda ishlaydi. Gazetalar uni ijodiy muhit bilan yaqinlashtirdi, yangi do`stlar ortirdi. Shayxzodaning ijodi aslida o`z ona yurtida, dorilmualliminda o`qib yurgan paytlarida boshlangan. Toshkentda yashayotgan shoirning birinchi she'ri 1929-yilda "Sharq haqiqati" gazetasida "Traktor" degan nom bilan bosilgan. 1933-yilda shoirning birinchi she'riy to`plami "O`n she'r" nomi bilan bosilib chiqdi. Shundan so`ng birin-ketin "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934) "Jumhuriyat" (1935) "Yangi devon" 1937 kabi to`plamlari bosildi va shoirga katta shuhrat keltirdi. Urush yillarida uning "Kurash nechun?", "Jang va qo`shiq", "Ko`ngil deydiki", "Grozoy rojdenke", "Serdsa govorit" to`plamlari e`lon qilindi. 1944-yilda tarixga murojaat qilib, o`zbek xalqning vatanparvar o`g`loniga bag`ishlab "Jalolidin Manguberdi" dramasini yaratdi. 1945-yilda esa "O`n besh yilning daftari" kitobini nashr ettirdi. Bu to`plam shoir ijodining ma`lum bosqichini yakunlaydi. Demak, bu bilan shoirlik ijodiy qalamini o`zbek adabiyotida tashlaganligini rasman tan oladi. Shundan keyin birin-ketin M.Shayxzodaning "Yillar va yullar", "Yurt she'rlari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shuola", "Sozim", "Xiyobon" singari baquvvat she'riy tuplamlri kitobxonalar qo`liga tegdi. Bu orada "Ulug`bek yulduzlari" kinotarixini, "Mirzo Ulug`bek" (1964) tarixiy dramasini ham yaratdi. Keyin arxividan "Abu Rayhon Beruniy" dramasining eskizlari topildi. Afsuski, "Yarim asr devoni"ni tugata olmay, 1968-yilning 19- fevralida olamdan o`tdi. Alloma shoirmiz ijodining boshlaridayoq "Men yashamoq istayman uch raqamli bir sonda", ya`ni 100 yoshga kirishini orzu qilgandi.

Shayxzoda o`zining "She'r va shoir" manzumasida "Inson sharofati she'rlarimga mavzu" deydi, chunki "u bilan musharraf qo`shiq va yozuv":

Odamning, olamning husnin olqishlay

Ularga sevgimning vaznin bag`ishlay.

Ushbu satrlar M.Shayxzodaning ijodkor sifatidagi mustahkam e'tiqodini anglatib turibdi. Bu yo'ldan shoir umrining oxirigigacha toyilmadi. U she'riyatda haybarakallachilikdan, "ura- ura" dan, madhiyabozlikdan o'zini tortdi. Xalqning ruhiga madad berguvchi, uni olg'a mardona qadam tashlashga ruhlantirguvchi asarlar yaratdi. Shu ma'noda Shayxzodaning har bir she'ri davrning siyosiy hayotidan chetda qolgan emas. Bu haqda shoirning o'zi ham shunday yozgan:

*Men dunyoda bo`lmadim ishq shoiri,
Birida "yasha-yasha" birida "go`zal-pari"
Ikki daftar yozayotgan shoir-poir emasman
She`rda ko`z bo`yovchilik o`chirilsin dillardan.
Biz frontda badiiy so`z rotasiga askarmiz,
Yengil batareyadan otash bilan so`zlarmiz!*

Shoirning "Kurash nechun?", "Berlinda sud bo'lgusi", "Kapitan Gastello", "Qasos", "Yo'q, men o'lgan emasman!" singari o'nlab she'rlari urush yillarida yozilgan. Shoir she'riyatiga xos jo'shqinlik va boy his-tuyg'ularning bevosita ifodasi bu she'rlarda aniq ko'zga tashlanadi. Urushdan keyingi yillarda Shayxzoda asosan, mehnat va tinchlik mavzusida she'rlar yozdi.

M.Shayxzoda o'zbek adabiyotiga o'zining bir necha ballada va dostonlari bilan ham hissa qo'shdi. Shoirning "Muhammad to'pchi"(1943) balladasi urush yillarida katta jasorat va qahramonlik ko'rsatgan o'zbek yigiti Muhammadjon Ibrohimovga bag'ishlanadi. U frontda to'potar mergan sifatida dushman tanklarini yanchadi, qanchadan-qancha qishloqlarni ozod qiladi.

Shayxzodadan 14 ta doston qolgan. Shundan 2 tasi zamonasozlik ruhida yaratilgan. Ijodkor birinchilardan bo'lib O'zbekiston jumhuraisi Y.Oxunboboyev obrazini yaratishga erishgan. 1943-yilda uning "Oqsoqol" deb atalgan portret-dostoni e'lon qilindi. Bundan oldinroq yaratilgan "Kulba" balladasi, ayrim she'rlarida ham shoir ota obrazini yaratishga uringan edi. Keyin dostonga qo'l urdi. Doston "xolis, sershafqat, po'latday mahkam inson" sha'niga bitilgan madhiyadir.

M.Shayxzoda nomini mashhur qilgan dostonlaridan biri "Toshkentnoma"dir. 1957-yilda yozilgan bu asar shoirga xos poetik ijodining eng yaxshi namunasi, cho'qqisi bo'lib qoldi. Bu lirik doston bag'ishlovdan tashqari 18 bobdan iborat. Toshkent misolida o'zbek xalqining baxti,kamoli tarannum etiladi.

Doston yaxlit syujet liniyasiga ega emas, unda lirik qahramon shoirning lirik chekinishlari ko'proq.

Doston o'zbek she'riyatidagi rang-barang imkoniyatlardan foydalanib, Toshkent sha'niga qo'yilgan muazzam haykal bo'lib qoldi. Bu haykal tobora bo'y cho'zmoqda:

*Men o`zbek she`rining to`qqiz vaznida
Sening dostoningni ohangga soldim.
Kuyladim o`n sakkiz bobda – qo`shiqda
Va "Toshkentnoma"ga qo`ydim so`ng nuqta.*

Maqsud Shayxzodaning dramaturgiyadagi ilk qadami 20-yillarda boshlangan. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: "1923-yilda yozgan "28-aprel inqilobi" pesam sahnaga qo'yildi". Demak, Shayxzoda 15 yasharligidagina drama

yaratgan. Shundan keyin oradan 20 yillar o'tib yana bu janrga murojaat qildi va 1944-yilda "Jaloliddin Manguberdi" nomli tarixiy-romantik tragediyasini yaratdi. Unda O'rta Osiyo xalqlarining XIII asrda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi tasvirlangan. Asarda Jaloliddin Manguberdi xalq qahramoni sifatida gavdalanadi. Uning vatanparvarligi, uning kuchli irodasi, mardligi, jangdagi jasorati va donoligi aks ettirilgan.

Voqealar Xorazm va uning atroflarida bo'lib o'tadi. Dramada Jaloliddindan tashqari otasi Xorazmshoh, singlisi Sultonbegim, Xo'jand hokimi, xalq lashkarboshisi Temur Malik, Samarqand hokimi, Xorazmshohning kuyovi sotqin Amir Badriddin, tarixchi Muhammad Nasaviy kabilarning xarakteri ham yaratilgan. Yurtini jon-dilidan sevgan valiahd Jaloliddin mug'ullar Xorazmga hujum qilganlarida otasidan qo'shinni ixtiyoriga berishni so'raydi. Ammo sotqin Amir Badriddinning qutqusiga uchgan qo'rqqoq Xorazmshoh uni shohlikni qo'lga olmoqchi deb o'ylab, o'g'lini valiahdlikdan mahrum etadi. Jaloliddin uchun esa tojdan ko'ra Vatan a'lodir, u Vatanga sodiq qoldi, Vatan uchun jon fido qildi.

"Mirzo Ulug'bek" (1960) tragediyasi tarixiy-biografik janrda yaratilgan bo'lib, XX asr o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Professor Ozod Sharafiddinov iborasi bilan aytganda bu asar: "... uch cho'qqining biri... "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini hech bir ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorga qo'ysa bo'ladi..."⁶.

Tragediya o'zbek xalqi tarixining yorug' yulduzi, adolatli podshoh, buyuk munajjim, ma'rifaparvar olim Muhammad Tarag'ay ibn Shohruh - Ulug'bekka bag'ishlangan. Ulug'bek 15 yoshidan boshlab 40 yil saltanatni boshqardi, o'z qo'l ostidagi mamlakatda nisbatan osoyishtalik va adolatni barqaror etdi. O'zbek xalqi tarixida Ulug'bek faqat "xaloyiqning ahvolini" yaxshilashni burchi deb bilgan fuqaroparvar podshohgina emas, ayni paytda "shohlikni ma'rifatga dastyor" qilishni orzu etgan mutafakkir hamdir. Mana shu istagini amalga oshirishda Ulug'bek o'z zamonasi bilan to'qnash keldi. U o'z qo'li bilan rasadxona qurdirdi. 1002 ta yulduzning joylashish o'rnini belgilab chiqdi, zij tuzdi, o'nlab iqtidorli va fidoyi shogirdlar tayyorladi. Ma'lum bo'lishicha, Ulug'bek tayyorlagan jadval G.Galileyning jadvalidan sekundlarga farq qilar ekan, xolos. Ulug'bek o'zi olim bo'lganligidan ilmning qudratiga yuqori baho beradi.

Shayxzoda adabiyotshunos olim hamdir. 1958-yilda "Alisher Navoiyning lirik qahramoni" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ko'plab ilmiy maqola va risolalar yozgan, Alisher Navoiyni "g'azal mulkining sultoni" deb ham Shayxzoda ta'riflagan. Ijodkor tarjimalari ham talaygina. Mustaqillik yillarida ijodkorga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berildi. 2008-yil Maqsud Shayxzoda tavalludininh 100 yilligi keng nishonlandi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Shayxzodaning tarjimai holi haqida so'zlab bering.
2. Adib qanday qilib ijod olamiga kirib keldi?

⁶ Sharafiddinov Ozod. Uch cho'qqining biri. – "O'zAS" gazetasi, 2001-yil, 23-noyabr.

3. Birinchi to'plami qaysi nom bilan e'lon qilindi?
4. Ikkinchi jahon urushi yillarida M.Shayxzodaning hayoti va ijodi qanday kechdi?
5. Shoirning lirik merosi haqida nimalar bilasiz?
6. Uning nechta dostoni bor?
7. Dostonlardagi yetakchi xususiyat nimada deb o'ylaysiz?
8. Nima uchun "Toshkentnoma" asari M.Shayxzodaning nomini mashhur qildi?
9. Dostonda qanday badiiy obrazlar bor?
10. Dostonning badiiy xususiyati haqida nimalar deya olasiz?
11. Dramaturgligi haqida nimalar bilasiz?
12. Shayxzoda urush yillarida qanday drama yozdi?
13. Nima uchun ushbu drama xalq tomonidan iliq qarshi olindi?
14. Dramaning asosiy g'oyasi nimadan iborat?
15. Asarning yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat?
16. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi qachon yozilgan?
17. Asarda qanday tarixiy voqealar hikoya qilingan?
18. Asardagi tarixiy shaxslar va to'qima obrazlar nimalar deya olasiz?
19. M.Shayxzoda dramalarining adabiyotimizda tutgan o'rnini qanday baholaysiz?
20. Shayxzodaning adabiyotshunos olimligi haqida nimalar bilasiz?

5 – MA'RUZA: HAMID OLIMJONNING HAYOT VA IJOD YO'LI (1909-1944)

REJA:

1. Hamid Olimjonning hayot va ijod yo'li.
2. Shoir lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
3. Dostonlari. "Zaynab va Omon" to'g'risida.
4. "Muqanna" tarixiy dramasi.
5. Hamid Olimjonning adabiyotimizda tutgan o'rnini.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T., 2003.
5. Karimov N. Hamid Olimjon. AKX. T., 1985 y.
6. Mamajonov S. Shoir dunyosi. T., 1974 y.
7. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. X tomlik. T., 1979-84y.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Tarjimai holi. Ilk ijodi. Baxt va shodlikni kuylash sababi. Harbiy lirikasi. Balladalari. Dostonlari. Dramaturg. "Muqanna" – hurriyat uchun kurashchi. "Jinoyat" dramasi.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Uning yoshligi juda ziddiyatli davrga to'g'ri keladi. To'rt yoshida otasidan ayrilgan Hamidning tarbiyasi bilan bobosi Azimbuva shug'ullanadi. Azimbobo xat-savodli, savdo ishi bilan dunyo ko'rgan, adabiyot bilan tanish, Fozil Yo'ldosh, Ergash

Jumanbulbul singari xalq baxshilari bilan do'st tutungan odam edi. Ularning suhbatlarida yosh Hamid ham ishtirok etar va xalq dostonlari, termalarini murg'ak qalbiga jo qilib olardi. Bo'lajak shoirning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilgan yana bir inson onasi Komila aya edi. Yoshligida onasidan eshitgan ertaklar, qo'shiqlar, maqol va matallar keyinchalik Hamid Olimjon ijodida asqotdi.

Abdulhamid bilim yurtini tamomlab, 1928-yilda O'zbekiston Davlat pedakademiyasiga o'qishga kiradi. Respublika poytaxti Toshkentga ko'chish munosabati bilan pedakademiyani tamomlagan va shoir sifatida tanilgan H.Olimjon ham poytaxtga yo'l oladi. Dastlab "Qurilish", "O'zbekiston sho'ro adabiyoti" jurnallarida mas'ul kotib lavozimlarida ishladi.

1932-37-yillar oralig'ida u dastlab madaniy qurilish, ilmiy-tekshirish institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Shu yillarda Hamid Olimjon o'zbek adabiyotiga 20-30-yillarda kirib kelgan yosh avlodning eng oldingi shoiri sifatida tanildi va talay to'plamlari nashr qilindi. Hamid Olimjonning birinchi to'plami "Ko'klam" nomi bilan 1929-yilda bosildi. Shundan so'ng uning birin-ketin "Tong shabadasi" hikoyalar to'plami, "Olov sochlar", "Poyga", "O'lim yovga"(1932), "Zaharli yurak"(1933), "Daryo kechasi" (1936), "She'rlar"(1937), "O'lka", "Oygul bilan Baxtiyor"(1939), "Baxt" (1940) kabi 10 ta to'plami bosilib chiqdi. Ko'ryapsizmi, Hamid Olimjon sermahsul va tezkor shoir sifatida har yili, ba'zida esa bir yilda ikkitadan to'plam nashr qildirgan. U holda nega 1934-35 va 1938-yillarda tanaffus bo'ldi? Buning sabablari siyosiy hayot bilan, jamiyatning ijod ahliga munosabati bilan izohlanadi.

1937-yildan umrining oxirigacha faqat baxt va shodlik mavzusida 8 ta she'r yozgan. Avvalgi 12 yilda esa hammasi bo'lib to'rtta edi. Bundan tashqari so'nggi 8 yilda yozgan she'rlarida "baxt, tole, shodlik" so'zlarining o'zi 60 tadan ortiq. Boshqa ma'nodosh so'zlar, masalan: iqbol, zavq, saodat, xursandlik kabilar bu hisobga kirmaydi. 1925-37-yillar oralig'ida yaratgan she'rlarida 40 ga yaqin, 1937-44-yillarda yozgan she'rlarida esa 60 dan ortiq baxt va shodlik so'zlari ishlatilgan. Bu raqamlar ham Hamid Olimjonning o'zini himoya qilish uchun shu mavzuga murojaat qilganligidan dalolat beradi. Bularning hammasini jamlab, 1940-yilda "Baxt" deb atalgan to'plamini nashr ettirishi ham shundan dalolatdir.

Lekin, mening nazarimda, shoir bunday she'rlarni ko'zida yoshi, qalbida armoni bilan yozgandek tuyuladi. Fikrimizning isboti uchun birgina 1937-yilda yozilgan "Baxtimiz to'g'risida" she'rini olib ko'raylik. She'r mazmunan ikki davrni - inqilobdan avvalgi baxtsiz, g'am-qayg'uga to'la zamonnini va inqilobdan keyin "shodlik va baxt kuyini chalgan" xalqning hayotini ifodalashga bag'shlangan. Shu ma'noda garchi muallifning o'zi ajratmagan bo'lsa ham asar ikki qismdan tashkil topgandek tuyuladi. Ular ohang jihatdan keskin farq qiladi, qofiyalanish tizimida ham farq bor. Birinchi bo'limidagi 6 band a-b-v-b tarzda qofiyalangan bo'lsa, 3 banddan iborat 2 qism a-b-a-b shaklida qofiyalangan. Birinchi bo'limda ohang qayg'uli, mungli, 2 bo'limda esa quvnoq va balandparvoz. Turoqlar esa o'zgarmagan: 4-5.

Hamid Olimjondan 4ta ballada, 9ta doston qoldi. "Jangchi Tursun" balladasi o'zbek yigitining 2-jahon urushida ko'rstgan qahramonligi, ona vasiyatini ado etib, g'olib sifatida jon berganligini ifodalasa, "Roksananing ko'z yoshlari"da

urush tufayli yurtimizga kelib qolgan ukrain ayoliga o'zbek dugonalarining hamdardligi, bag'ri kengligi, insonparvarligi ko'rsatiladi.

Badiiy jihatdan yuksak saviyada bitilgan dostonlarning uchasi "Komsomol keladi", "Jabha bo'ylab" va "Grisha" siyosiy mavzuda yozilgan. "Shohimardon" dostoni shoir Hamzaning o'limidan keyin tashkil qilingan "Hakimzoda" nomli kolxoz a'zolarining hayotiga, "Ota hayotidan" esa Mulkobod qishlog'idan chiqqan bir otaxonning inqilobiy kurashiga bag'ishlangan. "Ikki qizning hikoyasi" dostoni daryolarni bog'lab insonga xizmat qildirish haqidadir. Biz shoirning uchta dostonini "Oygul va Baxtiyor", "Semurg` yoki Parizod va Bunyod"ni darsdaa, "Zaynab va Omon"ni esa amaliy mashg'ulotda mufassal o'rganib chiqamiz. Dastlabki ikki doston xalq ertaklari asosida yaratilgan. 22 bobdan iborat "Oygul va Baxtiyor" dostoniga "Malikai Husnobod" ertagi asos bo'lgan deyish mumkin. Lekin voqealar yo'nalishida katta farq bor, faqat Oygulning boshidan kechirgan ayrim hodisalar - zindondan ozod qilinib, sandiqda oqizilishi, uni dastlab o'tinchi chol, keyin baliqchi tutib olishi, qashshoq yigitga tuhfa qilinishlari-yu, yurt tashkil qilish, boyib podshoga qarshi hujum uyushtirishi saqlangan.

O'zbek xalq ertaklari asosida yaratilgan "Semurg` yoki Parizod va Bunyod" 1939-yil aprel oyida yozib tamomlanadi va shu yili "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" jurnalining 6-sonida e'lon qilinadi. Shoir Semurg` timsolida yaxshilikka homiylik qilgan, insonlar boshiga soya solgan, baxt, davlat va saodat keltiradigan afsonaviy qushni yaratdi va u orqali oliyjanoblik, qahramonlik, insoniylik fazilatlarini ulug'ladi. 17 bob, 1011 misradan iborat bu doston ham 7 bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan.

"Zaynab va Omon" dostoni bo'yicha asosiy e'tibor beriladigan masalalar:

- 1.Dostonning yaratilish tarixi.
- 2.Asosiy mavzusi va g'oyalari.
- 3.Dostonning kompozitsion qurilishi.
- 4.Syujet yo'nalishi.
- 5.Zaynab obrazi.
- 6.Omon obrazi.
- 7.Anor xola obrazi.
- 8.Sobir va Huri obrazlari haqida.
- 9.Doston konflikti va uning yechimi.
- 10.Dostonning badiiy xususiyatlari va tili.

Ko'rinadiki, Hamid Olimjon shoir va dramaturg, olim va publitsist, hikoyanavis va tarjimon sifatida o'zbek adabiyotiga ulkan va rang-barang meros qoldirdi. Qaysi janrda yozilgan bo'lmasin, uning har bir asari yuksak badiiyligi, ohangining ko'tarinkiligi, obrazlarning yangiligi g'oyalarning zamonaviyligi bilan o'zbek adabiyoti xazinasidan o'ziga munosib o'rin egalladi. Shu fazilatlar bilan Hamid Olimjon manguylikka daxldor san'atkordir. Mustaqillik yillarida shoir ijodi munosib qadrlanib, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berildi. 2009-yilda Hamid Olimjon tavalludining 100 yilligi keng nishonlandi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Shoirning tarjimai holi haqida soʻzlab bering.
2. Uning dastlabki she'riy toʻplami qaysi nom bilan qachon chop etildi?
3. Nima uchun uni «baxt va shodlik kuychisi» deb atashadi?
4. Shoir lirikasining gʻoyaviy-badiiy xususiyati nimada?
5. Uning ijodiga qanday salbiy munosabatlar bildirildi?
6. Sizga yoqqan shoir she'rlaridan birini tanlab, tahlil qilib bering.
7. Shoirning ijodiy yoʻlida qaysi mavzu yetakchilik qiladi?
8. Uning muhabbat mavzusidagi qaysi she'rlarini sevib oʻqiysiz?
9. Adabiy tanqidchilikning Hamid Olimjon ijodiga bergan bahosi qanday?
10. Hamid Olimjonning oʻzbek adabiyotidagi oʻrni qanday?
11. Hamid Olimjon qanday dostonlar yaratdi?
12. “Zaynab va Omon” dostonining yaratilishi haqida hikoya qilib bering.
13. Poemadagi obrazlarga munosabatingiz qanday?
14. Hamid Olimjondan nechta ballada va doston qoldi?
15. “Jangchi Tursun” balladasida qanday mavzu yoritilgan?
16. Ushbu asarni siz bugungi kun nuqtai nazaridan turib qanday baholaysiz?
17. Yana adibning qanday poemalarini bilasiz?
18. Hamid Olimjon dramaturg sifatida qanday asarlarni yozdi?
19. Urush yillarida qanday dramatik asarni yozdi?
20. “Muqana” dramasi haqida syujeti, poetik xususiyati haqida soʻzlab bering?

6- MA'RUZA: MIRTEMIR. HAYOTI VA IJODI (1910 –1978)

R E J A:

1. Mirtemir - XX asr she'riyatining bobodehqon shoiri.
2. Shoirning hayot va ijod yoʻli haqida.
3. Mirtemir she'riyatining xalqchilligi va jozibasini.
4. “Surat” lirik dostoni – XX asr oʻzbek dostonchiligining noyob namunasi.
5. “Yodgorlik” – shoirning avlodlarga vasiyatnomasi.
6. Xulosa.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr oʻzbek adabiyoti. Darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi oʻzbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. O'tayor. Mirtemir. AKX. T., 1986.
5. Sharafiddinov O. Birinchi moʻjiza. T., 1979y.
6. Mirtemir. Asarlar. 4 tomlik. T., 1980-83.

TAYANCH SOʻZ VA IBORALAR: Mirtemirning tarjimai holi. Dehqonbobo shoir. “Shuʻlalar qoʻynida”. Lirikasining mavzu doirasi. “Qoraqalpoq daftari” turkumi. Vatan madhi. Dostonlari.

Mirtemir oʻz zamondoshlarining ulkan muhabbatiga va yuksak bahosiga sazovor boʻlgan ijodkordir. 15 yoshidayoq keng ommaga shoir sifatida tanilgan, 18

yoshida birinchi she'riy to'plami bilan mashhur bo'lgan Mirtemir Tursunov o'zining aytishicha, 1910-yilda qadim va muqaddas Turkistonning Iqon qishlog'ida Qorovulbobo urug'iga mansub bo'lgan chorvador-dehqon oilasida tugildi. Uning ota va ona tomonidan har ikki bobosi ham pahlavon hamda o'qimishli odamlar bo'lgan. Mirtemirning tarbiyasida ularning roli katta edi. Ayniqsa, ona tomonidan bobosi maktabdor domla bo'lgani uchun, yosh Mirtemir dastlabki savodini ana shu bobosida chiqardi. Keyin qishlog'ida yangi ochilgan Asfandiyor ismli no'g'oy domla maktabida ta'lim oldi. Mirtemir u haqda iliq fikrlarni aytadi.

O'qishga ishtiyoqi baland bo'lgan Mirtemir ota tomonidan bobosining qarshiligiga qaramay, 1921 yilda Toshkentga keladi. Bu yerda Almaiy maktab-internatiga kirib o'qishni davom ettiradi. Bu yerda 2 yil o'qigach, shaharda yangi tashkil qilingan o'zbek erlar bilim yurtiga kiradi. Bu bilim yurtida o'zbek adabiyoti va madaniyatining chinakam jonkuyarlari, o'z davrining yirik adabiyotshunoslari Olim Sharafiddinov, Abdurhmon Sa'diy kabilar dars berardi. Ular bo'lajak shoir Mirtemirga juda katta e'tibor va ko'mak beradilar. 1929-yilda bilim yurtini tamomlagach, hukumat yo'llanmasi bilan Samarqand pedakademiyasida o'qishni davom ettiradi. Ayni vaqtda O'zbekiston Markaziy ijroiya qumitasining raisi Yo'ldosh Oxunboboyevning 4-kotibi lavozimida ham ishlay boshlaydi.

Mirtemirning 1-she'ri "Yer yuzi" jurnalining 1926-yil 16-sonida bosildi. Keyin birin-ketin barcha matbuot sahifalarida Mirtemirning she'rlari ham bosila boshlaydi. 1928-yili uning "Shu'lalar qo'ynida" nomli birinchi kitobi bosilib chiqdi. Mirtemir bu to'plami bilan o'zbek adabiyotida sochma she'r shaklini birinchi bo'lib boshlab berdi. "Sochma she'r u vaqtda yetakchi janr bo'lib, yig'inlaru namoyishlarda, mitinglarda, bayramlarda va radioda mening sochmalarim ham qayta-qayta o'qilar edi" deydi Mirtemir. Shoirning ilk to'plami keltirgan shuhrat keyingi kitoblarning bosilishiga keng yo'l ochib berdi. Birin-ketin uning "Zafar" (1929), "Qaynashlar" (1931), "Bong" (1932), "Poytaxt", "Ochlar o'lkasida" (1936) singari she'riy to'plamlari e'lon qilindi.

Tabiatan muloyim, qalbi sehrli tuyg'ularga boy bo'lgan Mirtemir o'z ustida qunt bilan ishladi, xalqimizning boy og'zaki ijodini, buyuk Sharq mumtoz adabiyoti an'alarini qunt bilan o'rganishga kirishdi. Bora-bora uning she'rlarida xalq ohanglari, yuksak obrazlilik, sehrli tuyg'ular ohangrabosi o'quvchini maftun eta boshladi. Shu bois ham uning ijodiga quyidagi 3 manba asos bo'ldi deyish mumkin:

1. Xalq og'zaki poetik ijodi. "Yurt qo'shig'i", "Yali-yali", "Qarqaralik" va boshqa o'nlab she'rlari xalq hikmatlari, maqollari asosiga qurilgandek taassurot qoldiradi.

2. Mirtemir ijodini yuksaklikka ko'targan manbalardan yana biri o'zbek mumtoz adabiyotining hamisha barhayot an'alaridir. Shoirning "Navoiy", "Mahdumquli to'yida o'zbek ko'zasi", "Ustozga ataganim" kabi she'rlari ibratlidir. "Navoiy" she'rida "Tushlarida ham shoir suhbatdosh" bo'lib, ijodxonasi sirlaridan tinmay saboq berayotganligini aytadi.

3. Qardosh xalqlar adabiyoti bilan oshnolik, ularning ijodiy tajribasidan hormay-tolmay o'rganish Mirtemir she'rlarini yana yuqori pog'onaga ko'tardi. Mirtemir tarjima borasida ko'p savob ishlarni amalga oshirdi. Agar u rus shoirlaridan Pushkin, Nekrasov, Mayakovskiy, hind R.Tagor, gruzin Rustaveli, qoraqalpoq Berdaq, qozoq oqini Abay... Ularni sanab, sanog'iga yetib bo'lmaydi. Qirgiz xalqining buyuk eposi "Manas", gruzin xalqining qahramonlik eposi, Sh.Rustaveli qalamiga mansub "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon", zahmatkash rus qalamkashi Nekrasovning "Rusiyada kim yaxshi yashaydi?" kabi asarlarni o'zbek tilida gapirtirgan san'atkor Mirtemir bo'ladi.

Mirtemir ijodida ko'zga tashlanib turadigan mavzular quyidagilardir:

1. Ona yurt muhabbati, o'lka go'zalligi mavzusi. Bular asosan "Bu mening Vatanim", "Senga, respublikam!", "Ona yurt", "O'zbekistonsan", "Men tug'ilgan tuprog'", "Yana tuprog' to'g'risida" singari she'rlaridir. Mana shu mavzudagi she'rlarida bayon qilingan ishq izhorini tartibga solsak, butun mamlakatimiz sathini egallab oladigan ulkan qasida paydo bo'lardi. "Yana tuprog' to'g'risida" she'rida:

*Roziman shu yurtda tug'ilganimdan,
Ona tuprog'imda-da! Ha, ona tuprog'.
Yetti iqlim intiq jonona tuprog',
Roziman shu loyda yo'g'rilganimdan deydi.*

"Men tug'ilgan tuprog'" she'ri o'rta ta'lim maktabining 7-sinf darsligiga kiritilgan. Yuqorida tilga olingan she'r bilan "Men tug'ilgan tuprog'" she'ri mazmunan bir-birini to'ldiradi. Bunda ko'proq tarixga murojaat qilib, o'lkamiz bosqinchilariga qarshi cheksiz nafrat tuyg'usi ilgari suriladi. Bu she'rda lirik qahramon – shoirning butun hayoti shu tuproqqa yo'g'rilganligi, shu tuproqda ulg'ayganligi, shu tuproqda umr ko'rganligi va bobo bo'lganligidan faxrlanish hissi seziladi:

*Taqvodorday cho'k tushib, peshonamni qo'yaman,
Onam kabi o'paman, qalb mehriga to'yaman... deydi.*

2. Mirtemir ijodida o'quvchi ko'ziga yarq etib tashladigan mavzu o'zbek kishisining fidoyi mehnatidir. "Yashil yaproqlar", "Farg'ona", "Ko'l bo'ylarida", "Achchisoy", "Kuz" kabi o'nlab she'rlari shular jumlasidandir...

3.. Qardosh xalqlar mavzusi ham Mirtemir ijodida keng va chuqur ishlangan. Shoir azaldan o'zbekning qon-qoniga singib ketgan do'stlik tuyg'usi haqida, qardosh xalqlarning milliy o'ziga xosligini, ularning ajoyib kishilarini ulug'lovchi ko'p va xo'b she'rlar yaratdi. Bu jihatdan Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari", "Qirg'iz she'rlari" turkumlari xarakterlidir. Shoirning "Qoraqalpoq daftari" o'ziga xos tuzilgan bo'lib, Mirtemirning ijodkor sifatida nimalarga qodir ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

4. Mirtemir ijodida oz bo'lsa-da, soz ishlangan mavzulardan biri ona madhiyasidir. "Onajonlar", "Sen ona", "Onaginam" nomli she'rlari Mirtemir tarjimai holidan eng muhim o'rin tutgan she'rlardan hisoblanadi.

5. Muhabbat mavzusi Mirtemir ijodining alohida sahifasini tashkil etadi. "Men seni", "Pardalik", "Kegaylidan", "Suygulik" kabi she'rlarini o'qib tahlil qilamiz.

6. She'r va shoir qismati Mirtemir ijodida hech kimga o`xshamagan tarzda ifodalanadi. Mirtemirning quyidagi she'ri uning shoir sifatidagi adabiy-estetik e'tiqodini isbotlab turibdi. Bu she'rni o`qib, biz shoirning har qanday sharoit va vaziyatda ham nima uchun tinimsiz she'riyat bilan hamsuhbat hamdard bo`lganligining bosh sababini bilib olamiz.

She'riyat dargohini muqaddas Ka'ba deb bilgan shoir umrining oxirigacha unga sadoqat bilan, poklik bilan, ezgu niyat bilan halol xizmat qildi, biror daqiqasini ham she'rsiz o`tishini xohlamadi, chunki she'rsiz hayot Mirtemir uchun bema'ni edi:

*Ka'bamsan, she'riyat, ezgu ehromim,
Og`u ham bol to`liq bebaho jomim,
Amalim va ishqim, umidu armon,
Uyqusiz tunlarim - jindak ilhomim...*

*Kerakmas inju ham sensiz, haqiq ham,
Kerakmas shaddod ham sensiz, daqiq ham ,
Hayot ham men uchun sensiz bema'ni,
Sensiz o`tmashin-da hatto daqiqam.*

Mirtemir 14 ta doston yozgan. Shulardan eng mashhurlari "Surat", "Ajdar", "Dilkusho" va "Farg`ona"dir. Folklor motivlari asosida yozilgan "Ajdar" dostonida el-yurt boshiga tushgan ofatni bartaraf etgan mard cho'pon ulug'lansa, "Dilkusho"da Amir Olimxon nafsining qurboniga aylangan go`zal qiz fojiasi to`g`risidadir. Biz amaliy mashg`ulotda shoirning "Surat" asarini urganamiz. Shu munosabat bilan siz unda quyidagilarni aniqlashga e'tibor bering:

1. Asarning janr xususiyatini aniqlang. Mirtemir tomonidan u qanday atalgan?
2. Doston voqealari qaysi davrda bo`lib o`tadi va qanday g`oya ilgari suriladi?
3. Asar qanday kompozitsiya asosiga qurilgan?
4. Toshlon va Oysuluv obrazlarini tahlil qiling.
5. Asar qanday poetik detal bilan qoplangan?
6. Parchalar yodlang va yod o`qib bering.

Mirtemir mana bu satrlar bilan o`zbek adabiyotida, xalqi yuragida mangu yashab qoladi.

*Yuragimni sevgi chertgan ilk oqshom,
Ilk satrim tushgandi qog`oz betiga...*

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mirtemir tarjimai holi haqida so`zlab bering?
2. Mirtemir qanday qilib she'riyat olamiga kirib keldi?
3. Uning ilk to`plami qachon, qanday nom bilan bosilib chiqqan?
4. Shoirning lirik merosi haqida nimalar deya olasiz?
5. Uning she'rlari nimasi bilan o`ziga maftun etadi?
6. Shoir she'rlarining badiiyligi haqida so`zlab bering.

7. Mirtemirning qaysi she'rlari sizga yoqadi, nima uchun?
8. Mirtemir tarjimon sifatida qanday ishlar qildi?
9. Mirtemir ijodiga berilgan baho qanday?
10. Shoir ijodida qanday mavzular yetakchilik qiladi?
11. Vatan, tabiat haqidagi qaysi she'rlarini bilasiz?
12. Muhabbat mavzusida qanday she'rlar yozgan?
13. O`zingiz yoqtirgan bir she'rni tahlil qilib bering.
14. «Daryolar jimir-jimir» she'rida qanday she'riy san'atlardan foydalangan?
15. Nima uchun xalq og`zaki ijodining ta'siri shoir she'rlarida ustun?
16. Shoir she'rlarida mumtoz adabiyot ta'siri qanday?
17. Uning qaysi she'rlarida mumtoz she'riyatimiz ta'siri yaqqol sezilib turadi?
18. Mirtemir ijodi haqida adabiyotshunoslarimiz qanday fikr bildiradilar?
19. Shoir ijodi haqida Sizning shaxsiy fikringiz qanday?

UMUMLASHTIRUVCHI DARS

1. XX asr o`zbek adabiyoti qaysi davrlarni o`z ichiga oladi?
2. Istiqlol davri adabiyotichi?
3. Bu davr adabiyotida qanday g`oyaviy, shakliy o`zgarishlar yuz berdi?
4. Oybekni nima uchun falsafiy shoir deb ataymiz?
5. Oybek prozasi haqida nimalar deya olasiz?
6. A.Qahhor ijodining o`ziga xos qirralari nimada?
7. Shayxzoda dramaturgiyasi haqidagi fikringiz.
8. Hamid Olimjon she'riyati haqida nimalar deya olasiz?

7-MA'RUZA: ZULFIYA. HAYOT VA IJOD YO'LI (1915-1996)

R E J A:

1. Zulfiya – XX asr o`zbek adabiyotining yirik vakili.
2. Shoiraning yoshlik va o`qish yillari.
3. Ijodining boshlanishi. To`plamlari haqida.
4. Lirikasi. Mavzu va g`oya. Asosiy obrazlari.
5. Dostonlari va tarjimalari.
6. Zulfiyaning mustaqillik yillari ijodi haqida.
7. Ijodkorning adabiyotimizda tutgan o`rni.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. M. Sultonova. Zulfiya T., 1985.
5. Y. Solijonov. So`z mas`uliyati. T., 1986.

6. Y.Solijonov. "Ijodning sodiq qamdami". T., Sharq Yulduzi jurnali., № 9, 1987.
 7. Ehtirom. (shoira haqida maqolalar) T., 1995.
 - 8.Zulfiya. Asarlar. III tom, T., 1985-86.
 - 9.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.
- TAYANCH SO'Z VA IBORALAR. Lirik. Lirik qahramon. Lirik obraz. She'riy doston. Ayol qismatining ifodalanishi. Istiqloq va Zulfiya ijodi. Dostonlari: "Xotiram siniqlari".

O`zbekiston xalq shoirasi, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti, Javoharlal Neru nomidagi Hindiston respublikasining davlat va Xalqaro "Nilufar" hamda "Neru" mukofotlari sovrindori, taniqli jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yilning 1-martida Toshkent shahrida degrez oilasida tug`ildi. Zulfiya boshlang`ich maktabni bitirgach, 1931-34-yillarda xotin-qizlar bilim yurtida ta`lim oldi. Shu yerda she'r mashq qila boshladi. Bilim yurti qoshida adabiy to`garak tashkil qilingan bo`lib, unga shoir SH.Sa'dulla rahbarlik qilardi. To`garakda davrining taniqli shoirlari G`.G`ulom, Uyg`un, H.Olimjon kabilar bilan tez-tez uchrashuvlar o`tkazib turilardi. Bu mashqlarda Zulfiyaning she'riyatga havasi ortar, ko`proq she'r o`zishga harakat qilardi. Bilim yurtida adabiyotdan dars beradigan professor A.Sa'diy ham Zulfiyaga katta yordam berar, uning siymosida adabiyotimizning o`suvchi, o`sganda ham tez o`suvchi avlodini ko`rdi va bu bahosida u yangilishmadi. Haqiqatan ham Zulfiya keyinchalik o`zbek she'riyatining zuhro yulduzi bo`lib qoldi. Bu haqda Mirtemir domladan o`tkazib bir narsa deyish mushkul : "O`zbek poeziyasida Zulfiya degan nomning chaqnaq paydo bo`lishi tong yulduzining tug`ilishiga teng bo`lgan voqeadir".

Zulfiyaning birinchi she'ri o`zining aytishicha, 1931-yilning 17-iyulida "Ishchi" gazetasida "Men ishchi qizi" sarlavhasi ostida bosilgan. "XX asr o`zbek adabiyoti tarixi" darsligida esa shoiraning ilk she'ri "Qizil durra" bo`lib, uning "dunyoga kelishiga paranjini tashlab zavod-fabriklarda mehnat qilib, boshlaridagi ro`mol o`rniga qizil durralar o`ray boshlagan ayollar hayoti turtki bergani bejiz emas deyiladi. Nima bo`lganda ham Zulfiya 30-yillarning boshlaridayoq shoira sifatida tanila boshladi. Zulfiya hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshidayoq "Hayot varaqlari" nomli to`plamini 1932-yilda chop ettirdi. Bu to`plamga 20ta she'ri kiritilgan bo`lib, ularda o`sha davr shoirlari uchun dolzarb hisoblangan ijtimoiy mavzudagi (bahor,yurt go`zalligi, odamlar baxti, farovon hayotdan minnatdorlik tuyg`ulari ifodalangan. Ammo bu to`plamda hali xiyla bo`sh she'rlar ko`p edi. "Biz she'riyatga ko`r-ko`rona, jiddiy tayyorgarliksiz kirib keldik, - deydi bu to`plami haqida shoiraning o`zi. - Sirasini aytsam, unda qanchadan qancha chuchmal misrlar, nochor qafiyalar, mayda-chuyda mavzular bor." Shoira o`z ilmini oshirishga astoydil harakat qildi. O`zbekiston Fanlar Komiteti qoshidagi til va adabiyot ilmiy tekshirish institutining aspiranturasiga kirib o`qiy boshladi. Ayni paytda bolalar nashriyotida muharrir bo`lib ishlay boshladi. Hayotning o`zi unga yana bir talabchan va mehribon ustozni ro`para qildi: 1935-yilda ulkan shoir Hamid Olimjon bilan hayoti rishtalari bog`landi.

O`zining tan olishicha ham, adabiyotshunoslikning tasdiqlashicha ham Zulfiya urush yillarida shoira sifatida shakllandi va tanildi. Bu yillarda uning "Uni Farhod der edilar", "Hijron kunlarida", "Vernost", kabi to`plamlari bosilib chiqdi. Urush davri Zulfiya uchun ham og`ir sinov davri bo`ldi. U hayotidagi ulkan yo`qotish - umr yo`ldoshi Hamid Olimjondan bevaqt judo bo`ldi. Ammo Zulfiya dovdirab qolmadi, endi qo`liga ikki sozni olishga ahd qildi. - o`zi va Hamid Olimjon uchun ijod qilishga kuch topa oldi. Bu shoira she'riyatining mazmuni, yo`nalishi ruhidagina emas, ayni ijtimoiy faoliyatida ham yaqqol ko`rinadi. U 30 yildan ortiqroq (1950-1984) hozirgi "Saodat" jurnalida adabiy xodim va bosh muharrir bo`lib ishladi. Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatida faol qatnashdi, mamlakatimiz vakili sifatida Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstraliya kabi mamlakatlarda bo`ldi.

Urushdan keyingi yillar Zulfiya ijodida ham eng sermahsul davr bo`ldi deyishga asosimiz bor. Shoiraning "Bahor keldi seni so`roqlab", "Hulkar", "Men tongni kuylayman", "Yuraginga yaqin kishilar", "Kuylarim sizga", "Yillar, yillar", "She'rlar", "Kamalak", "Shalola", "Tong bilan shom aro" singari 30ga yaqin majmualari, dastlab 2 jildlik, keyin esa 3 jildlik, "Asarlar"i bosilib chiqdi. Bu kitoblarning har biri shoira ijodida muhim bosqich bo`lib qoldi. She'rdan she'rga, to`plamdan tuplamga Zulfiya ijodining yangi fazilatlari ochila bordi.

Darhaqiqat, Zulfiyaning iste'dodi olmos yanglig` serqirradir. U she'riyatning barcha shakllarida qalam tebratayotgan ulkan shoiragina emas, balki ajoyib maqolanavich, qalami o`tkir jurnalist, ilmiy tahlil qila oladigan olim, dramaturg va mohir tarjimon hamdir. 50-yillardan boshlab shoiraning har bir to`plamigina emas, balki alohida she'rlari ham she'r ixlosmandlari tomonidan alohida qiziqish bilan kutib olinayapti. Chunki uning she'rlarini "minglarcha kishilar o`z qalbi va dili bilan his etib, o`zlariniki" qilib olmoqdalar. Boisi bu she'rlar o`quvchining "yuragiga yaqin, aziz, uni ham hayajonga soladigan torlarni" chertadi. Shoira o`z she'riga, shunday murojaat qiladi:

Farzandim, she'rginam, bor tezroq,

Makon qur eng toza yurakda...

Zulfiya ijodini bir-ikkita mavzu bilan chegaralab bo`lmaydi. Shoira ijodning mavzu doirasi keng, obrazlari rang`-barangdir. Lekin uning asarlarini mutolaa qilgan kitobxon Zulfiyaning yurt kuychisi ekanligini aniq bilib oladi. U ana shu yurti fuqaralarining hayotini ko`ylaydi, ularni shoira "Yuraginga yaqin kishilar" deb biladi. Shoira uchun "ismini ham kasbini ham bilmay" digan bu odamlarning hamma-hammasi tanishdir. Chunki shoira uchun:

Yurtim xaritasi - mening yuragim,

Eng uzoq burchi ham tanish va yaqin.

Muqaddas gavharday saqlayman unda,

Yigirma millionli xalq muhabbatin.

Zulfiya she'riyati teran fikr bilan jo`shqin hissiyot uygunligidan hosil bo`lgan intellektual va psixologik she'riyatdir. U tahliliy, falsafiy, o`ynchan ayni chog`da aniq manzarali she'rlardir. Shoira hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o`tkir dramatik holatni, dramatismning cho`qqisi - fojeiy kolliziyalarni chizadi.

"Men she'rlarimining bir mavzu atrofida cheklanib qolishini istamayman" deydi shoira. Uning lirikasi chindan ham rang-barang mavzularda yaratilgan.

Zulfiyaning butun ijodi o'zbek ayoli qismatining uzoq va murakkab yo'lini o'zida mujassam etgan badiiy ko'zgudir. Ijodkorning "Lobar qizlarga", "O'zbek qizi ovozi", "Saodatning amerikalik xonimga javobi", "Paranjisini tashlamagan xotinga", "Zootexnik qiz" kabi she'rlarida o'zbek ayolining o'ta baxtli, farovon hayoti to'g'risida madhiyabozlik ruhida yaratilganlari ham bor.

60-yillardan boshlab Zulfiya ijodining ufoqlari yanada kengaydi. Shoiraning otashin so'zlari endi umumbashariy muammolarni qamrab ola boshladi. U avvalo, oddiy fuqaro va insonparvar ijodkor, yirik san'atkor sifatida olam va odam taqdiriga befarq qaray olmaydi. O'z taqdirini xalqi va butun insoniyat taqdiri bilan chambarchas bog'liq holda anglash hissi Zulfiya ijodiga siyosiy va falsafiy ruh bagishladi. Misol uchun "Salom sizga, erkparvar ellar! ", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Men chizolmagan surat", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Mushoira" kabi she'rlarini olib ko'raylik. Ularda butun dunyodagi mehribon ayollarni ruhiyati va maqsad-intilishlarini o'zida mujassamlashtirgan ona hamda ulkan san'atkor siymosi namoyon bo'ladi. Shoira mazkur she'rlarida "Ijod, yaratishning shavqiga to'lib zo'r ishonch bilan olg'a borayotgan, "ertani bugungi keltirmoq uchun" kurashayotgan, " ... non, sevgi, mehnat, do'stday, aziz ayol surati" ni chizish ishtiyoqi bilan rang izlayotgan inson qiyofasida namoyon bo'ladi. Shoira ijodining bosh belgisi sifatida shunday ahd qiladi:

Men chizaman ... non, sevgi, mehnat,

Do'stday aziz ayol suratini,

Shu kamtarin, shu ulug' san'at -

Mening yurtim, mening shuhratim.

Respublikamizning milliy mustaqillikka erishishi Zulfiyaga ilhom berdi. Yillar davomida qimtinib, haqiqatni bor bo'yicha ayta olmay, yuragi o'rtanib yurgan shoira yangi davr kelganini teran his etdi. Bosib o'tilgan yo'lga yangicha nazar - adolat ko'zi bilan boqib, ularni o'z nomi bilan atab, haqqoniy realistik she'rlar yarata boshladi. Endi shoiraning ovozi yanada tiniq, o'ktam, ohanglari, sadoqatli tus oldi. Uning "Shaqqning o'zi ona bo'lgan hamisha " "Iqrorga vaqt yetdi" kabi she'rlari, "Hotiram siniqlari" dostoni Zulfiya ijodining yangi sahifasi, yangi bosqichi va hozirgi davr o'zbek she'riyatining qonuniy yutugi deyishga arziydi. "Sharqning o'zi ona bo'lgan hamisha" she'rining sarlavhasi ostiga shoira "Boy o'tmishimizga tuhmat toshlarini otayotgan xorijdagi ba'zi olimlarga mening javobim" deb yozib qo'ygan. She'rda shoira xalqimizning tarixda hech qachon avom, qul, mute', bo'lmagani, aksincha, ozod, erkin yashash uchun mardona kurashib, insoniyat tarixi g'ildiragini olg'a yurgizishga buyuk hissasini qo'shgan ulug' zotlar yetishtirib berganini aytadi. Unda shoira buyuk zotlarimizni shunchaki tilga olibgina qolmaydi, yorqin ixcham misralarda ular buyukligini ta'riflaydi:

Duch kelsa adovat yanchib beayov !

Zakovat, adolat,

Iymon, diyonat

Qudratin o'ziga muqaddas yalov

Bilgan sohibqiron Temur sarhardalar bor!

Bu parcha haqiqatga mos, shu tufayli ishonchli va ta'sirli chiqqan. Shoira tarixni shohid qilish yo'lidan borib, o'zbek tabiatidagi hurfikrlilik va erkparvarlilikni g'urur bilan ko'z-ko'zlaydi va deydi:

Biling

Komil,

Fozil

Bashar yulduzlariga

Sharqning o'zi ona bo'lgan hamisha!

Shoira Zulfiya o'zbek adabiyotini talay yaxshi dostonlar bilan ham boyitdi. Uning " Uni Farhod der edilar"; Ikki o'rtoq", "Mushoira", "Vodil yulduzlari", "So'roqlaydi shoirni she'rim", 'Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi dostonlari bor. Bulardan "Uni Farhod der edilar" dostoni urush qahramoni artist Qobil qori Siddiqov xotirasiga bag'ishlangan. Shoira dostonlarining uchtasi ijod ahli to'g'risidadir. "Mushoira" butun dunyo shoirlari anjumaniga bag'ishlangan bo'lib, tili, dini, ko'rinishi turlicha bo'lgan shoirlarning bir-birini tilmochsiz tushunishi, yakdillik g'oyasi ilgari surilsa, "So'roqlaydi shoirni she'rim", H. H. Niyoziyga atalgan "Quyoshli qalam" dostonining qahramoni Oybek bo'lib, uning insoniy va san'atkorlik fazilatlari ishonarli ifodalanadi. Zulfiyaning umri so'ngida yaratgan, istiqlol samarasi bo'lgan "Xotiram siniqlari" dostoni adabiyotimizda muhim voqea bo'ldi. U iste'dod hech qachon so'nmasligi va har doim o'zining yangi-yangi qirralarini namoyish etishi mumkinligini yana bir karra isbotladi. Shoira voqeani shunday ta'sirli tasvirlaydiki, kitobxon ko'zi oldida shoiraning ota-onasi, akasi va uning yorqin obrazi tiniq va jozibali gavdalanadi. Barkamol, fozil akasi qamoqqa olinganda "dillari vayron bo'lgan onasini, "joni po'lat, olovdan metindan yaralgan" otasini ko'rib hali murg'ak shoira lol, ilojsiz qoladi, faqat nafrati, o'chini o'q qilib ota " oladi o'sha qotillarga:

Onam qo'llarida mushtday tugunchak,

Tosh shaharni kezar avaxta izlab,

Avaxta nechadir, zor ona necha,

Nechalar yashardi zamoni "siz" lab.

Doston hajman uncha katta emas, unda voqealar, ma'lumotlar, faktlar, fikrlar ixcham tasvirlangan. Doston shoiraning butun hayotini, uzoq yillik xotiralarini qamrab olmagan, balki nomlanishida ta'kidlanganidek, chorak asrlik ulkan hayotining eng muhim parchalarini, siniqlarini tanlab oladi. Asar lirik doston bo'lib, uning bosh qahramoni shoiraning o'zidir. U baralla ovozi ila:

Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding,

Kelar yo'llaringda pinhona toldim.

Mening ota-onam, jon Vatanimda,

Elim taqdirida abadiy qolding

deb murojaat qiladi.

Zulfiya 1995-yilda 80 yoshga to'ladi. Vatanimiz uni "Do'stlik" ordeni bilan taqdirladi. O'zbek xalqining atoqli farzandi va suyuqli shoirasi Zulfiya Isroilova 1996-yilning 1-avgustida olamdan o'tdi.

NAZORAT SAVOLLARI :

1. Zulfiyaning tarjimai holi haqida qisqachi soʻzlab bering.
2. Zulfiya she'riyat olamiga qanday kirib keldi?
3. Uning dastlabki she'riy toʻplami qachon chop etildi, qaysi nom bilan?
4. Ushbu she'riy toʻplamga qaysi she'rlari kiritilgan?
 1. Urush yillarida shoira qanday ijod qildi?
 2. Urushdan keyin-chi?
 3. Zulfiya she'riyatining tematikasi qanday?
 4. Zulfiya she'riyatidagi yetakchi mavzu qaysi?
 5. Shoira ijodining badiiyligi masalasida fikringiz?
 6. Sizga yoqqan she'rlaridan birini tahlil qiling.
 7. Zulfiyaning qanday liro-epik asarlarini bilasiz?
 8. «Uni Farhod der edilar» dostoni kim haqida?
 9. «Quyoshli qalam» dostoni-chi?
 10. Shoira milliy istiqlolni qanday kutib oldi?
 11. Nima uchun u oʻz dostonini «Xotiram siniqlari» deb nomladi?

ASQAD MUXTORNING HAYOT VA IJOD YOʻLI

R E J A :

1. Asqad Muxtor – XX asr adabiyotining koʻzga koʻringan vakillaridan biri.
2. A.Muxtor poeziyasi, uning novatorlik xususiyati.
3. A.Muxtor prozasi. Hikoya va qissalari.
4. "Tugʻilish", "Davr mening taqdirimda" , "Chinor" asarlari.
5. "Buxoroning jinkoʻchalari" va keyingi yillarda yozgan hikoyalari.
6. XX asr oʻzbek adabiyoti rivojida Asqad Muxtorning tutgan oʻrni.

ADABIYOTLAR :

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. T.,1999.
 2. Mirzayev S. XX asr oʻzbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
 3. Sanjar Sodiq. Yangi oʻzbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
 4. Karimov N. Gʻafur Gʻulom. T., 2003.
 5. Mirvaliyev S. Oʻzbek adiblari. T., 2003.
 6. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. I.Karimov va boshqalar . Toshkent, 1999.
 7. S.Mirvaliyev. Oʻzbek adiblari. Toshkent, 1993.
 8. A.Muxtor. " Chinor " romani, 1969.
 9. A.Muxtor Tanlangan asarlar. "Boʻronlarda bordek halovat" 1976.
 10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.
- TAYANCH SOʻZ VA IBORALAR: Roman. Qoliplovchi hikoya. Assotsiyativ suujet. Obrazlar sistemasi."99 miniatyura".

Asqad Muxtor adabiyotga shoir sifatida kirib keldi, butun ijodi davomida qaysi janrda yozmasin bari bir shoir boʻlib qolaverdi. Uning poetik ijodiga chuqurroq nazar tashlasak, koʻp yillar mobaynida she'rni barkamol qilish yoʻlini

tanlaganini ko`ramiz. Birinchi yirik she'riy asari "Po`lat quyuvchi"(1947) bo`lib, o`sha davr tanqidchiligining ijobiy bahosiga ega bo`lgan.

A.Muxtorning 40-50-yillari ko`pgina she'rlari ham ijobiy baholangan edi. Biroq, bu maqtovlarda ham ularning san`at asari sifatida chinakam fazilatlari emas, hukmron mafkuraga ma`qul jihatlari ko`klarga ko`tarilgan.

60-yillarga kelib uning ijodida o`ziga xos tomonlar paydo bo`ldi. Shoir lirikasini o`ychan lirika deb atash mumkin, chunki unda falsafiy lirikaga moyillik yaqqol sezilib turadi. Shoir ba`zan lirik minatyura, ba`zan lirik monolog, ba`zan lirik novella shakllarida kitobxonga hayotiy tajribalardan chiqarilgan xulosalarni tasvirlab berdi. Inson shaxsi har tomonlama ochilganligi uchun, uning lirikasi novatorlik kasb etdi.

Xuddi shu xususiyatlar shoirning "99 miniatyura "degan kitobida ro`yrost ko`ringan edi. Keyinchalik bu fazilatlar A.Muxtorning "Quyosh belanchagi" to`plamida davom etdi va nihoyat "Sizga aytar so`zim, " Yillarim " kabi kitoblarida balog`atga erishdi.

A.Muxtor ko`p she'rlarida insonni inson qiladigan xislatlar haqida o`yladi. Bu xislatlar xilma-xil. Ulardan biri - insonning sinchkovligi, har narsani tagiga yetishga urinishdir. Shoir fikricha, muttasil izlanish inson baxtining negizini tashkil etadi, bir she'rida shoir juda ixcham shaklda inson tabiatining mangu sirlari haqidagi o`ylarini ifodalaydi:

*Nima odam qilgan Odam Atomizni ?
Birovlar der olma, Birovlar - bug`doy,
Har holda men ko`rsatmadim o`zni
Ezgulikkagina oshiqday.*

*Yaxshi ishlar qildik, albatta,
Bu murakkab dayri azmda.
Lekin man etilgan noz-ne`matlar
Mazasi qolibda og`zimizda...*

Bunday misollarni qo`plab keltirish mumkin. A.Muxtor ko`p izlanishlar natijasida o`zbek she'riyatini balandparvoz hayqiriqlardan qutultirdi. Uni falsafiy ruh bilan boyitdi. Inson shoir ijodining bosh ob`yektiga aylanadi.

A.Muxtor 1955-yilda "Opa-singillar" romanini chop ettirdi. Roman 20-yillar voqeligiga bag`ishlangan bo`lib, undagi voqealar to`qimachilik kombinati qurilishi atrofida bo`lib o`tadi. Roman bosh qahramoni - Onaxon. Bu obrazi orqali muallif sharq ayolining erk yo`lidagi mustaqilligi, matonati, mehnatsevarligi, sadoqatini ko`rsatib beradi.

"Tug`ilish" romanida O`zbekistondagi qurilishlardan biri hikoya qilinadi. Qurilish jarayonidagi yangi avlodning tug`ilishi tasvirlab beriladi. Qurilish shunday bir qozonki - unda turli yoshdagi, psixologiyadagi kishilar yetilib, qaytadan yangitdan dunyoga kelishadi. Unda Luqmoncha, Sangin, Samadiy, Sadbar, Adolat, Xoldor va boshqa kishilar ishtirok etishadi.

"Davr mening taqdirimda" romanida muayyan bir avlodning taqdiri haqida hikoya qilinadi. Bu avlod yozuvchiga tengqur bo`lib, yigirmanchi yillarda tug`ilgan. 60-yillarda ham buni hal etishga ruxsat berilmas edi. Shunday bo`lsa-da,

A.Muxtor bu avlod vakili Ahmadjon taqdiri orqali davr fojiasini haqqoniylik bilan ochishga erishdi. Romanning bosh masalasi inson va davr, inson hayotining ma'no va maqsadi, inson baxti masalasidir. Ahmadjon yengil, xurram, hayot kechirgan deb ayta olmaymiz. U esini tanir-tanimas hayot uni qarshisiga bir-biridan chigal muammolarni ko'ndalang qiladi. Bularni chetlab o'tib ketib bo'lmaydi, ulardan o'zini pana olib bo'lmaydi. Uning hayoti ziddiyatlar qurshovida qoladi, kurashib yashashga majbur bo'ladi. Baxtga erishish juda murakkab ekanligi, oson emasligi Ahmadjon taqdiri orqali ko'rsatib beriladi. Hayot baxtni misqollab beradi, uning uchun doim kurashmoq kerak...

"Chinor" romani ham 70-yillardagi o'zbek adabiyotida katta voqea bo'ldi. Bu asarda adibning jasoratidan, izlanuvchanligi va mahoratidan darak berib turuvchi o'rinlar talaygina. "Chinor" 1973-yili O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotini oldi. Romanning bosh g'oyasi hayotning abadiy ekanligi, xalqning manguligi, ezgulik, yaxshilik abadiy ekanini ko'rsatishdir.

Yozuvchi ehtiros bilan hayotni va insonni ulug'laydi. Romaning bosh qahramoni Ochil buva. Ochil buva turli qissalarni bir-biriga bog'lovchi kompozitsion element sifatida kiritilmagan, balki asarning bosh g'oyasini asosiy yukini o'zida eltuvchi komandir. Ochil buva rolini siyomosida o'zbek xalqining umumlashgan eng yaxshi fazilatini ko'rish mumkin.

"Chinor" romaniga rivoyatlar, hikoyatlar, qissalar deb kichkina sarlavha qo'yilgan. U beshta rivoyat, beshta hikoyat, beshta qissadan iborat. Ularning hammasi nisbatan mustaqil. Har bir qissada alohida obrazlar harakat qiladi.

Ayrim o'rinlardagi voqealar g'ayri-tabiiy tuyuladi. Masalan, qishloq maktabining oddiy o'qituvchisi Shafiq'ulina raykom kotibi Orifni o'z huzuriga chaqirib, qizining "betga choparligi" uchun tanbeh beradi.

"Chinor" romani o'zbek xalqi sho'ro hokimiyati yillarida bosib o'tgan tarixiy yo'lining tahliliga bag'ishlangan. Adib xalq kuchi bilan tashkil topgan sotsialistik jamiyatining yutuqlari haqida qisman kamchiliklari haqida gapirishga harakat qiladi. Romanda bu jamiyatdagi buyruqbozlik, byurokратиya zulmkorlik xususiyatlari ko'rsatib beriladi. Xuddi shu xususiyat "Chinor"ning umrboqiy asar bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Biroq shuni aytish kerakki, u vaqtda boshqacha xulosani bo'lishi sira mumkin emas edi. "Chinor" o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan asardir.

Muallifning "Buxoroning jin ko'chalari" asarida atoqli davlat arbobi, O'zbekiston xalq komissarlari kengashining birinchi o'rinbosari F.Xo'jayevga bag'ishlangan.

She'riyat va nasrda muvaffaqiyat qozongan adib "Mardlik cho'qqisi", "Yaxshilikka yaxshilik", "Samandar" kabi sahna asarlarini ham yozdi.

Asqad Muxtor jahon adabiyotining eng sara namunalarini xalqimiz ma'naviy mulkiga aylantirishda astoydil mehnat qilgan mohir tajimon hamdir. Antik adabiyotning sara namunasi –Sofoklning "Shoh Edip" fojiasini, Shekspir va Shiller tragediyalari, Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy asarlarini mahorat bilan o'zbekchallashtirgan. Yozuvchining juda ko'p asarlari rus, hind, urdu, vyetnam, xitoy, rumin, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Asqad Muxtorga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" faxriy unvoni berilgan edi.

Umrining oxirgi yillarida og'ir kasalligiga qaramay, metin irodali adib ijoddan to'xtamadi. 1994-yilda "Insonga qulluq qiladurmen" to'plami va eng so'nggi kitobi "Uyqu qochganda" (1997) e'lon qilingan edi.

Asqad Muxtor 1997-yilning 17-aprelida Toshkent shahrida vafot etdi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. A.Muxtorning yoshlik yillari va ilk ijodi haqida so'zlab bering.
2. A.Muxtorning poeziyasi haqida nimalar deya olasiz?
3. Poeziyasidagi novatorlik qaysi o'rinlarda ko'rinadi?
4. A.Muxtor she'rlarida qanday falsafiy fikrlar ilgari suriladi?
5. U qanday tasviriy vositalardan o'z ijodida foydalangan?
6. Sizga adibning qaysi asarlari yoqadi, nima uchun?
7. Sizga A.Muxtorning qaysi she'riy to'plami yoqadi?
8. «99 miniatura» to'plamidan asosan qanday ruhdagi she'rlar yoqadi?
9. «Sizga aytar so'zim», «Yillarim» to'plamlari haqida qanday fikrdasiz?
10. A.Muxtor lirikasi haqidagi fikrlarga munosabatingiz qanday?
11. Yozuvchining nasriy asarlari haqida nimalar deya olasiz?
12. Dramaturglik faoliyati haqida gapiring.
13. Qanday asarlarni tarjima qildi?
14. Adabiyotimizdagi mehnatlari qanday baholandi?

9-MA'RUZA: SAID AHMADNING HAYOTI VA IJODI (1920-2008)

R E J A:

1. Said Ahmad- XX asr o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili.
2. Yozuvchining hajviy hikoya va miniatyuralari.
3. "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasi.
4. Adib qissalari. Lirik uslub."Hukm" va hokim mafkura.
5. "Ufq" trilogiyasi. Xalq obrazi va tarixiylik.
6. "Jimjitlik" romani.
7. Said Ahmad asarlariga doir bahs-munozara (mustaqil ish).

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. S.Mirvaliyev. O'zbek adiblari. T., 2003.
5. S.Ahmad "Ufq", "Qirq besh kun", "Jimjitlik" asarlari .
6. S.Ahmad. Topganlarim va yo'qotganlarim. T., 2002
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR. Hikoya. Roman epopeya. Trilogiya. Muallif konsepsiyasi. Esse. Yo'qotganlarim va topganlarim

Said Ahmad dilbar hikoyalar, ichak uzdi hajviyalar, nurbaxsh komediyalar, hayotiy romanlar muallifidir. U Toshkentning Samarqand darbozasi dahasida

tugʻilib, voyaga yetdi. Said Ahmad adabiyotga hikoyanavis sifatida kirib keldi. Uning “Onajonlar“, Turnalar“, “ Choʻl burguti“, “Muhabbatning tugʻilishi“, “Hayqiriq“, “Toʻy kechasida” singari hikoyalari oʻzbek hikoyachiligi yoʻnalishini belgilab bergan.

Adibning “Muzei” degan kichkina hajviyasida madaniyat uylaridan biridagi ahvol tasvirlanadi. Bu hikoyada rahbar bilan madaniyat uyi oʻrtasidagi nomutanosiblik ustidan kulinadi.

1994 yilda chiqqan “Xandon pista” toʻplamiga kiritilgan “Boʻri ovi“, “Bir siqim xandon pista“. “Goʻshtning zarari” singari hajviyalari yozuvchining kulgidagi qalami yanada qayrilib borayotganligini koʻrsatadi. Taniqli adiblar hayoti bilan bogʻliq boʻlgan hajviy hikoyalari ham “Xandon pista” turkumidan oʻrin olgan.

Said Ahmad mashhur komediyanavislardan biridir “Kelinlar qoʻzgʻoloni” komediyasi qirq besh yildan buyon sahnadan tushmaydi. Komediya janrida surunkasiga bu qadar uzoq umr koʻrgan sahna asarini hozirgi yakkoyu yagonasi – shu “Kelinlar koʻzgʻoloni”. U Hamza nomli teatrining oʻzidayoq 700 martadan ortiq sahnada koʻrsatildi.

Said Ahmadning datslabki toʻplami “Tortiq” deb nomlangan va 1940-yilda nashr etilgan. 50-yillarning oʻrtalaridan mohir hikoyanavis sifatida tanildi.

Said Ahmadning aksar hikoyalari lirik, baʼzi hikoyalari lirik-publisistik xususiyatga egadir.Ularda yozuvchi xalqimizning matonatini, ogʻir va murakkab sharoitlardagi bardoshini, oliyanob tuygʻularini ulugʻlaydi.Adibning “Choʻl burguti“, “Lochin“, “Xazina“, “Hayqiriq“, ”Iqbol chiroqlari” asarlari mafkurabozlik va siyosatbozlikdan yiroq asarlardir. Chunki bu asarlarning zamirida inson va uning qalbi yotadi.“Jimjitlik” hikoyasining qahramoni Tolibjon ham ana shunday, oʻzligini izlagan yigitlardandir. Inson – oʻzligini oʻzidan izlashi mumkin. Tolibjonda ham bu masala oʻzicha kechadi. Bu masala milliy qadriyatlarni his etish, turli fan-texnika rivojlanib, tabiatning asriy qonuniyatlari buzilib, uning tabiat goʻzalligiga taʼsir etilayotgan bir paytda oddiy insoniy sokinligini izlash bu hikoyada koʻrsatib berildi.

Said Ahmad 60-70 yillarda oʻzini mafkurabozlikka berilishidan tiya olgan adiblardan. Tolibjon hayotining koʻpdan-koʻp azob-uqubatlarini koʻrgan. Rafiqasi va farzandidan bevaqt ayrilgan, oqibatda asab xastaligiga yoʻliqqan, shahar shovqini u yoqda tursin, suhbatdoshining baland tovushini ham koʻtara olmay qolgan. Yagona istagi – jimjitlik. Bu jimjitlikni Tolibjon oʻz ona qishlogʻidan topadi, oʻz qishlogʻida dunyoga yangitdan kelgandek orom topadi. Dunyodan soviy boshlagan ixlos tomirlariga qaytadan hayot suvi yugurgandek boʻladi. Hikoyaga yozuvchi yakun yasamaydi, uni kitobxonning oʻziga qoldiradi.

Said Ahmad hikoyalari soddaligi, xalqchilligi, milliy koloritga boyligi bilan ajralib turadi. “Qadrdon dalalar” qissasida hayotni kengroq va chuqurroq aks ettiradi. 40-yillarning oxirida yozilgan bu qissa 1957-yili nashr etildi. Qissaning bosh qahramoni – bir oyogʻi nogiron, urushdan qahramon boʻlib qaytgan Poʻlatjon.U jamoa xoʻjaligi firqa tashkiloti kotibi, qurilayotgan elektr stansiya boshligi sifatida yeng shimarib ishga kirishib ketadi. Paxta rejasi oshigʻi bilan bajariladi. Poʻlatjon va Nazokatning bir-biriga muhabbatlari cheksiz. Ishdagi ayrim tushunmovchiliklar,

ota-onalarining bilib bilmay to'g'anoq bo'lishlari, bo'htonlar aralashuvi natijasida kelishmovchilik kuchayib ketadi.

Adibning "Hukm" qissasi (1958) jamoa xo'jaligi barpo etish davri hayotini tasvirlashga bag'ishlangan. Ma'lumki, 20-30-yillar haqida asar yozgan kishi sinfiy kurashni uchiga chiqarib ko'rsatmasa bormi, sinfiy kurashni xaspo'shlovchi, sinfiy dushman sifatida baholanishi tabiiy edi. Said Ahmad "Hukm" qissasida Sho'ro adabiyotini shu qonunlaridan tashqariga chiqa olgani yo'q, albatta. Biz endi XX asr oxiriga kelib, jamoa xo'jaligi tashkil etilishning o'ziga xos xatolarini tushunib yetdik.

Said Ahmad uch romandan tashkil topgan "Ufq" trilogiyasini yaratgan zabardast adibdir. Trilogiyaning o'z yaratilish tarixi bor. Dastavval ikkinchi kitob – "Hijron kunlari" (1964) so'ng "Ufq" bo'sag'asida (1969) nihoyat, birinchi kitob "Qirq besh kun" (1974) maydonga keldi. Bu trilogiyaga qadar Said Ahmad Yozyovon cho'llari, cho'lquvarlar hayotini obdan o'rgangan. Bu yo'nalishda o'nlab hikoyalar yaratgan. Shu bois "Ufq" dek yirik asarni yaratishga ruhan tayyor edi. Bu haqda Said Ahmad "Shu hikoyalarni yozmaganimda romanni yozmas edim. yo u jo'nroq bir kitob bo'lib qolardi" – degan fikrni ham aytgan. Trilogiya kuchli tarixiylik va hujjatlilik asosida yozilgan edi. Voqealar aniq hududlarda ro'y beradi. Aksar qahramonlar o'z prototiplariga ega. Bu hol albatta roman materialidan kelib chiqadi.

"Hijron kunlari'dagi dramatismga asosan, Tursunboyning frontga bormay qochoqlik qilib yurishi bilan aloqadorlikdagi jamiyat a'zolarining unga munosabatida, uning jon shirinligi va imon ustunligidan kelib chiqadi.

Dildor- A'zamjon -Inoyat oqsoqol syujet chizig'idagi jamiyat va ma'naviy burch muammosiga borib bog'lanuvchi ziddiyatlarda, ayniqsa bo'rtib ko'rinadi.

Muallif "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" asarlarida Ikromjonni ruhiy jihatdan tahlil qiladi. Ikromjon qochoq o'g'li Tursunboyning oshxona devorlaridagi barmoq izlarini ketmon bilan chopib tashlaydi.

Trilogiyada xalqimiz hayotining uch muhim davrida amalga oshirilgan tarixiy va samimiy ishlariga bosh-qosh bo'lgan rahbarlik qilgan, kezi kelganda ular bilan birga tosh chaynab, tuproq yutgan yer to'lalarda qora qumg'on choylarini baham ko'rgan Usmon Yusupov, Yo'ldosh Oxunboboyev, Rayimebrdi To'xtaboyev singari xalqparvar rahbarlarning tarixiy obrazlari yaratilgan.

"Qirq besh kun"da badiiy to'qima obrazlar bilan bir qatorda Usmon Yusupov, Teshaboy Mirzayev, Jo'ra polvon G'oyibov, Tojimat ota Xidirov singari tarixiy shaxslar ham ishtirok etadi. Bu kitobdagi mehnat jasoratlarining aksari hayotiy asosga ega va tarixiydir. Ayniqsa, kanalni 45 kunda qazib bitkazilganligi real faktdir.

Agar boshida Azizxon chapani, yerga ursa osmonga sachraydigan, deyarli hech kimga bo'ysinmovchi, ko'ngli tusagan ishni qiladigan kuch – g'ayrat deganda o'nchog'lik, odamga bas keluvchi yig'it edi.

Uning muhabbati ham tabiatiga monand, Lutfinisoni boshqaga uzatishayotganda to'ydan uni olib qochadi. Kimdir uni bu ishi uchun nomusulmonlikda ayblar, kimlardir buni havas etsa arziydigan ish deb hisoblardi. Azizxon o'zining elga, yurtga, yaqinlariga kerakligini seza oladigan qahramon.

“Qirq besh kun” dagi dramatism ijtimoiy konfliktidan ko`ra ko`proq muhabbat mavzusi tarzida namoyon bo`ladi. “Hijron” kunlariga kelib bu yo`nalish ijtimoiy ma`naviy to`qnashuvdagi ziddiyatlar tusini oladi “Ufq” S.Ahmadga katta shuhrat keltirdi.

Said Ahmadning “Ufq” dan keyingi yozilgan yirik asari “ Jimjitlik” (1988) romanidir qayta qurish, oshkoralik zamonida yaratilgan bu asar O.Yoqubovning “Oq qushlar, oppoq qushlar”i kabi mohiyat e`tibori bilan, turg`unlik deb atalgan davr illatlarining tahliliga bag`ishlangan.

Asarga 60-yillar avvali 80-yillarning o`rtalarigacha kechgan jarayon asos qilib olinadi. Mirvaliyev va uning hamtovoqlari qilgan ishlariga hech kim hech narsa deya olmaydi. Hayotda shundaydir, biroq badiiy talqin masalasida yozuvchi realistik munosabatda bo`lmaydi. Nohaq qamalib chiqqan kassir Nurmatning raykom kotibi Xolmatovni topib undan o`ch olishi, yoxud Mirvaliyevdek salkam jallod va johilning o`n to`rt yoshli Azizbek tomonidan it ho`rligida jazolanishi, bularning haq-huquq uchun kurash tarzida talqin etilishi roman muammolaridagi vazminlikka bir muncha yengil tus beradi.

Asardagi ayrim qahramonlarning tafsilotini cho`zilib ketishi, kitobxon xarakterida asosiy masaladan chalg`itadi.

Umuman, aytganda, Said Ahmad o`ziga xos maktab yaratgan yozuvchi. Bu maktabning Ne`mat Aminov, O`tkir Hoshimov, Murod Muhammad Do`st kabi mashhur vakillari bor. Adabiyotga kirib kelayotgan yangi – yangi avlodlar uchun ham bu ustoz ijodi tajriba maktabidir. Yozuvchining asarlari 20 ga yaqin tilga tarjima qilingan. O`zbekistonning “Xalqlar do`stligi” ordeniga sazovor bo`lgan. 2000-yilda “O`zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. 2008-yilda vafot etdi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. S.Ahmadning birinchi romani qaysi nom bilan chop etildi?
2. Uning ikkinchi romanichi?
3. «Ufq» trilogiyasining yaratilisha haqida hikoya qilib bering.
4. Romanda qanday voqealar hikoya qilinadi?
5. Qanday obrazlar ishtirok etadi?
6. Trilogiyadagi xalqchilik, milliylik masalalariga munosabatingiz.
7. Adib qanday dramatik asarlar yozgan?
8. «Kelinlar qo`zg`oloni» komediyasining muvaffaqiyati nimada?
9. S.Ahmad romanlari va dramalariga tanqidchilikning munosabati qanday?
10. «Jimjitlik» romani haqida hikoya vilib bering.

10-MA`RUZA: ODIL YOQUBOVNING HAYOTI VA IJODI

R E J A:

1. O.Yoqubov-tahiqli adib va jamoat arbobi.
2. Adibning hayot va ijod yo`li.
3. “Muqaddas”- yozuvchini elga tanitgan ilk asar.

4. Qissadan romanga.”Diyonat”,”Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili”-zamondoshlar hayotini badiiy tadqiq etuvchi o`ziga xos trilogiya.
5. Adib romanlarida davr muammolari.
6. Tarixiy mavzudagi romanlar:”Ulug`bek xazinasi”va “Ko`hna dunyo” haqida.
7. O.Yoqubovning o`zbek prozasi rivojidagi o`rni.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T.,1999.
 2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
 3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
 4. O.Sharafiddinov. Birinchi mo`jiza. T., 1979.
 5. S.Mirvaliyev. Roman va zamon. T., 1983.
 6. Adabiy portretlar. Majmua. T., 1985.
 - 7.O.Yoqubov. Hayot saboqlari va mashaqqatlari. X1 sinf uchun majmua. T., 1993.
 - 8.O.Yoqubov. Saylanma. 3 tomlik., T., 1985-87 .
- TAYANCH SO`Z VA IBORALAR Tarjimai holi. Qissalari. Zamonaviy romanlari. “Diyonat” muammosi. Tarixiy romanlari. “Ulug`bek xazinasi”. Inson va tabiat.

O`zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov yangi o`zbek adabiyotining yorik vakillaridan biridir. Adib yaratgan qator asarlar zamondoshlarimiz qalbidan chuqur joy olgan.

Odil Yoqubov 1926-yilda Chimkentning Turkiston tumanida tug`ildi. 1956-yilda ToshDUning filolgiya fakultetini tugatib, o`z ijodiy faoliyatini 1957-yildan boshlaydi. Adib adabiyot olamiga kirib kelishi haqida shunday xotirlaydi:

“O`z ijodlari bilan menga ta`sir ko`rsatgan yozuvchilardan Abdulla Qodiriy va Oybeklarni aytgim keladi. G`afur G`ulom prozasini juda qiziqish bilan kuzatdim, keyinchalik esa Abdulla Qahhorni chuqurroq tushunishga muaffaq bo`ldim.”

Yozuvchining “Muqaddas”, “Bir feleton qissasi”, “Tilla uzuk”, “Matluba”, “Billur qandillar” kabi qissalari, “Ulug`bek xazinasi”, “Diyonat” va “Oqqushlar oppoq qushlar”, “Ko`hna dunyo”, “Adolat manzili” kabi romanlari kitobxonlar e`tiboriga tushgan. Bundan tashqari yozuvchi senariylari asosida kino asarlari ham yaratilgan.

O.Yoqubovning “Tengdoshlar” nomli ilk qissasi 1951-yilda nashr etilgan. Bu vaqtda muallif endigina 25 ga to`lgan edi. Mashaqqatli bolalik yillari, otasining nohaq ayblanishi, frontga ketgan, kattalarning o`rnini to`ldirish kabi hodisalar asarda o`zining badiiy ifodasini topgan edi. Bu qissa muallifning birinchi qissasi bo`lgani uchun ham kamchiliklardan holi emas edi. Bu haqda adabiyotshunos M.Qo`shjonov shunday fikr bildiradi: “Tengdoshlar” povestida maolom bir g`oyaviy aniqlik bo`lmadi. Yozuvchi voqealarni aniq bir maqsadga bo`ysundira olmadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi hayotni duch kelgan voqealarini asarga kiritaverish yo`sinida tasvirladi.

Odil Yoqubov birinchi povestining bo`shligini sezdi, qalamini yaxshiroq qayrash maqsadida kichik janrga hikoyaga o`tdi. Bir qancha durust hikoyalar yozdi. “Yangi yil kechasida”, “Ikki muhabbat”, “Tog` qizi”, “Dastlabki qadam” shular jumlasidandir. Bu hikoyalarida yozuvchi hayotining badiiy asar talabiga muvofiq real detallarni topib, kitobxon xayolini shunga jalb etishga harakat qildi, qismlarni aniq bir g`oyaviy yo`nalishga bo`ysundirib, povestda yo`l qo`yilgan naturalizmdan qutula oldi.

Odil Yoqubovning “Muqaddas” va “Larza” povestlarida ham shiddatli va keskin hayot kartinalari, xarakterlar kurashining o`ziga xosligi o`z ifodasini topgan. Muallif urushdan keyingi qishloq hayotining lavhalarini badiiy tasvirlab beradi. Asardagi bosh masala xudbinlik yo`liga tusha boshlagan kishining to`g`ri yo`lga qaytishi masalasidir. Povestning bosh qahramoni Sharif o`z tabiati bilan xudbin emas, ammo u shunday sharoitga tushib qoladiki, o`zida xudbinlik paydo bo`layotganligini o`zi sezmay qoladi. Uning xudbinligi o`qishga kirishi uchun inshoni ko`chirib yozib, o`zining vijdoni oldida bir umr aybdor bo`lib qoladi. Muqaddas bilan birga o`qish unga nasib qilmaydi, chunki Sharif institutga birovning o`rniga – Muqaddasning o`rniga kiradi. Mana shu vaziyat Sharifning ko`zini ochadi, o`z vijdoniga qarshi yo`lga kirib qolganligini butun dahshati bilan his qiladi. Bu qissa garchi maolom juzoiy kamchiliklardan xoli bo`lmasada, juda katta qiziqish bilan o`qib chiqilgan.

Adibning navbatdagi qissalaridan keyingi romani, bevosita avvalgi qissalarining davomiyligiga o`xshab tuyulgan. “Er boshiga ish tushsa”dir. (1966). Bolalik va o`smirlik yillaridagi kechmishlari ushbu romanda o`zining to`laqonli ifodasini topgan. O`Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi kabi bu romanda ham urush zahmatlari, o`zbek ayolining sadoqati, irodasi, burchi har tomonlama badiiy mukammal ravishda tasvir etiladi. Yoshlarning boshiga tushgan musibat, ularning yoshlariga mos bo`lmagan nomutanosiblik ancha irodali qilib qo`yadi.

Unda yozuvchining o`ziga xos uslubiy qirralari namoyon bo`lgan. Bu eng avvalo xarakterlar yaratishdagi ko`p planlik, ko`p yo`nalishli bayon usulining qo`llanilishidir. Roman bosh qahramoni Mashrabning hayot yo`li romanda o`z ifodasini topadi.

Adibning “Qanot juft bo`ladi” (1970) qissasi ham yoshlar hayotiga bag`ishlanadi. Ularning voyaga yetishi yo`lidagi to`siq va intilishlar ifodalanadi. Muallifning xuddi shu mavzudagi asarlaridan buning farqi shundaki, bunda 60 – yillardagi yoshlarning qiziqishlari, ularning tafakkurlari o`z ifodasini topadi.

Qissa boshdan-oyoq tortishuvlar bilan bog`liq voqealar asosiga qurilgan. Yoshlar kafesida bo`lgan kechada yosh shoir Ubay qo`pol, o`ta manman yigitlarga turmushga chiqqan opa – singillar haqidagi hikoyani aytib beradi. Ularning kichigi erining haqoratlariga chidaydi, oxirgi mute o`zining qadr – qimmatini bilmaydigan erining yugurdagiga aylanib qoladi. Opasi esa bunday munosabatlarni qoralab, shaharga borib o`qishga kirib o`z baxtini – o`zligini topadi. Avvaliga uning qilgan ishini qoralagan qishloq kishilari ham opasining tutgan yo`lini maoqullaganini aytib beradi. Ubayning keltirgan bu rivoyatiga kolxoz raisi shunday luqma tanlash bilan munozarani jonlantirib yuboradi.

“Siz ochiq ayting-chi, avlod-ajdodlaringizdan kelayotgan, qon – qonimizga singib ketgan odob-axloqimiz, urf-odatlarimiz bor. Buning hammasi oyoq osti bo`laveradimi yo hurmat qilamizmi? Aynan shu narsalarga asar syujetidan javob topiladi. Qissa qahramonlarining o`ziga xosligi shundaki, ular juda murakkabdir. Ularning ichki dunyolarining turfaligi murakkab insoniy psixologiyaning tasvirlanishi asar syujetining o`ziga xosligini taomin etadi. Muallif mahoratini ko`rsatib beradi. Asarda o`rtaga tashlangan muammolarining javobini topishda kitobxon mutlaqo oddiy kuzatuvchi bo`lib qolmaydi. Aksincha, uning tahlilchisiga aylanadi. Bu esa O.Yoqubovning o`ziga xos kashfiyotidir.

Bizningcha, qahramonlarining o`ziga xosligini ifodalovchi yana bir xususiyat ularning har biri o`z programmasi, o`z o`y orzulari bilan qoniqmasligidadir. Jumladan, Sayyora turmushning nisbatan sekin, imillab ilgarilashidan, kundalik tashvishlarga ko`milib qolishidan, orzularini so`nib borayotganligidan dahshatga tushadi. Hamida erining mensimay qilgan harakatlariga javoban o`zining mustaqilliligini ko`rsatadi.

Mazkur qissa O.Yoqubovning yangi badiiy konfliktlarning kashfiyotchisiga zamonaviylikning tadqiqotchisiga aylanganligidan dalolat beradi.

1977-yilda nashr etilgan “Diyonat” romanida O.Yoqubov prozasiga xos bo`lgan muhim xislatlar to`laligicha aks etadi, unda har bir personajning o`ziga xos ijro o`rni, voqea va hodisalarga munosabati bor. Romanda qishloq hayotidagi kishilar ruhiy olami, uning jiddiy o`zgarishlari, inson diyonati va qudratining buyukligi mahorat bilan tasvirlanadi.

“Diyonat” romani o`zbek romanchiligining jiddiy yutug`i sifatida tan olinishining bosh omili shundaki, unda xarakter yaratishda yangicha usullardan foydalaniladi. Romandagi xarakterlar o`z yo`llarini axtaradilar, chuqur ruhiy va dramatik kechinmalar mohiyatini har chuqur ochib beradi. Romanda davrning yirik ma`naviy muammolari o`z ifodasini topadi. “Diyonat” o`zbek romanchiligidagi psixologik romandir. Otaqo`zi romanda o`qituvchilikdan kolxoz raisi darajasiga ko`tarilgan ziyoli rahbar sifatida, Shomurodov esa mashhur olim, yoshini yashab, oshini oshab bo`lganda ham o`z e`tiqodiga sodiq keksa, fidoiy kishi tarzida ko`rinadi. Otaqo`zi va Shomurodovlar ba`zan bir-birlaridan voz kechish darajasigacha borib yetadilar. Xarakter mantiqidan kelib chiqib yaratilgan bunday to`qnashuvlar tabiiy chiqqan.

Domla Shomurodov bilan Quدراتxo`ja o`rtasidasidagi qarama-qarshilik ham kechagina paydo bo`lgan emas. Aynan shu ziddiyatlar zamirida davrning o`ziga xos muammolari o`z ifodasini topadi, badiiy konflikt darajasiga ko`tariladi. Romandagi aksariyat ishtirokchilar manfaat nuqtai nazaridan Otaqo`zi atrofida birlashadilar. Adolat va haqsizlik, haqiqat va fidoiylik, nohaqlik o`rtasida keskin kurash bo`ladi, haqiqat g`alaba qozonadi. Domla Shomurodov g`alaba qiladi. “Diyonat” tom ma`nodagi o`zbek romanchiligining juda katta yutug`idir.

Odil Yoqubovning keyingi yillarda yaratgan asari “Oqqushlar oppoq qushlar” romanidir. Romanda muallif insofu diyonat, halollik va nohaqliq, mehr va sadoqat singari muammolarni hal etishga qaratadi. (Ushbu romaning syujetini qisqacha aytib berish talabalarga topshiriladi).

Xullas, O.Yoqubovning roman va qissalari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Biz yuqorida adibning ayrim roman va qissalari haqida umumiy fikrlarni aytish bilan cheklandik. Uning roman va qissalarida o`z yechimini kutib turgan qator muammolarni hal etilganligining guvohi bo`ldik. Adibning "Ulug`bek xazinasi" va "Ko`hna dunyo" kabi tarixiy romanlari ham kitobxonlar tomonidan zo`r qiziqish bilan qarshi olindi.

O.Yoqubovning qator tanqidiy maqolalari va yosh yozuvchilarga nisbatan aytgan ilmiy fikrlari ham bor. Ularda yosh yozuvchilarga yordam beradigan zarur fikrlar ifodalangan. Jumladan, yozuvchi A.Ibodinov haqida shunday fikr bildiradi: Alisherning ilk hikoyalarini o`qiganimda, meni bir narsa maftun etadi, u ham bo`lsa, yosh yozuvchi tilining ravonligi, soddaligi va eng muhimi tasvir uslubining o`ziga xos jozibasi edi. Uning birinchi hikoyalaridayoq chin iste`doddan dalolat beruvchi ziyrak kuzatishlarga butun manzarani ko`z oldingizga "lop" etib keltirib qo`yadigan aniq detal va qahramonlar ruhiy olamning nozik tasviriga shu qadar boy ediki, bu yigit o`shundayoq juda katta umid uyg`otgandi.

Umuman aytganda, O`zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubovning o`zbek adabiyotida o`ziga xos o`rni bor. XX asr o`zbek prozasini O.Yoqubovning qissa va romanlarisiz tasavvur etish sira mumkin emas. Odil Yoqubov – o`zbek kitobxonlarining sevimli adibi edi.2008-yilda vafot etdi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O.Yoqubovning tarjimai holi haqida so`zlab bering.
2. U qanday qilib adabiyotga kirib keldi?
3. Adabning ilk to`plami qanday nom bilan atalgan?
4. Uning qanday povestlarini bilasiz?
5. «Larza» povestida qanday voqea hikoya qilinadi?
6. Adibning yana qanday qissalarini bilasiz?
7. Adib qissa va povestlaridagi o`ziga xoslik nimada?
8. Hikoya va qissalarning tili haqida qanday fikrdasiz?
9. Adabiyoshunoslikning adib asarlariga fikri qanday?
10. Sizga yoqqan eng yaxshi asari qaysi, nima uchun?
11. O.Yoqubovning qaysi romanlarini o`ziga xos trilogiya deb ataladi?
11. Adibning umuman qaysi romanlarini bilasiz?
12. «Diyonat» romanida qanday mavzu ifodalanadi?
13. Romanda qanday obrazlar ishtirok etadi?
14. Roman konfilikti haqidagi fikringiz?
15. Uning «Oqqushlar, oppoq qushlar» romani qaysi jihatlari bilan ahamiyatli?
16. O.Yoqubovning qanday tarixiy romanlarini bilasiz?
17. «Ulug`bek hazinasi» romani haqida so`zlab bering.
18. «Ko`hna dunyo» romani haqida nimalar deya olasiz?
19. Dramaturg sifatida qanday sahna asarlarini yozdi?

11-MA`RUZA:

PIRIMQUL QODIROV -TANIQLI PROZAIK,ADABIIYOTSHUNOS OLIM

R E J A:

1. Pirimqul Qodirovning hayoti va ijodi.
2. Adabiy-nazariy qarashlari.

3. Pirimqul Qodirovning zamonaviy va tarixiy romanlari.
4. “Yulduzli tunlar”i romani haqida.
5. Pirimqul Qodirov ijodining ahamiyati.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T.,1999.
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Qora ko`zlar” asarlari
5. S. Mirvaliyev. O`zbek adiblari. T., 2003.

TAYANCH SO`Z VA IBORALAR: Tarixiy roman. Tarixiy obraz. Konflikt.Trilogiya. Tarixiy shaxs va badiiy to`qima. Realizm va romantizm.

Bugungi adabiyotimiz taraqqiyotida sevimli yozuvchimiz Pirimqul Qodirovning munosib o`rni bor. Pirimqul Qodirov “Uch ildiz”, “Qora ko`zlar”, “Olmos kamar”, “Qadrim”, “Erk”, “Meros”, “Jon shirin” kabi asarlari bilan, ko`plab publisistik maqolalari bilan, tarixiy mavzudagi “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar davoni, “Humoyun va Akbar” romanlari bilan xalqimizning e`tiborini qozondi. U.L. Tolstoy, A.Chexov, K. Fedim, X.Deryayev ijodidan tarjimalar qildi. Tarjimonlikni adib ilmiy ish bilan qo`shib olib bordi. U uzoq yillar O`z.FAning Til va adabiyot institutida ishladi. U badiiy asar tili, yozuvchi mahorati masalalarini o`rgandi. Olimning “O`ylar” kitobiga kirgan talay qaydlari “Dil va til”, “Xalq tili va realistik proza” tadqiqotlari shundan dalolat beradi.

Pirimqul Qodirov 50-yillarning o`rtalaridan boshlangan yangi davr voqealari voyaga yetkazgan adabiy avlodga mansub. Uning ilk ijodiy mashqlari matbuotda 40-yillarining oxirlaridayoq ko`ringan. 1950-yilda “Studentlar” degan hikoyasi alohida kitobcha bo`lib chop etildi. 1957-yilda yozib tugatilgan “Uch ildiz” romani orqali yozuvchi elga tanildi. Xuddi shu yilning kech kuzida ushbu asarning muhokamasi bo`lib o`tdi. A.Qahhor ham qatnashib shunday fikr bildirdi. “Ancha vaqtdan beri men o`zbek adabiyotida momaqaldiraq guldirosini eshitmay yurgan edim. Nazarimda mana shu asar adabiyotimizga momaqaldiraqday guldiros solib, chaqmoqday yaltirab kirib keldi”, – deya asarga yuksak baho berdi.

Asar bosh qahramoni, yangi muhit avlodi vakili Mahkam dekan Hakimov bilan uning izdoshi Eshonboyevdir. Avvalo, ularning mafkurasi, mafkuraviy kurashi usuli xavfli. Shaxsga sig`inish muhitida shakllangan kishilarni boshqarishning oson yo`llaridan biri qo`rqitib boshqarish bo`lgan.

Pirimqul Qodirov “Uch ildiz” romanida haqiqiy muhabbatning o`ziga xos tomonlarini ko`rsatib bergan, uning ijodkorlik kuchini hayotiy misollar asosida tasvirlay olgan. Mahkam bilan Gavhar orasidagi sevgi ana shunday fazilatlar bilan yo`g`rilgan. Aynan shunday tomoni “Qora ko`zlar“ romani, “Jon shirin” qissalarida yanada sayqal topgan.

“Qora ko`zlar” romani yozuvchi ijodida olg`a tashlangan qadam, o`zbek romanchiligida muhim hodisa bo`ldi. Qishloq, aniqrog`i, chorvadorlar hayotidan olingan bu asar bir tomonlama bo`lgan qarashga nisbatan aniq tasvirlar berdi.

M.Qo`shjonov haqli ravishda “Qora ko`zlar”ni “ona asar” deb ataydi. Darhaqiqat, yozuvchining keyingi ko`p asarlari shu romandan o`sb chiqqan, bu romanga xos bo`lgan realistik prinsiplar keyingi asarlarda izchil davom ettirildi, yanada chuqurlashtirildi.

“Qora ko`zlar” muammolari olis qishloq hayoti orqali orqada qolgan qishloq hayotini roman ko`zgusiga solib ko`rsatadi. Roman voqealari yuz Oyko`lda eskicha tushunchalar, qoloq odatlar ta’sir doirasi hiyla keng, xususan, maishiy hayotda, oilaviy er-xotin, qaynona-kelin munosabatlarida, ayol zotiga muomalada inson erkini bo`g`adigan tomonlar davom etadi. Yozuvchi bu romanda maishiy, hayot ikir-chikirlarining chuqur bilimdoni ekanini ko`rsatadi.

Adib qoloq tushunchalarga odamlar turmushi va ongini zaharlovchi bir og`u deb qaraydi. Qoloq tushunchalar opa-ukani bir-biriga raqib qilib, hali aqlini tanimagan norasidalalarning ko`ngil mayini erkin jilovlab qo`yadi, sof sevgani uyatga qo`yadi, sevishganlarni xijolatga qoldiradi. Er bilan xotin, qaynona bilan kelin, ona bilan bola o`rtasida tikon soladi, keskin dramalarga sabab bo`ladi.

Romanda 60-yillar boshlaridagi qishloq hayoti yaxshi tahlil qilib berilgan. Kolxoz raisi Davlatbekovning so`zi bilan ishi bir emasligi ko`rsatib beriladi. Uning aqidasi nima qilib bo`lmasin, kattalarga yoqish: inisi Avaz unga, Siz nima uchun kattalarga yoqishga harakat qilasiz – deb bergan savoliga, yuqoridagilarga yoqmasang bunday lavozimda ishlay olmaysan, - deb javob beradi.

Bu bilan uning ma’naviy dunyosi haqida aniq tasavvurga ega bo`lish mumkin. Ismat bobo mohiyat e’tibori bilan Davlatbekov va Ortiqdan ham xavfliroq shaxs. U yoshligidan odamlarni chaqib, ularga nisbatan xudbinlik qilgan. Asar boshida uning ko`zi ojizligi, bechora holligiga rahmingiz keladi. Keyinchalik qilgan ishlaridan nafratlanamiz. Ko`zining ojizligini ham unga xuddi shu qilgan xatolari uchun berilgan jazo deb tushundi. U o`z jigarbandi – o`g`li Xolbekni kuyovi ortiqcha qilar ishlarga boshlaydi, ig`vo va chaquv bilan kelini Jannatoyning dilini xufton etdi.

Avaz, Hulkar, Xolbek, Jannatoy, Cho`lponoy, ayniqsa, Madaminjon bilan Ma`suda taqdiri orqali qishloq kishilarining hayoti ta’sirchan chiqadi.

Gulday nozik, go`dakday sodda, beg`ubor Ma`suda jaholat zug`umi, o`zining go`daklarga mo`min-qobilligi, qoloq tamoillarga qarashiliksiz itoati, eng asosiysi, dahldor shaxslar, eri, qaynonasi, xo`jalik rahbarlarining e’tiborsizligi tufayli sog`ligini boy berib qo`yadi, bedavo dardga yo`liqib halok bo`ladi.

“Jon shirin” hikoyasida ishni, paxtani, plan bajarishni faqat shu orqali keladigan shon-shuhratnigina o`ylab, odamlar haq-huquqi, sog`ligi, hattoki, ularning hayotini unutgan kimsalarning haqiqiy basharasini ko`rsatib beradi.

“Qora ko`zlar”dagi Avaz, “Erk”dagi Sattor, “Meros”dagi Yolqin- bular el-yurt tashvishi bilan yonib yurgan haqiqiy qahromonlardir.

“Olmos kamar” 1977-yili chop etildi va tanqidchilikning ijobiy bahosini oldi. 1983-yilda romanni qayta ishlab, qaytadan nashr ettirdi. Asar bosh qahramoni – Abror tabiatni asrab qolish muammolarini o`ylaydi. U ona tabiatni – yerni, oqar suvlarni asrash, anhor va ariqlar sohilini ko`kalamzor saylgohlarga aylantirish, bu boradigi milliy va mahalliy sharoit va xususiyatlarni hisobga olib, xalqimizning necha asrlar davomidagi tajribasi va an’analarini davom ettirish uchun kurashadi.

Lo`ttiboz Sherzod Bahromov va uning maslahatdoshi Abrorning mana shu maqsad va intilishlaridan g`alamislik bilan g`arazlik belgilarini qidiradi.

Yozuvchi Abror obrazi orqali o`zbek adabiyotida dastlabkilardan bo`lib fan-texnika inqilobi boshida tig`iz va ulkan shahar hayoti masalalari ichida turgan, fikrlovchi, olijanob kurashgan qahramon – haqiqiy zamondoshimiz hayotining obrazini yaratdi.

Temuriylar saltanatining o`z yurtidagi inqirozi, o`zga yurtlar Afg`oniston va Hindistondagi o`zgacha ko`rinishda qayta tiklanishi, jahonshumul dovrug`i, Temurxon naslining jonli siymolaridan Bobur va uning avlodlari hayoti va faoliyati to`g`risida “Yulduzli tunlar”(“Bobur”),“Avlodlar dovoni“(“Humoyun va Akbar”) romanlari maydonga keldi.

Adib bu qaltis va murakkab mavzuga qo`l urar ekan, oldida mashaqqatli sinovlar kutib turganini bilardi. Bizni qaramlik va mute`likda saqlashga uringan yovuz kuchlar tarixiy ildizlarimizni qirqib tashlashga, o`tmishdan bexabar manqurtga aylantirishga harakat qilar edi – deydi P.Qodirov o`zining “Turfa ma`noli taqdir” maqolasida – holbuki, o`zbek xalqichalik boy va yorqin tarixga ega bo`lgan xalqlar dunyoda kam emas. Millatimiz o`z tarixiy ildizlaridan ma`naviy oziq olsa qaddimiz tiklanishi mumkin. Shuni dildan his qilganim uchun 1969-yildan boshlab yigirma yil davomida tarixiy mavzuda ish olib bordim.

“Yulduzli tunlar” romani 1972-yili yozib tugatilgan bo`lsa-da, yozuvchilar uyushmasida yaxshi bahosini olsa-da, ko`zga ko`rinmas g`alamis kuchlar uni bosishga to`squinlik qildilar. 1978-yili asarni bosishga ruxsat etildi. U dastlab “Sharq yulduzi” sahifalarida dunyo yuzini ko`rdi, ko`p o`tmay alohida kitob bo`lib chiqdi. Qisqa muddat ichida rus tilida ikki bor bosildi, boshqa tillarga tarjima qilindi. O`zimizda, Moskva matbuotida yuksak baholandi. Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu ijodiy muvaffaqiyatlardan ruhlangan yozuvchi asarning davomi - “Avlodlar dovoni”ni endi yozib, yozuvchilar uyushmasidan muhokamadan o`tkazayotgan bir vaqtda yana “Yulduzli tunlar”ga hujum boshlanib qoldi. Avval yozuvchilar minbaridan, so`ng O`zKompartiya plenumida, matbuotda roman muallifiga katta g`oyaviy ayblar qo`yildi. Romanda tarixiy shaxslarga ijodiy yondoshilgan, sinfiylik tushunchasi yo`q, Bobur obrazi ideallashtirilgan, degan gaplar aytilgan. Natijada “Avlodlar dovoni” nashri uch yil to`xtab qoldi. Nihoyat, 1988-yilda “Avlodlar dovoni” “Sharq Yulduzi”da e`lon etildi. Yozuvchining o`zi bir maqolada o`sha yillari Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi bo`lgan Odil Yoqubov va “Sharq Yulduzi” jurnalining bosh muharriri O`tkir Hoshimovning jonbozlik ko`rsatganini mamnuniyat bilan eslaydi.

“Avlodlar dovoni” muallifi oldida yana bir mushkul vazifa turadi. Ma`lumki, “Yulduzli tunlar”ning asosiy voqealari yozuvchining o`z ona yurtida bo`lib o`tadi, asarning asosiy personajlari ham ana shu yurt odamlari. “Avlodlar dovoni”da esa voqealar butunlay hind diyoriga ko`chadi. Bobur va Humoyun umrining so`nggi yillari Hindistonda kechsa-da, ular o`zlarini bu yurtda begona deb his qiladilar, Ona yurt sog`inchi bilan yashab o`tadilar. Akbar esa dilda otabobolari aqidalarini e`zozlagani holda bu yurtning farzandiga, aylanadi, hindu qiziga uylanib hind udumlariga amal qiladi.

Roman katta ma'rifiy qimmatga ega. Masalan: "Avlodlar dovoni" chiqqunga qadar ko'pchilik o'zbek kitobxonlari Bobur va Humoyun haqida bir qadar tasavvurga ega bo'lsa ham, romanning yana bir bosh qahramoni – jahonning ko'pgina ma'rifatli kishilariga tanish, chinakam daho siymolar qatorida tilga olingan Akbarni yaxshi bilmas edi. Bu roman orqali u o'z bobo yurtiga qaytdi, qaytmoqda. Asarning tarixiylik haqida muallif: Men Bobur, Humoyun va Akbarlarning ko'rgan-kechirganlarini tasvirlar ekanman, o'z fantaziyamdan ko'ra tarix fantaziyasiga yaqin, chindan sodir bo'lgan voqealarga ko'proq asoslandim.

Bir qarashda roman tarixiy xronikaga o'xshab ketadi, muallif boburiylar sulolasi, xususan, Humoyun, Akbarlarning hayotini muhim pallalari, toj-taxt uchun olib borilgan jangu jadallarga, ularning bunyodkorlik ishlari, ma'naviy izlanishlari, orzu-armonlarini yilma-yil, oyma-oy, kunma-kun har birini ipidan ignasigacha muallif Akbarning bobosi Bobur otasi Humoyun vasiyatlariga sodiq qolib barcha xalqlarni milliy nizo, diniy adovat balolaridan xalos qilinishining yangi yo'llarini izlaydi, hamma ellar e'tiqodini teng deb e'lon qiladi. Jahonda birinchi bo'lib, tinchlik siyosatini o'tkazadi. Romanda mana shu ezgu g'oyaning tug'ilishi tarixi, unga bo'lgan tarixiy zaruriyat, hayotiy ehtiyoj, bu g'oyani ro'yobga chiqarish yo'lidagi mashaqqatli kurashlar son-sanoqsiz qurbonlar, uning muayyan tantanasi va fojiasi inqirozi – barchasi bildimdonlik bilan badiiy tadqiq qilingan.

Asarni o'qiganda kishi xayolini doimo band etib turadigan ikki ziddiyatli holat mavjud: bir tomondan, shaxsiy g'araz, xudbinlik, mansab-martaba, toj-taxt uchun kurash, bu yo'ldagi hiyla-nayrang, hayotan pastkashliklar – bular millat qolaversa, butun insoniyat tarixidagi eng mudhish dog'lardir.

Yoshligidanoq jasur, tadbirkor, dono ayol sifatida tanilgan Hamidabonu Akbarning "daho shaxs" bo'lib yetishuvida qanchalik zahmat chekadi. U Akbarshoh sifatidan doimiy qozongan kezarida ham donishmand onaning madad va maslahatlaridan doimo bahramand bo'lib, umuman aytganda, bu xil tabarruk ayollarning davlat ishlariga va ilmu sanoat rivojiga qo'shgan hissasi, qonli urushlarning oldini olish, uzoq joylarga elchi bo'lib borish, bir necha bor ota-bola nizolarini bartaraf etishidagi fidoiy ishlari ifodasi romanning eng jozibador sahifalaridir.

Hozircha ko'proq, romanning tarixiy, ma'rifiy ijtimoiy-falsafiy, xususiyatlari to'g'risida so'z yuritildi. Pirmqul Qodirov tarixiy romanlarining badiiyati hali adabiyotshunoslikda yaxshi o'rganilgan emas.

Farg'onalik shoira, maktab muallimasi M.Ergasheva "Avlodlar dovoni" mutolaasi paytidagi his-hayajonlarini shunday izhor etadi: "Sizning "Avlodlar dovoni" romaningizni behad minnatdor bo'lib o'qib chiqdim".

Pirmqul Qodirov o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan adib edi. 2010-yil dekabr oyida vafot etdi. Uning o'lmas asarlari xalqimizning ma'naviy boyligini yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qilaveradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Pirmqul Qodirovning tarjimaiy holi haqida hikoya qilib bering?
2. U adabiyotga qaysi asari bilan kirib keldi?
3. Pirmqul Qodirovning qanday asarlarini bilasiz?
4. Uning birinchi elga tanitgan romani qaysi, nechanchi yili chop etilgan?

5. Ushbu asar haqida A.Qahhor qanday fikr bildiradi?
6. Adib yana qanday asarlar yozdi? («Erk»), «Jon shirin», «Meros»)
7. «Jon shirin» qissasida qanday voqelik hikoya qilib beriladi?
8. P.Qodirovning «Qora ko`zlar» romani haqida qanday fikrlar aytilgan?
9. Sizga P.Qodirovning qaysi asarlari yoqadi, nima uchun?
10. Adib qissalari va hikoyalari nisbatan qanday ilmiy fikrlar bildirildi?
11. P.Qodirov qanday tarixiy romanlar yozdi?
12. «Yulduzli tunlar» romani qachon chop etildi? Nima uchun «Yulduzli tunlar» deb nomladi?
13. Ushbu asar haqida hikoya qilib bering.
14. Asar atrofida bo`lib o`tgan baxslarga munosabatingiz.
15. «Avlodlar dovoni» romani haqida nima deya olasiz?
16. Tarixiy romanning o`ziga xos xususiyati nimada?
17. «Yulduzli tunlar» romanida muallif konsepsiyasi qanday?
18. Adib asarlari haqidagi tanqidchilikning fikriga o`z munosabatingizni bildiring.
19. P.Qodirovning o`zbek adabiyotidagi o`rni haqida so`zlab bering.

12-MA'RUZA: ERKIN VOHIDOVNING HAYOTI VA IJODI.

R E J A:

1. Erkin Vohidov-hozirgi o`zbek she`riyatida “o`ziga xos sehr sohibi.”
2. Shoirning yoshlik yillari va ijodining boshlanishi.
3. Shoir she`riyatida romantik ohang va shafqatsiz realistik ruh, rubobiy nazokat va publisistik harorat, hajv, epik tasvirga moyillik.
4. "Yoshlik devoni" ning yaratilishi.
5. "Aruz" she'r sistemasi va shoir ijodi.
6. Shoir ijodida lirik qahramon masalasi.
7. Erkin Vohidov dostonlari.
8. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T.,1999.
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. T., 2003.
5. E.Vohidov."Kuy avjida uzilmasin tor".
6. "Yoshlik devoni".
7. “Iztirob
8. Tanlangan asarlar.3 tomlik

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Aruz she'r sistemasi. Lirik qahramon. Rukn, hijo (takrorlash asosida). Badiiy san`atlar haqida.Riviyat. Badiiy to`qima.

Erkin Vohidov 1936-yilda Farg`ona viloyatining Oltiariq tumanida tug`ildi. Keyinchalik Toshkentda ijodiy ishlarini davom ettirdi, dastlab G`ayratiy domladan saboq oldi. "Mana bir necha o`n yillarki,biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo`lib kelayotirmiz.Bu Erkin Vohidov she'riyatidir, - deb yozadi shoir Abdulla Oripov "So`z sehri " maqolasida.- Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamaldek rang-barang, g`oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin,goh samimiy tabassum uyg`otuvchi tashbehlar , o`tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlaridir.Men Erkin Vohidovni she'riyatda o`ziga xos sehr sohibi deb bilaman".

Erkin Vohidov o`zbek mumtoz she'riyati an`analarini davom ettirdi. Uning yuksak zamonaviylik ruhi bilan sug`orilgan "Yoshlik devoni", "Tirik sayyorlar", "Sharqiy qirg`oq", "Yaxshidir achchiq haqiqat" to`plamlari,urush fojialaridan so`zlovchi "Nido" , "Ruhtar isyoni " falsafiy dostoni, "Istambul fojiasi " she'riy dramasi, hajviy-yumoristik "Donishqishloq latifalari" turkumi, "Oltin devor", I. Gyote, S. Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiy, R.Hamzatovdan qilgan tarjimalari, xususan "Eron taronalari" bilan "Faust" tarjimasi adabiyotimizda ulkan voqealar bo`ladi. Shoirning publisistik , adabiy-tanqidiy maqolalari, suhbatlardan tashkil topgan "Iztirob"(1992) kitobi muallif dunyoqarashining shakllanish yo`llarini aks ettiruvchi o`ziga xos ko`zgu sifatida qimmatlidir.

Erkin Vohidov "Yoshlik" jurnalining birinchi muharriri, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyatida direktor bo`lib ishladi, Oliy Kengash, Oliy Majlis deputatligiga saylangan. Oliy Kengashining xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo`mitasiga raislik qilgan kezlarida taniqli arbob sifatida ham tanildi.

Erkin Vohidov ziyoli oilada tug`ilgan. Onasi Roziyaxon, otasi Cho`yanboy qishloq o`qituvchilaridan bo`lishgan.Ota-ona vafotidan keyin u tarbiyalangan xonadon sohiblari - Sohiboyevlar yetuk ishlarda ishlashgan.50-yillarda shoir sifatida tanildi.50-60-yillar boshlari jamiyatda yangi ruh, yangicha qarashlar qaror topgan davr edi: adabiyot va san`atda ham yangilanish belgilari paydo bo`lgan. Biroq bu jarayon osonlikcha kechgani yo`q. Shoir bosib o`tgan yo`liga nazar tashlar ekan, unda o`nqir - cho`nqirlar, izlanishlar borligini ko`radi."Negaki, - deb yozadi u, - boshimizdan kechirgan kunlarimizning o`zi notekis, murakkab, xatolarga to`la bo`lgan. Biz haq so`zni aytish qiyin bo`lgan zamonda yashadik. Bu ish demokratik va oshkoralik hukmron bo`layotgan davrda ham oson ish emas ".

Erkin Vohidov adabiyotga 30-40-yillar she'riyati ta'sirida hayot, yoshlik, sevgi kuychisi sifatida kirib keldi. Uning mashqlarida tanqidchi Ozod Sharafiddinov aytganidek, ko`proq dunyoni kashf qilayotgan o`zining kashfiyotidan zavqlanib, xursandchiligidan boshqalarni xabardor etishga oshiqayotgan, yashashning benihoyat go`zal ekanligi, hayotning noyob ne'mati ekanini tushunib kelayotgan murg`ak qalbning quvonchlari bor.

"Yoshlik devoni" 60-yillar ijodining bir namunasi bo`lib qolmasdan, she'riyatimizdagi yetakchi tamoyillarining ko`rinishi bo`lganligi bilan ham qadrlidir. Ma'lumki, 50-yillarning oxiri 60-yillarning boshiga kelib vaziyat o`zgara boshladi. Inson shaxsiga e'tibor oshdi. Kishining xilma-xil kechinmalari an`anaviy she'riy shakl, ayniqsa, g`azalning jonlanishiga e'tibor kuchaydi. Tabiiyki, bu

jarayon o`sha kezlarda osonlikcha kechgani yo`q. Shoir "Yoshlik" devonining debochasida shunday qarashlar bilan oshkora bahsga kirishadi.

*Istadim sayr aylamoqni,
Men g`azal bo`stonida,
Kulmangiz ne bor senga deb,
Mir Alisher yonida.
She'riyat dunyosi keng.
Gulzori ko`p, bo`stoni ko`p.
Har ko`ngil arzini aytur
Neki bor imkonida...*

Yoki :

*Barcha shodlik senga bo`lsin,
Bor sitam, zorlik menga
Barcha dildorlik senga-yu
Barcha xushtorlik menga.*

Oshiq har qanday qiyinchiliklarga tayyor, mumtoz she'riyat lirik qahramoniga o`xshab barcha jabr-sitamlarni boshidan kechirishi mumkin. Devon yana shu jihatdan ahamiyatliki, undagi g`azallar shakl bobida an'anaviylik va novatorlik xususida keng bahs yuritishi, tadqiqotlar olib borish uchun imkon beradi.

E.Vohidov publisist, dramaturg, dostonnavis sifatida barkamol ijod qilgan bo`lsa-da, avvalo u lirik shoir sifatida adabiyotga kirib kelgan, xalqimiz qalbidan joy olgan. Shoirning ijodi bahs-munozaralar ichida kechdi, o`z qo`lidagi qurol-she'r, uning tabiati, shoirning el-yurt oldidagi vazifasi xususida ko`p o`ylaydi. She'r va shoir haqidagi qarashlarini bayon etadi. U har doim shoir bo`lish oson emasligini eslatadi. Uningcha, shoirlik o`z ona-yurtiga, xalqiga, inson zotiga bo`lgan fidoyi mehr samarasidir. "Afg`on shoirlariga" she'rida bu fikrni yana oydinlashitirib deydi :

*Osonmas, osonmas shoir yurakka,
Unda tumanlarning dardi, ohi bor.
Unga bu dunyoda yashash murakkab,
Chunki shoir qalbning ishtibohi bor.*

El - yurt mehr-sadoqat hamma davr she'riyati, shoirlari uchun bosh mezon bo`lib qolaveradi. Ammo turli davr, muhit, vazifalarda, el-yurt oldida turgan real vazifalar, muammolardan kelib chiqqan holda she'riyat oldiga qo`yilgan talab turli ko`rinish kasb etishi mumkin. Erkin Vohidov ijod maydoniga qadam qo`ygan, barakali ijod etgan 80- yillar ijod kamolati - uning ma'naviyati, imon e'tiqodi, ijtimoiy adolat tuyg`usi uchun kurash, ona-zamin taqdiri haqida qayg`urish, yerdagi hayotni saqlab qolish, odamlarni jaholatlardan ogoh etish, hamma narsa bozorga solinayotgan, pulga chaqilayotgan hozirgi sharoitda insoniy qadriyatlarni asrash-avaylash, insoniyatning ajdodlari xotirasi, o`tmishi, hozirgi kuni va kelajagi oldidagi barcha muammolari hayot-mamot masalasiga aylandi. Shoir ko`pchilik qalamkash safdoshlari qatorida o`z asarlarida shu masalalarga munosabatini bildirdi. Xalqimiz erishgan yutuqlar uning shonli tarixi qo`lga kiritgan g`alabalari to`g`risida faxr-iftixorga to`la satrlar bitdi.

Shoir oshiq ko`ngilning ma'shuqaga bo`lgan mayli ifodasida xuddi mumtoz she'riyat namoyandalari kabi mubolag`ani hadsiz oshiradi.

*Seni yotlar tugul hatto –
Qilurman rashk o`zimdanda ham,
Uzoqroq termulib qolsam,
Bo`lurman g`ash ko`zimdanda ham
Ko`zim yongay senga nargis –
Ko`zin tiksa chamanlarda.
Yashirmam, lolaga rashkim
Ayon bo`lgay yuzimdanda ham.*

Oshiq yigitning dil rozlari, ma'shuqasining ta'rif-tavsifi har qancha mubolag`ador, romantik bo`yoqlar bilan zeb berilgan bo`lmasin, har ikkisi ham zamon va zamin farzandi, ular shoir aytmoqchi, "o`z zamonining zayliga itoat etadigan bizga zamondosh odamlardir".

Bora –bora shoir ijodida o`sha romantik jo`shqinlik, hayotsevarlik tuyg`ulari yoniga jiddiy realistik mushohadakorlik kelib qo`shila boshladi. Shoir hayotni nuqul madh etish bilan cheklanmay, uning tub mohiyatiga ichki ziddiyatlariga ham nigoh tashlaydi. Qalamga olingan hodisani qarama-qarshiliklari, ziddiyatlari, manfiy va musbat tamonlari bilan birgaliqda idrok etadi. Natijada shoir she'rlari o`ziga hos bahs munozara tusini oladi.

70-80-yillarga kelib shoir "hayot kuychisi" gina emas, ko`proq hayotning, inson qalbining badiiy tadqiqotchisi sifatida ko`rina boshladi. "Hozirgi yoshlar", "Inson", "Sirdaryo o`lani", "Arslon o`ynatuvchi" she'rlari, "Ruhlar isyoni", "Istanbul fojiasi" singari dostonlari bu jihatdan shoir ijodida olg`a tashlangan qadam bo`ldi.

Shuni ham aytish kerakki, Erkin Vohidov ijodida goh madhiyabozlik, qasidachilik, ona-yurtning "Dunyoda tengsiz" ekani, xalqning "cheksiz erki va baxti" dan, "ulug` ishlari" va erishgan g`alabalaridan o`rinsiz faxr-iftixor to`yg`usi bilan to`lib toshgan she'rlar ham uchraydi. "O`zbekiston" faxriyasi, "Iftixor to`yg`usi" she'rlarida shu hol mavjud. Shoir adabiyotdagi o`rinsiz madhiyabozlikni, o`zining shu ruhdagi satrlarini ham nazarda tutib deydi:

*Bas, yetar yolg`on Saodat,
Yolg`on erk, yolg`on Vatan.*

Erkin Vohidovning keyingi asarlari yolg`ondan begonaligini, shafqatsiz haqiqati, rostgo`yligi va samimiyligi bilan hozirgi taraqqiyparvar adabiyotning eng yaxshi namunalariga hamohangdir. Shoirning "Inson" she'ridagi inson talqinini eslaylik. Shoir insonning bugungi kamoloti, inson dahosining zakovati fan-texnika bobida erishilgan mislsiz zafarlar haqida yozadi:

*Minding ilm narvoniga,
Chiqding funun osmoniga,
Bu jahon ayvoniga,
Arkon o`zing, vayron o`zing.*

Qarang, shoir fan-texnika taraqqiyoti tufayli bugungi kunda inson jahon ayvoniga "Arkon" (ustun) darajasiga ko`tarilganini ayta turib, shu "Arkon" ayni paytda "vayron" ekanini pisanda qilib o`tadi. So`ng bu fikrni rivojlantirib deydi:

*Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib,
Hayron o`zing, hayron o`zing.*

Yo`q, shoir insonning buyuk kashfiyoti oqibati nuqul dahshatu, balolardan iborat deb bilmaydi, buyuk kashfiyotlarni ezgulikka xizmat ettirish ham shu insonning o`z qo`lida:

*Bog`i ara obod etur,
Sendan agar imdod erur,
Yo`qsa, u barbod erur,
To`fon o`zing, to`g`on o`zing.*

Shoir nazarida Sirdaryo ko`hna Jayhun bilan birga Ona vodiy hayoti, bori, quvonchi, alami, zori,

*Sen borsanki, keng vohada hayot bor,
Demak yurtning labida bol, nabot bor...
Sen paxtasan, olma, anor va nursan.
O`zbek uchun surursan ham g`urursan,
O`zni yerga tomchi – tomchi berursan,
Daryo emas, xalq timsoli erursan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.*

Umuman, shoir Erkin Vohidov ijodi XX asr o`zbek adabiyotining jiddiy yutug`i, mumtoz namunalari qatoridan o`rin olgan. Shoir “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. “O`zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo`lgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Shoirning yoshlik yillari va ijodining boshlanishi haqida so`zlab bering.
2. «Yoshlik» devonining yaratilishi haqida nimalar deya olasiz?
3. E.Vohidov lirikasida qanday o`ziga zoslik bor?
1. Shoirning muhabbat haqidagi yozgan qanday she'rlarni bilasiz?
2. E.Vohidov yana qanday mavzularda she'rlar yozgan?
3. Aruz she'riy sistemasida yozgan asarlariga munosabatingiz qanday?
4. Shoir ijodida lirik qahramon qanday ifodalangan?
5. Uning qaysi g`azali sizga yoqadi? Tahlil qilib bering?
6. E.Vohidov ijodiga bildirilgan adabiyotshunoslarning fikri qanday?
7. Sizning fikringiz-chi?
8. Doston janrining o`ziga xos xususiyati nimada?
9. E.Vohidov qanday dostonlar yaratdi?
10. Uning ilk dostoni qaysi, unda nimalar haqida fikr yuritilgan?
11. «Istanbul fojeasi» dostoni qanday mavzuga asoslangan?
12. Nima uchun asarning nomini «Istanbul fojeasi» deb atadi?
13. Shoirning «Ruhlar isyoni» dostoni nima uchun tarixiy mavzuni yoritadi?
14. Unda asosan qanday g`oya ilgari suriladi?

- 15.Ushbu dostonda qanday badiiy o`xshatishlardan foydalanilgan?
- 16.E.Vohidov dostonlari haqida qanday maqolalar chop etilgan?
- 17.Qanday ilmiy ishlar qilingan?
- 18.E.Vohidov publisistikasi haqida nimalar bilasiz?

ABDULLA ORIPOVNING HAYOTI VA IJODI

R E J A

1. Abdulla Oripov- XX asr o`zbek she`riyatining yirik vakillaridan biri.
2. Ilk ijodining boshlanishi va she`riy to`plamlari haqida.
3. Shoir she`rlarining o`ziga xos xususiyatlari.
4. Insonparvarlik g`oyalari va poetik talqin.
5. Vatan mavzuiga yangicha munosabat
6. A.Oripov dostonlari va dramasi.
7. A.Oripov ijodining o`zbek adabiyotidagi ahamiyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T.,1999.
 - 2.Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
 - 3.Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
 - 4.S.Mirvaliyev, O`zbek adiblari.T., 2003.
 5. M.Qo`shjonov. “Onajonim she`riyat”. Toshkent 1983.
 6. A.Oripov “Onajon” 1969.
 - 7.A.Oripov ”Yurtim shamoli”1991.
 - 8.Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar.To`rt tomlik.Toshkent 2000-2001
 - 9.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.
- TAYANCH SO`Z VA IBORALAR:** Lirik qahramon. Badiiy obraz. O`xshatish. Metafora. She`riy drama. Esse. Tasavvuf va she`riyat.

Abdulla Oripov 60-yillarda Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva singari ijodkorlar bilan bir qatorda o`zbek adabiyotiga kirib keldi.U hozirgi davr o`zbek she`riyatida inson qalbidagi murakkablik, haq-nohaqliklarni, adolat-razolatni teran va haqqoniy,o`ziga xos betakror kuylayotgan ulkan ijodkordir. Shoir ijodining ilk davridan boshlab o`z uslubi va o`ziga xos yangroq ovozi bilan she`riyatimizda yangilik yaratib ko`pchilikning diqqatini o`ziga jalb etdi.

Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida tug`ildi, Toshkent Davlat universitetini bitirib (1963) nashriyotlar (1969-1974 yillar)da “Sharq Yulduzi” va “Gulxan” jurnallarida(1974-1980-yillar), O`zbekiston yozuvchilar Uyushmasi (1980-1985yillar)da mas`ul lavozimlarda ishladi, O`zbekiston Mualliflar huquqini himoya qilish davlat qo`mitasiga rahbarlik qildi. Shoir Hamza nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, O`zbekiston xalq shoiri.

Mustaqillik yillarida birinchilar qatorida Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotini oldi. Ko'p yillik mehnatlari evaziga "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoni berilgan.

Abdulla Oripovo`z ustozlari G`afur G`ulom, Cho`lpon, Usmon Nosir, Mirtemir, Abdulla Qahhor va boshqa ijodkorlar asarlari ta'sirida o`sib kamolga yetdi. U yil sayin adabiyotimizning taraqqiyotiga ko`proq va qimmatliroq hissa ko`sha bordi. "Mitti yulduz"(1965), "Ko`zlarim yo`lingda" (1966), "Onajon" (1969), "Chashma" (1971), "O'zbekiston" (1972), "Hayrat" (1974), "Yuritim shamoli" (1976),"Jannatga yo'l"(1978), "Hakim va ajal"(1980), "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni"(1984), "Ishonch ko`priklari" (1989), "Haj daftari"(1992), "Saylanma"(1996),"Sohibqiron"(1996),to`rt tomlik "Tanlangan asarlar"(2000-2001) singari bir-biridan sara bo`lgan she'riy to`plamlarning muallifidir. Hozirgi kunda Abdulla Oripovni butun mamlakat yaxshi biladi va uning asarlarin sevib o`qiydi. U osonlikcha ijodiy kamolotga erishmadi. Binobarin, ustozlari Abdulla Qahhor:"Abdullaning bitta xislati menga ma'qul.U faqat o`zi ko`rgan va o`zi bilgan narsalarnigina yozadi", - deb bejiz aytmagan. Uning ustiga shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi. Chunki u she'riyatni vijdon ishi deb biladi. Shuning ham adib samimiy ixlos va mamnuniyat bilan:

*Boshini eggay hamisha ostonangda Abdullo,
Ey, oliy baxtim mening, Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening jonajonim she'riyat,-*

deb kuylagan edi.

Taniqli olim Matyoqub Qo`shjonov haqli ravishda qayd etganidek – "Vaqtlar o`tdi. Qayta qurish ishlari boshlandi. Bir vaqtlar shoirning mungli bo`lib ko`ringan she'rlari mavjud hayotning aks–sadosi ekani, shoir qalamga olgan manfur hodisalar o`sha davrga xos ekani ma'lum bo`ldi". Abdulla Oripov asardan asarga g`oyaviy badiiy jihatdan o`sib borgan. Natijada chin realist, rostgo`y, vatanparvar va xalqparvar shoir sifatida xalqimizga manzur bo`lgan.

Abdulla Oripov she'riyatida ona Vatan, O'zbekiston obrazi o`zining salobatli borlig`i bilan gavdalanadi. Ona-Vatanga, zahmatkash xalqimizga mehr-muhabbat tuyg`usi shoir ijodining asosiy g`oyaviy mundarijasini tashkil etadi. Shoir "Ishonch ko`priklari" kitobida Vatan va ona haqida teran badiiy umumlashma obrazlar yaratgan. Har bir insonning dunyoda onasi bitta bo`lgani singari vatanni ham bittadir, degan g`oyani samimiyat bilan yaqqol ifodalagan:

*Bisyor bo`lsa agar bol ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug` olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda ONA degan nom.*

Abdulla Oripovning asosiy tasvir ob`yekti Ona Vatan– O'zbekiston, asosiy qahramoni esa mehnatkash o`zbek xalqidir. Abdullaning o`zi bu haqiqatni "Men kuylayman bu olam aro, mag`rur turgan xalqimni faqat", - deb qayd etgan edi. Chindan ham, shoir o`z ijodida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etadi va har gal bir-biridan nodir, go`zal asarlar yozib, O'zbekiston va o`zbek xalqi hayotining yangi-yangi qirralarini ochib beradi. Kishilarimizning mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, bunyodkorlik, bag`rikenglik singari xislatlarini

maftun bo`lib tasvirlash orqali xalqimizning yaxlit umumlashma obrazini yaratadi. O`zbek xalqining milliy xarakterini mehr-muhabbat va g`urur bilan chizib beradi:

*Yulduzlar, bilmaysiz mening xalqimni,
Bundayin zahmatkash yer yuzida kam,
Elda tinim bordir, unda tinim yo`q,
Shunday ishparastdir, u munisginam.*

Shoir ijodida shodlik va quvonch tuyg`usi, ko`pincha tashvish, dardi alam tuyg`usi bilan uzviy birlikda namoyon bo`ladi. Shoir xalqimizning halol ishlab, halol yashayotganidan qanchalik shodlansa, ba`zi kishilarimizda muhabbat, to`g`rilik va sadoqat yo`qolib borayotganidan shunchalik tashvishlanadi, iztirob chekadi. Shoirning o`z ona xalqi taqdiriga dil-dilidan achinib, ko`pincha, “Qarshingda hasrat o`yga tolaman, qachon xalq bo`lasan sen, ey olomon ?!” - deb nido qilish ham ana shundan dalolat beradi. “Qo`riqxon”, “Dengizga”, “Saraton” kabi she`rlar ham shoirning mehnatkash xalqqa cheksiz mehr-muhabbatidan, uning xalq dardu g`amiga malham bo`lishiga butun borlig`i bilan intilganidan nishona bo`lib, ularda xalq qismatiga doir tuyg`ullar tug`yoni yorqin ifodalanadi. “Qo`riqxon” she`rida shoir faqat noyob bo`lib qolgan, hatto, butunlay yo`qolish darajasiga borib yetgan o`simligu jonivorlariga emas, balki mehr-muhabbat, sadoqat, to`g`rilik, halollik va adolat singari insoniy fazilatlarini ham ko`z qorachig`iday avaylab-asrashga chaqiradi:

*Insof yo`qolmasin, o`rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob,
Esgullikni asrang, olamda u ham,
Tojdor turna kabi bo`lmasin kamyob,
Oqibatni asrang, oqibat go`yo,
Achchiqdan qaydadir topmasin zavol,
Hayoni asrangiz kuymasin hayo,
Otashga duch kelgan polapon misol,
Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon,
Bolalardan qolgan bu noyob tortiq,
Toki avlodlarga yetolsin omon.*

Abdulla Oripovning “Ayol” she`rida ham axloq-odob va vijdonga doir, muhim g`oya juda ta`sirli qilib ifodalanadi. Bu asarda urush tufayli o`n gulidan bir guli ham ochilmasdan 19 yoshida beva qolgan kelinchakni ko`z ochib ko`rgan eriga sodiqligi, samimiyat bilan tasvirlanadi. She`rda erga sadoqatli ayolning matonati, sabru qanoat tuyg`usidan mahrum ba`zi ayollarning besharm xatti-harakatlariga qarama-qarshi qo`yiladi. Bu qiyosiy tasvir beva kelinchak obrazining yanada ulug`vorlik kasb etishida muhim rol o`ynagan.

*Nazokat paytimas yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom,
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.*

Abdulla Oripov xalqimizga xos ezgulikni, yuksak odob-axloqni ulug`lashda, uzoq va yaqin o`tmish mavzulariga ham murojaat qiladi. Xalqimizning o`tmishini,

ajoyib an'analarini o'ziga xos milliy xususiyatlarini, urf-odatlarini ixlos bilan tasvirlab, ulardan hozirgi kun muammolarini hal qilishda mohirona foydalanadi.

Abdulla Oripovning "Yozajakman" she'rida

Boshingda agar qo`nsa, shu kun sharpai iqbol

Poyinga, elim bosh urib qur'on yozajakman,—

deb ahdi paymon qilishi bunga yorqin dalildir.

Abdulla Oripov tom ma'noda milliy shoir, chunki uning ijodida birinchi navbatida o'z millatining hayoti, uning kayfiyati, orzu-istaklari, o'zbek xalqi turmush tarziga doir rang-barang mavzular asosiy o'rinni egallaydi. Shoir she'riyatida xalqlar do'stligi mavzusi bo'rtib turadi. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi do'stlik haqida kuylar ekan, uning tilidan shakar tomadi:

Do'sti qardoshdir azaldan o'zbekim tojik bilan,

Ikkisidir bayt g'azaldir o'zbekim tojik bilan,

Qay yo'sin aylay qiyos man bul shirin do'sti so'zin,

Totlidir boldan, asaldan o'zbekim tojik bilan.

So'z san'atkorining "Armaniston", "Qozog'iston", "Qirg'iz diyori", "Sovg'a" kabi asarlari ham xalqlar do'stligi, birodarligi g'oyalari bilan sug'orilgan.

A.Oripov she'riyatida milliylik bilan baynalmillatlik uzviy birlikda namoyon bo'ladi. A.Oripovni faqat o'z millati va o'z mamlakatining tashvishi dardlarigina emas, balki butun jahon xalqlarining taqdiri, g'am-alamlari ham bezovta qiladi. Buni shoirning chet el mavzulariga bag'ishlangan, G'arbiy Yevropa va Amerika safari taassurotlari asosida yozilgan "Ikki Amerika" "Meksika", "Los-Anjeles" ko'chalarini, "Tunislik bola" singari she'rlarida yaqqol ko'rish mumkin.

"Tunislik bola" she'rida shoir Rimda tunislik begunoh bir bolaning bezorlar tomonidan ermak, mazax qilinib, yondirib yuborilganligi haqida g'azablanib yozadi, bu bolaning fojiasini o'z shaxsiy fojiasi sifatida qabul qilib, zo'ravon – tekinxo'rlarga la'nat o'qiydi. Shu bilan birga kishilarning irqi va millatidan qat'iy nazar, inson erkini, inson huquqini dadil himoya etishga da'vat etadi.

Afsus razolatga botdi bu ochun,

Aybni yaratganga to'nkamoq nechun?

Senga o't qo'ydilar bir ermak uchun,

Rimga nega kelding tunislik bola,

Bilaman, sen uchun parcha non qahat,

Zamin mozor bo'lsa Afrika lahat,

O't qo'ysa o't qo'ysin, o'z eling faqat,

Rimga nega kelding tunislik bola?

A.Oripov she'rlarida falsafiy teranlik bilan jo'shqin lirizm uyg'unlashib ketgan. Uning "O'zbekiston, "Munojotni tinglab", "Avlodlarga maktub", "O'ylarim", "Bahor", "Birinchi muhabbatim", "Yuzma-yuz", "Otello", "Kuz", "Saraton", "Dengizga" va boshqa she'rlarida mana shu xususiyat yaqqol seziladi.

A.Oripov o'z she'rlarida ramziy obrazlardan, kinoya, piching va so'z o'yinlaridan mohirona foydalanadi. Kundalik oddiy voqealardan katta ijtimoiy xulosalar chiqaradi va bularni tasvirlashda, ko'pincha yangiliklar kashf etadi. Shoir "Abdulla Qodiriy" she'rida o'zbek halqining bebaho qadriyatlarini, asl iste'dodining qadr-qimmatini haqida badiiy mulohaza yuritib, chuqur mazmunli, aforizm

darajasida ko`tarilgan misralar yaratadi hamda uni sodda va ixcham shaklda jozibador qilib ifodalaydi.

*Azaliy haq gapni yashirmoq nechun,
Zavol yo`q eng asl iste`dod uchun,
Agarda koinot tegirmon bo`lib,
Olamni yanchsa ham qolgay u butun.*

Shoir ona haqidagi she`rida ayol haqida shu kungacha aytilmagan, lekin aytilishi shart bo`lgan teran fikrlarni topib, ularni mahorat bilan ifodalaydi:

*Inson atab bo`lmas hech bir, hech mahal,
Ayolni tanimas takabbur boshni,
Undayin yulduzning so`ngani afzal,
Agar tan olmasa senday quyoshni,
Asl chehrasida ko`rsang tabbassum,
Bilki, zamon tinch, osoyish olam,
Ayolga tilasang gar tole mas`ul
Dunyoni olovdan asra, ey Odam!*

(“Seni Ona dedim”)

A.Oripov mehribon onalar obrazini yaratish bilan birga, otalar haqida yozishni ham unutmaydi. Shoirning “Otalar ilkida zamon bilan vaqt” she`rida mehribon, mard, zahmatkash otalarimizning umumlashma lirik obrazi yaratilgan. Shoir she`rida go`zal, teran badiiy xulosa chiqaradi:

*Men ko`kka termulib kutmasman madad,
Do`st izlab har yonda kezmasman sarson.
Do`stu madadkor ham otadir obod
Shoni-shoning erur, armoni-armon.*

“Yillar armoni” to`plami shoirning deyarli chorak asr davomida yozgan sara namunalaridan tuzildi va ma`lum darajada muallifning armonli yillardan o`z-o`ziga kichik bir ijodiy hisobot tarzida tashkil topgan. To`plam nomi bu asarlar ana shu yillar armonidan qolgan yodgorliklar ekaniga bir ramziy ishoradir. A.Oripov o`zbek adabiyotini “Jannatga yo`l”, “Hakim va ajal”, “Ranjkom” kabi bir qator dostonalar bilan ham boyitdi.

“Hakim va ajal” dostonini shoir jahonning buyuk tabibi Abu Ali ibn Sinoga bag`ishladi. Asarda buyuk dahonning insonparvar, zakiy qiyofasi aks ettirilgan. Muhabbat va umrguzaronlik ulug`lanadi. Adolat bilan qabohat, fasohat bilan razolat o`rtasidagi badiiy va azaliy kurash ko`rsatildi. Malika obrazida mehru shafqat va sevgi-sadoqatga doimo tashna ayol siymosi qirralari gavdalantirildi, Mirzo obrazida o`z manffati yo`lida hech qanday jirkanchliklardan qaytmaydigan “Odamlarning o`zidan chiquvchi iblis” qiyofasi o`z ifodasini topdi.

“Ranjkom” nomli dramatik dostoni oshkoralik va qayta qurish deb nomlangan 80-yillarning ikkinchi yarmida avj olgan g`iybat, tuhmat, ig`vo, hasad singari yaramas illatlarni keskin fosh etdi. Asarda muallifning yashab, ishlab yurgan halol, vijdonli kishilarning ranjitishdan, haqoratlashdan ularga azob berishdan rohatlanuvchi va maqsadlarini izchil ravishda amalga oshirish uchun,

hatto, muallifning shartli tasviricha, maxsus qo'mita tuzishga bel bog'lagan razil kimsalarning umumlashtirilgan jirkanch besharalari aks ettirildi.

So'nggi yillarda jamiyatda ruy bergan o'zgarishlar, ularni zamondoshlarimiz qalbi va tafakkurlariga ko'rsatayotgan ta'siri shoirning "Munojat", "Hikmat sadolari", "Haj daftari" singari to'plamlariga kirgan she'rlarida yorqin aks ettirildi.

A.Oripov ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni beqiyosdir. Chunki o'zbek she'riyatida shoir o'z maktabini yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir she'riyati o'zbek xalqiga hali ko'p yillar xizmat qiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Shoirning yoshlik yillari haqida va ilk ijodi to'g'risida so'zlab bering.
2. A.Oripovning ilk to'plami qachon, qanday nom bilan chop etildi?
3. Uning qanday asarlarini bilasiz?
4. Shoir lirikasining tematikasi haqida so'zlab bering.
5. Vatan va muhabbat mavzusidagi she'rlaridan birini tahlil qilib bering.
6. Aruz vaznida yozgan she'rlaridan qaysilarini bilasiz?
7. Shoir lirikasida qanday badiiy san'atlardan foydalanilgan?
8. Siz yoqtirgan she'rlaridan birini yod aytib bering.
9. Shoir ijodi haqidagi bahslar qanday?
10. Sizning fikringiz-chi?
11. Liro-epik tur deganda nimani tushunasiz?
12. A.Oripov qaysi dostonni yozdi?
13. Unda qanday mavzu yoritiladi?
14. Uning doston yozishiga qilgan tarjimalarini ham ta'siri bo'ldimi?
15. Dostonlarida qanday obrazlar ishtirok etadi?
16. Istiqlol davrida A.Oripov qaysi dramasi yozdi?
17. U dramada qanday mavzu ifodalangan?
18. Ushbu she'riy dramadagi o'ziga xoslik nimada?
19. A.Oripov dostonlari va dramalariga munosabat bildirilgan qanday maqolalarni bilasiz?
20. A.Oripov ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni qanday?

14-MA'RUZA:

O`TKIR HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI

R E J A :

1. O'tkir Hoshimov- yangi o'zbek adabiyotining peshqadam vakillaridan biri.
2. Yozuvchining yoshlik kezlari, ilk ijodining boshlanishi.
3. Hikoya va qissalari haqida. Adib qissalarining joziba sirlari.
4. Roman janridagi izlanishlar.
5. "Tushda kechgan umrlar" romanida qahramon qismati orqali mustabid tuzum g'ayriinsoniy mohiyatining ochilishi.
6. O'tkir Hoshimov ijodining ahamiyati.

ADABIYOTLAR

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
 2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
 3. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
 4. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T., 2003.
 5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.
 6. O. Hoshimov "Ikki eshik orasi", Toshkent. 1978
 7. O. Hoshimov "Dunyoning ishlari". Toshkent, 2009
 8. M. Qo'shjonov "Saylanma" Toshkent, 1983.
 9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.
- TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Kompozitsiya. Syujet. Syujet turlari. Assotsiativ syujet. Ong oqimi. Esse. Hajviy elementlar.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Respublika Davlat mukofotining sohibi O'tkir Hoshimov 60-yillarda adabiyotga kirib kelgan avlod vakilidir. U ko'plab hikoyalar, qissalar, romanlar yaratdi. Yozuvchi betakror publisist sifatida ham tanildi. Uning qator maqolalari "Bahs" teleko'rsatuvining o'z muxlislarini topishi shular jumlasidandir.

O'tkir Hoshimov 1941-yilning 5-avgustda Toshkentning Do'mbirobod degan joyida tug'ildi. Uning bobosi-yu, bobokalanolari ziyoli, o'qimishli odamlar bo'lishgan, savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan, otasi oddiy ishchi bo'lgan, umrining ko'p qismini Toshkent to'qimachilik kombinatida ishlab o'tkazgan. O'tkir Hoshimov tarjimai holida otasi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim va ibratli holni ta'kidlaydi. "Otamdan qattiq hayiqar edik, otam biror marta ham bir tarsaki urgan emas, otamni qattiq izzat qilishni onam o'rgatgan" O'z xotiralarida onasi Halima ayani go'zal fazilatlariga alohida baho beradi.

O'tkir Hoshimov ToshDU ning jurnalistika fakultetini bitirib chiqib, 1964-yildan mehnat faoliyatini boshlaydi. 1966-yilda "Toshkent oqshomi" gazetasida adabiyot bo'limining boshlig'i etib tayinlanadi. Bu lavozimda 16 yil mehnat qildi. Keyin esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir muovini bo'ldi. 1985-yildan "Sharq Yulduzi" jurnalida bosh muharrir lavozimida ishladi. Uning "Po'lat chavandoz" deb atalgan birinchisi kitobi 1962-yili hali talabalik davridayoq bosmadan chiqqan edi. Lekin shunday bo'lsa-da, uning ijodi boshlangan yilni 1963-yil deb belgilansa xato bo'lmaydi. Shu yili "Sharq Yulduzi" jurnalida O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasi bosildi-yu, muallif kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketdi.

Abdulla Qahhor yosh muallifga shunday maktub yo'lladi:
 "O'tkir! "Cho'l havosi"ni o'qib suyunib ketdim. Birdan lov etgan alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi, qissa juda sof, samimiy iliq, tabiiy, rohat bilan o'qiladi.

Qissaning xat shaklida bo'lishi ko'p joylarida ritmni buzadi, so'zni cheklab qo'yadi. Hikoya birinchi shaxs tilidan olib borilsa, ham shunday bo'lar edi. Buni o'ylang, hisobga oling.

Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon to'xtamasin!
 Hurmat bilan Abdulla Qahhor".

Ushbu asar yoshlar hayotiga bag`ishlangan bo`lib, unda ilk muhabbat, totli visol onlari, dastlabki iztiroblar haqida hikoya qilinadi. O`tkir Hoshimovni bu muvaffaqiyat ruhlantirib yubordi. U 30 dan oshiq katta-kichik nasriy asarlar yaratdi.

Muhimi shundaki, bu asarlarning har birida izlanish bor.U o`z uslubini takomillashtirish uchun tinmay ishlaydi.Uning yirik qissalari va romanlari adibining realizm sirlarini puxta egallashida muhim pillapoyalar bo`ldi.

O`tkir Hoshimov asarlarini jozibador qilgan, ularga o`ziga xos badiiy tarovat baxsh etgan ikki muhim xususiyat bor. Bularning biri shuki, u badiiy asarni ko`p targ`ibot quroliga aylantirmaydi., balki asarlarning ko`pchiligida biron muhim umumbashariy muammoni o`rtaga tashlashga intiladi. Ikkinchidan esa, shu muammolarning hammasi, eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi badiiy shakllarda amalga oshiriladi.

O`tkir Hoshimovning “Gunafsha”, “Shamol esaveradi”, “Odamlar nima derkin?”, “Qalbingga quloq sol” kabi qissalari ijodining ilk davrida yaratilgan bo`lib, yoshlar hayotiga bag`ishlangan.Ularning qahramonlari – maktab o`quvchilari , talabalari, aspirantlar, yosh domlalar.

“Qalbinga quloq sol” qissasining qahramoni Charos – talaba, yosh. Tabiiyki, uning qalbida ilq muhabbat urug`lari una boshlaydi. U Yodgor degan talabani sevib qoladi. Yodgor avval uylangan, olti oy turmush qurib, ajrashgan ekan. Charos Yodgorning haqiqiy inson ekanligini sezadi, his qiladi. U Yodgorni sevib qolganiga amin bo`ladi. Usiz yashay olmasligiga ishonadi. Biroq uning hayotiga onasi Vasila Nazirovna aralashadi. Maktabda ilmiy mudir bo`lib ishlayotgan bu ayol qizini jon dilidan sevadi, astoyidil uni baxtli bo`lishini istaydi, ammo uning qalbi ko`r, o`zgalar qalbining nozik qirralarini tushunmaydi. U qizi Charosning qalbini ham tushunmaydi.

U to`qqizinchi sinfda o`qiydigan Dilfuzaning sevgilisiga yozgan xatini tortib olib, unga tarbiya bera boshlaydi.U qo`pol muomala, shafqatsizliklarga chidamay joniga qasd qiladi. Xuddi shunday qismat Yodgorning boshiga ham tushadi. Uni bila turib “axloqiy buzuq” deb jamoatchilik tomonidan kamsitiladi, jazolanadi.

Unda inson erki uchun o`rin yo`q edi, inson hoxishlari qadrlanmas edi. Shunday qilib Vasila Nazirovna, Charos, Yodgor, Dilfuza Iskandarovlar o`rtasida ro`y bergan oddiy bir voqea misolida muallif insonni hurmatlash, sevish, uni avaylash, saboqlarini o`rgatadi Muhimi, qissa qahramonlari bizni loqayd qoldirmaydi uning tuyg`ularini tushunamiz. Hatto Vasila Nazirovnani ham ayblagimiz kelmaydi uning, xarakterida tuzum, ijtimoiy munosabatlar, o`z ifodasini topgan. Tuzum uning qiyofasini qotirib yuborgan.

O`tkir Hoshimov ijodiga xos bo`lgan xususiyat qissadan – qissaga ko`chib boradi. Uning “Bahor qaytmaydi” qissasida bosh qahramon Alimardon To`rayevning hayot yo`li aks ettiriladi. Alimardon To`rayevning ma`naviy dunyosi asar drammatizmida haqqoniy ochib beriladi. Qissaning tugallanmasi ayrim kitobxonlarga ma`qul kelmasligi ham mumkin. Qissa oxirida Alimardonning halok bo`lishi shartmi? Bu yozuvchining ixtiyorida.Har ikki holatda ham uni diyonatiga putur yetmaydi. Xullas, gap xotinida emas, balki asar qahramonlarining munosabatlarida, shu munosabatlar asosida yaratilgan hayot haqiqatidadir. Tabiat

unga ajoyib talant-ne'mat in'om etdi, ammo u buni qadriga yetmadi. U o'z iste'dodiga ham o'g'li Shavkatjonning taqdiriga ham e'tibor bermadi. Chunki u yoshligidanoq o'zini o'ylaydigan xudbin bo'lib o'sgan edi, xuddi shu xudbinlik uni fojiaga olib keladi.

Muqaddamga uylangach, uni xo'rlay boshlaydi. O'ziga-o'zi mahliyo bo'lib, muxlis va tomoshabinlarini mensimay qo'yadi. E'tiqodsizlik, mas'uliyatsizlik o'tkinchi mayllarga berilish, umuminsoniy qadriyatlarni mensimaslik Alimardonni fojiaga olib keladi. Asar davomida hayot mantig'iga zid keluvchi biror bir lavhaga duch kelib ranjimaymiz, kitobxon Alimardonning inqirozidan xursand bo'lmaydi. Muqaddam va Shavkatjonlarning taqdiriga achinadi. Bu esa O'.Hoshimovning o'ziga xos mahorati edi.

1977-yili uning birinchi romani "Nur borki, soya bor" bosilib chiqadi. Bu janrga murojaat etish bilan muallif o'z kuchini bu janrda sinab ko'rish emas edi, bu davrda xuddi shunday mavzudagi romanlarga ehtiyoj bor edi. 70-yillarning boshlaridayoq, turg'unlik davrining illatlari "manaman" deb ko'rina boshladi. Ijtimoiy illatlar tobora guruhlanib borayotgan edi. Bu davrda poraxo'rlik avj olib, odamlar o'z ishini bajarish o'rniga, tamagirlik kuchayib ketdi. Savdo-sotiq xalqni emas, ayrim shaxslarni boyitish uchun xizmat qildi. Ekologiya buzildi, bolalar va ayollar xor qilindi, natijada iymon susaydi, diyonatga putur yetdi, e'tiqod zaiflashdi. Jamiyatda ma'naviy chirish belgilari ayon ko'rina boshladi.

Asarning bosh qahramoni Sherzod jurnalist, hayotida haqiqat uchun kurashadigan mard yigit. U o'z vazifasini hayotda, haqiqat uchun kurashish deb biladi. Asar boshida u balandparvoz gaplarga ishonaveradi adolat o'rnatishni juda oson deb o'yladi. Qarama-qarshiliklarga duch kelgach, uning mohiyatini tushunib yetadi. Biroq ushbu ziddiyatlarni yengib, o'z maqsadiga erishadi.

O'.Hoshimov 80-yillarda ham samarali ijod qildi. Bu davrda uning "Quyosh tarozisi", "Mashina sotaman", "Yalpiz somsa", "Oq kamalak", "Sirli yulduz", "Xazina". "Ikki karra ikki besh" kabi kitoblari bosmadan chiqdi. Adibning "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi" romanlari katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

"Dunyoning ishlari" falsafiy umumlashmalarga boy psixologik qissadir. Ona obrazini chizar ekan, xalq hayotining negizi – ma'naviy – axloqiy e'tiqodlarini badiiy tahlil etishini bosh maqsadi qilib qo'yadi.

Asardagi ayrim detallar yordamida onaning ayrim fazilatlarini bilib olamiz. Uning qo'llaridan sut hidi kelishi, jussasi kichikligi, bo'yi tandir tepasiga yetmasligini bilib olamiz. Uning hayoti qanday kechganligini, nima ishlar bilan shug'ullanganligi ham hayotiy voqealar orqali tasvirlab beriladi. Asardagi o'zbek ayollariga yuksak baho beradigan asosiy omil, nurlantirib turadigan oftob – onaning hayotiga salmoqli ma'no kasb etadigan, uning xulq-atvorini, yashash tarzini belgilaydigan e'tiqodidir, muallif xuddi shu narsalarni asarda tasvirlab beradi. Onaning faqat o'z farzandini emas, o'zgalarning ham farzandini sevishni asarda ko'rsatib beradi. Ona muhabbatining fidoiyligi "Gilam paypoq" hikoyasida g'oyat ta'sirchan tasvirlab beriladi; qish kunlarining birida o'g'li shamollab qoladi, qattiq isitmalaydi. Onaning joni ko'ziga ko'rinmay, yalangoyoq bolasini tabibnikiga olib boradi. O'g'lining hayoti saqlanib qoladi, ammo ona bir umr bod kasaliga chalinib qoladi.

“Oltin baldoq” hikoyasida onaning vijdoni naqadar buyuk ekani ko`rsatib beriladi, asar onalarga bitilgan qo`shiqdir.

O`tkir Hoshimov 1986-yili “Ikki eshik orasi” romanini yozdi. Muallif asarda urushni qoralaydi, uning g`ayriinsoniy mohiyatini ochadi, uning jarohatlari ko`p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini ko`rsatadi. Yozuvchi o`zi tasvirlayotgan muhitni ham, odamlarni ham yaxshi biladi – shuning uchun tasvirda balandparvozlikka berilmaydi. Uning uslubi tabiiyligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Asarning kompozitsiyasi ham original. U yetti qismdan iborat bo`lib, bu qismlar qirq yetti bobni tashkil etadi.

“Ikki eshik orasi” romani personajlarga boy. Ularning orasida Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabilar ajralib turadi. Muallif Orif oqsoqol obrazini mukammal chizishga muvaffaq bo`lgan. U xalq o`rtasida katta obro`ga ega bo`lgan, og`ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga otlantira olgan. U ko`pgina o`zbek qariyalari kabi tashabbuskor va donishmand.

Romanda Kimsan Husanov obrazi ham muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida bevosita ishtirok etsa-da, ikkinchi bobdagi hikoyasi orqali kitobxon tasavvurida teran obraz sifatida gavdalanadi.

Romanda ayollar obrazi ham mavjud bo`lib, “Qora amma” bobi ajralib turadi. Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva urushdan keyin tug`ilgan bu ikki yosh bir-birini samimiy sevadi. Ammo allaqachon tugab ketgan urushning qora sharpasi ularning baxtiga changal soladi. Romanda Muzaffar va Munavvarning fojiasi ancha keng va ishonarli ko`rsatilgan.

Romanning asosiy qahramonlaridan yana biri Ra`no eriga xiyonat qiladi. Umar zakunchining hiylasiga uchib unga ko`ngil qo`yadi. Muallif bu voqealardan muhim ma`naviy xulosalar chiqaradi.

O`tkir Hoshimov 1992-yili “Tushda kechgan umrlar” romanini e`lon qildi. Bu roman muallifning tinimsiz izlanishlar yo`lidan borayotganidan, uning qalami muttasil o`tkirlanayotganidan dalolat beradi. “Tushda kechgan umrlar” teran bir dard bilan yozilgan asar. Unda muallifning hayotga qarashlari yanada chuqurlashganini ko`ramiz, insonning ruhiy dunyosi ham boshqa asarlardagiga qaraganda teranroq kirib boradi. Asar bosh qahramoni – Rustam Mamatov. U endigina 22 yoshga to`lgan, Alpomishdek devqomat yigit. U o`z joniga qasd qiladi va olamdan o`tadi. Rustam nima uchun shu ishni qiladi? - degan savolga romandan javob topish mumkin. O`sha tuzum Rustamni to`laligicha o`ziga buysundirib olgan, uni bir yaproq misoli chirpirak qilib aylantiradi, uni dahshatli tegirmonlarga solib, kukunga aylantiradi.

Romanning bir joyida muallif personaj tilidan “Urush teskari haqiqat” degan fikrni aytadi. Uning 22 yillik umri o`sha teskari haqiqat izmida o`tadi. Asarda Soat G`aniyev degan obraz ham bor. Komissar har qanday insoniy jozibadan mahrum. U nafaqaga chiqqandan keyin atrofimizdagi kishilarni zaharlaydi. Roman oxirida Rustam oilaviy hayotdagi omadsizligi uchun o`zini nobud qiladi – dahshatli afg`on urushi, unda qo`llangan turli tuman biologik dorilar tufayli ota bo`lish baxtidan benasib bo`lgan. Xuddi shu narsalar uni o`z joniga qasd qilishga olib keldi.

Shubhasiz, “Tushda kechgan umrlar” ijtimoiy yo`nalishi jihatidan ham insoniyat, mazmunining teranligiga ko`ra ham, badiiy fazilatlar bilan ham O`tkir Hoshimov

ijodida yangi bir bosqich bo`ldi va adabiyotimizga o`ziga xos hissa bo`lib qo`shildi.

Tanqidchilarimiz baholashganidek, O`tkir Hoshimov ruhiyat yozuvchisi, uning asarlari kitobxonlar tomonidan sevib o`qiladi.

O`tkir Hoshimov o`z asarlari bilan o`zbek adabiyotida munosib o`ringa ega bo`lgan yozuvchilardan edi. Beshafqat o`lim sevimli yozuvchimizni 2013-yil may oyida oramizdan olib ketdi. Yozuvchimiz o`z asarlari bilan kitobxonlar qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi

NAZORAT SAVOLLARI

1. Adibning yoshlik yillari va ilk ijodi haqida so`zlab bering.
2. O`.Hoshimov ijodiga qanday fikrlar bildirilgan?
3. O`.Hoshimov qanday qissalarini bilasiz?
4. Yoshlar hayotini aks ettirgan «Qalbingga quloq sol» qissasida qanday mavzu yoritiladi?
5. Unda ishtirok etgan obrazlarga o`z munosabatingizni bildiring.
6. «Bahor qaytmaydi» qissasi haqida fikringiz qanday?
7. Nima uchun ushbu asar o`z muxlislariga ega?
8. O`.Hoshimovning hikoya va qissalari haqida yozilgan qanday ilmiy maqolalarni bilasiz?
9. Sizga O`.Hoshimovning qaysi qissasi yoki hikoyasi yoqadi, nima uchun?
10. O`.Hoshimov ijodi haqidagi sizning fikringiz qanday?
11. O`.Hoshimov ilk romanini qachon yozdi?
12. Unda qanday g`oya ilgari suriladi?
13. «Nur borki, soya bor» romanida muallif niyati qaysi obrazlar asosida ochiladi?
14. Asardagi psixologik tasvir qaytarzda ochilgan?
15. «Dunyoning ishlari» romani haqida qanday fikrdasiz?
16. «Oltin baldoq» hikoyasining asosiy g`oyasi nima?
17. Urush voqeasi S.Ahmadning «Ufq» trilogiyasida berilgan, har ikki asarni solishtirib ko`ring.
18. «Ikki eshik orasi» romani haqidagi fikringiz qanday?
19. O`.Hoshimovning yana qanday romanini bilasiz?
20. Adib ijodining o`zbek adabiyotshunosligida o`rganilishi qanday?

15-MA`RUZA:

RAUF PARFINING HAYOTI VA IJODI

REJA:

1. Rauf Parfi lirikasi- so`nggi davr o`zbek she`riyatidagi yangi hodisa.
2. Yozuvchining yoshlik yillari va ijodining boshlanishi.
3. 60-80 yillar she'riyatida shoirning o`rni.
4. Shoir lirikasida qalb manzaralarining nafis istioraviy talqini.
5. Lirik va publisistik ibtido shoir she`riyatining qo`sh qanoti sifatida.
6. Adabiyotda Rauf Parfi tarjimalarining ahamiyati.

ADABIYOTLAR

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
5. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T., 2003.
6. Shoir to'plamlari.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR. Kompozitsiya. Modernizm. Metafora. Xokkular yoki ignabarglar. Ruh rassomi. Yapon she'riyati. Badiiy obraz.

60-yillar she'riyatiga Rauf Parfi o'ziga xos ovoz bilan kirib keldi. U o'zigacha bo'lgan o'zbek she'riyatining an'alarini o'z asarlarida tasvirlash bilan birga jahon she'riyatining xususiyatlarini ham singdirib yubordi. Ayniqsa, u Nozim Hikmat, Garsiya Lorca singari xorijiy shoirlarning asarlarini mehr bilan o'rgandi, ularning hech biriga o'xshamagan she'rlarni yozdi.

Rauf Parfi 1943-yili Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi Sho'ralisoy qishlog'ida dunyoga keldi. Uning ota-onasi asli farg'onalik bo'lib, 50-yillarning o'rtalarida sho'rolar zamonining zayli bilan shu yerga kelib qolganlar. Uning otasi Parfi Muhammad Hamroqul Tursunqulov, Abdurahmon Vodiliy singari farg'onalik davradoshlari bilan hamsuhbat edi. Bu haqda shoir shunday eslaydi: "Agar birinchi ustozim deb aytish mumkin bo'lsa, Abdurahmon Vodiliy deb atar edim",- deb yozadi shoir o'zining tarjimai holidagi. Uning qarindosh-urug'lari yer-suvli, ot-ulovli kishilar bo'lganligi uchun ham boylarga qarshi kurash yillarida otib tashlashgan. Shuning uchun ular Vodilni tark etishga majbur bo'lishgan.

Rauf Parfi nozik tabiatli inson bo'lgan. U dilbar xayollar kuychisidir. Uning "Karvon yo'li" deb nomlangan birinchi she'riy to'plami 1969-yilda nashr etilgan. Shundan so'ng "Aks sado" she'rlar to'plami e'lon qilindi (1970). Uning qator she'rlar to'plami keyingi yillarda birin-ketin nashr etildi. "Tasvir" (1973). "Xotirota" (1975). Ayniqsa, uning 1986-yilda nashr ettirilgan "Sabr daraxti" to'plami she'riyatimizda katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi.

Umuman, Rauf Parfining o'zbek she'riyatida paydo bo'lishi ajoyib bir hodisa bo'ldi. Uning she'rlarini dastlabki paytlarda hatto adabiy tanqidchilik rad etdi. "Raufona" she'rlar deb nom oldi. Shubhasiz, Rauf Parfi atrofida bo'lgan bunday tortishuvlar jamoatchilikni, she'riyat ixlosmandlarini o'ziga tortdi. Ko'plab yoshlar aynan shu usulda she'rlar yozishga kirishib ketdilar. 60-yillar she'riyatiga nazar tashlasak, aqliy lirika rivojlanganini ko'ramiz. Uyg'unning "Nazir otaning g'azabi" she'rida faqat partiya uchun, planni bajarish uchun kurash tasvirlanadi, shu va shunga o'xshash ko'pgina she'rlarda yurak muzlab qolgandek ko'rinadi. Bu esa 30-yillardagi lirikani tozalashning oqibatidir. Chunki 50-yillarga qadar grajdanlik ruhidagi she'rlarni yozish birinchi o'rinda turar edi. Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Asqad Muxtor, Zulfiya va Shukrullolarning kirib kelishi bilan o'zbek she'riyati o'z qaddini tiklab oldi. Shulardan biri, shu avlodning kenja avlodi Rauf Parfi edi. Shoirning 60-yillarda yozgan she'rlarida qalb va tabiatni kuyladi. Ularning aksariyati an'anaviy sarlavhaga ham ega emas edi. Aniqrog'i, shoir

birinchi satrga sarlavha huquqini bergan edi, xolos. Bu yangilik edi. Lekin shoir asarlaridagi eng muhim yangilik uning satrlaridagi kutilmagan obraz, o`xshatish, istioralar edi. Mana shoirning shunday she'rlaridan biri :

*Shivirlaydi oyog`imda yashab o`tgan xazonlar,
Ko`zlarimga igna yanglig` sanchilmoqda mezonlar.
Huvillangan qishloq uzra quyuc tuman cho`qmoqda.
Yiroqlarda nay ko`nglingi so`nggi bora to`kmoqda.*

Shoir bu she'rida o`zbek qishlog`ining kuz paytdagi g`arib manzarasini tasvirlagan. Tabiatga murojaat qilishning asosiy maqsadi, qalbning muayyan muhitdagi holatini chizishdir. Lirik qahramon o`zida tashqi olamni aks ettiradi. O'lis samodagi to`lqinlar ham, bahor, yoz ham kishining qalbiga o`z ta'sirini o`tkazganday. Uning "Oybek xotirasiga" nomli she'rida shunday satrlar bor:

*Biroq, xayhot bir quyun keldi ...
Oydin buloq qayga berkindi ?!
Qaydadir sha`n va sobit chiroy?
Falaklarga qaramay endi.
Falaklarda suzib yurar oy...*

Tirik Oybek bizni o`z tiniq suvidan bahramand etgan bir buloq edi, bir quyun tufayli bu buloq suvlarida mavjlangan oy ham, buloq ham yerni tark etdi. Rauf Parfi aynan tabiat manzaralari orqali inson qalbining nozik tomonlarini ochib bera oladi. Shu ma'noda uni inson ruhiyatining rassomi deyishgani bejiz emas. "Falaklarga qarayman endi, Falaklarda suzib yurar oy." Bu satrda Oybek adabiyotimiz osmonida oy kabi balqib turishiga bir ishora qilingan.

"Rauf Parfi poeziyadan murakkab va dinamik metaforalar usulini tanladi, - deb yozgan Asqad Muxtor. Unda ayrim obrazalargina emas, balki butun she'r metafora harakatiga quriladi, Metafora poetik tilga, obraz mantiqiga, she'riy tafakkur boyligiga aylanadi.

Metafora poeziyada albatta yangilik emas. Lekin u har bir yangi shoirida o`ziga xos jilvalar namoyon qiladi. Rauf Parfi metaforalarining o`ziga xosligi ularning qamrovida va mavzuga mayin, tabiiy romantik ohangdoshligida".

Bu o`rinda "Metaforani – istiora deb, dinamikani shiddatli deb tushinish kerak. Shoir ijodiga ikki narsa ijobiy ta'sir qildi. Birinchisi, Boltiqbo`yi mamlakatlariga qilgan safari bo`lsa, ikkinchisi, rassomlar bilan doimiy munosabatda bo`lib ularning ijodidan, bu san`atningg nozik sirlaridan bahramad bo`lganligidandir.

Uning hozircha yagona bo`lib hisoblangan "Sabr daraxti" saylanmasini varaqlasak, Mikelanjelo, Van Gog, Pol Verlen singari buyuk musavvirlarga bag`ishlangan she'rlarga ko`zingiz tushadi. Bu hol esa boshqa ijodkorlarda mutlaqo uchramaydi. Qizig`i shundaki, u voqelikini musavvirning ko`zi bilan kuzatib tasvirlaydi.

*Mana chaqmoq chaqdi nogahon.
Zimiston tun choki so`kildi.
Shunday yaqin ko`rinar osmon
Yashin yog`dusi to`kilar.*

Chaqmoq chaqqanda tabiatdagi o`zgarishni shoir shu qadar chiroyli tasvirlaganki, bu tasvir faqat Rauf Parfi she'riyatiga uchungina xos xususiyatdir.

Rauf Parfining yana bir o`ziga xos xizmati shundaki, u sotsialistik realizm ta'sirida yurgan o`zbek shoirlariga yangi bir yo`lni ko`rsatib berdi, yangi bir havoni bu she'riyat osmoniga olib kirdi.

XX asr yapon klassik shoiri Isikava Takubokuga bag`ishlangan she'rini shunday usulda yozadi:

*Hasratimning
Suyuq toshlaridan
Dahma qurmoqchiman
O`zimga
Ichida o`z jasadim bo`lsin.*

Asqad Muxtor aytgan murakkab va shiddatli istioralar usuli, ayrim obrazlarnigina emas, balki butun she'rni ham istiora harakatiga qurilishishu she'rda namoyon bo`lgan. Uning ildizlari esa qadimgi yapon she'riyatiga borib taqaladi.

Ma'lumki, Basyo singari yapon shoirlari uch qatorli she'rda ham katta fikrlarni aytganlar. Rauf Parfi yapon she'riyatidagi mavjud bo`lgan tanka va xokku usullarini o`zbek she'riyatiga olib kirishga harakat qildi. Mana uning uch satrli shunday she'rlaridan biri:

*Qor hidi dimoqqa urildi,
Uxlaydi shamolning qo`ynida
Barglarini to`kmagan rayhon.*

*Men sening ko`zlaringga qarayman,
Sen o`zgalarga
Kimning ko`zlaridan izlaysan meni.*

Ko`rinib turibdiki, Rauf Parfi o`z an'anasiga sodiq qolib, bu she'rchalarning birinchi satrlarini ham sarlavha darajasiga ko`tardi. (Shu o`rinda "Sabr daraxti" saylanmasidan bir necha she'r o`qiladi, tahlilga tortiladi). Keyingi yillarda ham Rauf Parfi bir necha ajoyib she'rlar yozdi. Uning "Turkiston yodi" she'rida shunday satrlar bor.

*Yana yiroqlarga chorlaydir moziy,
Vatan tushunchasi kelar yetaklab,
Ayrilgan, xo`rlangan ulus ovozin,
Shoirning beshigi aytar ertaklar.*

Bu o`rinda beshik oddiy detal emas, bu Vatan-yupanchdir. Uning 1995-yilda yozgan "Abdurauf Fitrat" deb nomlangan sonetida quyidagi satrlar bor:

*Falokat ustiga falokat tutdi,
Intiqom, intiqom! – dedim yugurdim.
Ayrilgan, xo`rlangan ulus ovozin.
Turkiston, Turkiston, Turkiston o`tdi –
Razolat qabrida bosh egib turdim.
"Ay ulug` tog`larim! Ay, shonli Turon,
Tokay uyg`onmassan, Ay qonli Turon.*

Fitratning so`nggi nolasi orqali shoir o`zining yuragidagi armonlarini bayon etadi. Bu kabi she'rlar shoir ijodida juda ko`p. Umuman aytganda Rauf Parfi ijodi haqida juda ko`p yaxshi fikrlarni aytish mumkin. Uning she'rlari bilan tanilgan har bir kitobxon bu narsaga amin bo`lishi mumkin. Shoirning tarjimonlik faoliyati hamtahsinga sazovor. .. Beshafqat o`lim O`zbekiston xalq shoiri Rauf Parfini 2005 yilda olib ketdi.

NAZORAT SAVOLLAR :

1. Tarjimai holi haqida hikoya qilib bering.
2. Ilk ijodi qanday boshlandi?
3. Birinchi she'riy to`plami va umuman to`plamlari haqida nimalar bilasiz?
4. R.Parfi lirikasining o`ziga xos jihatlari qanday?
5. Jahon she'riyati ta'siri shoir ijodida qaytarzda aks etgan?
6. Shoir ijodida obrazlar ifodasi, so`z tasviri qanday?
7. R.Parfining «Sabr daraxti» to`plami haqidagi fikringiz qanday?
8. 60-80 yillar she'riyatida R.Parfining qanday o`rni bor?
9. R.Parfi ijodiga o`zbek adabiyotshunosligining bergan bahosi qanday?
10. Tarjimonlik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

16-MA'RUZA:

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HAYOTI VA IJODI.

REJA:

1. Shukur Xolmirzayev- XX asr adabiyotining ko`zga ko`ringan vakili.
2. O`zbek hikoyachiligida Sh.Xolmirzayevning o`rni.
3. Adib qahramonlari va ma'naviy qadriyatlar muammosi.
4. 90-yillar hikoyalarida zamon ruhi va tarixiy adolat masalalari.
5. Sh.Xolmirzayev qissalari.
6. Sh.Xolmirzayev romanlari va dramasi.
7. Adibning o`zbek adabiyotidagi o`rni.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., 1999.
2. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 2005.
4. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. T., 1999.
5. Shukur Xolmirzayev. Bodom qishda gulladi. Hikoyalar to`plami. T., 1986.
6. Shukur Xolmirzayev. Tanlangan asarlar. T., 2001
7. G`afurov Ibrohim. Yillar izhori. T., 1993.
8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., 2003

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Qissa haqida ma'lumot. Tarixiy drama. Kulminatsiya. Realistik hikoya. Ma'naviy qadriyatlar. Syujet va kompozitsiya

XX asr o'zbek adabiyotini zamon o'lchovida shartli ravishda uch tarixiy bosqichga ajratsak, Shukur Xolmirzayev uning so'nggi bosqichida so'z san'atimizni yangi saviyaga ko'tarishga salmoqli hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir.

Shukur Xolmirzayev talabalik yillaridan iste'dodini tirishqoqlik bilan parvarish etdi. O'nlab hikoyalar, «Oq otli»(1961)va «To'lqinlar»(1962)nomli bir emas,ikki qissa shu vaqtda yozildi. Tanqidchilik ularni xayrixohlik bilan kutib oldi.

Abdulla Qahhorning yosh adib haqida aytgan iliq fikrlari, Matyoqub Qo'shjonovning matbuotdagi umidbaxsh mulohazalari kitobxon e'tirofini mustahkamladi.

Yigirma besh yoshga kirgan yozuvchi «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» (1965y) qissasi bilan adabiy jarayondan dadil o'rin oldi. Bu qissadan so'ng Shukur Xolmirzayev uzoq yillar hikoya janrida ijod etdi. Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirmqul Qodirov kabi adiblar ko'proq roman janriga o'tishgach, Shukur Xolmirzayev 1970-80-yillarda o'zbek hikoyachiligining peshqadam vakillaridan biri bo'lib qoldi.

Adibning «Olis yulduzlar ostida», «Hayot abadiy»(1974), «Og'ir tosh ko'chsa»(1980), «Bodom qishda gulladi»(1986) singari to'plamlariga kirgan hikoyalari o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko'tardi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligida A.Qodiriyning tabiatni jonlantirib tasvirlash an'alarini rivojlantirdi. «Jinlar bazmi»dagi ayrim xususiyatlarni «Zov ostida adashuv»da uchratmiz, qahhorona uslubda yozilgan «Podachi» nomli hikoyasi bor. Kimdir bu fikrga qo'shilar yoki qo'shilmas, bu asarni yaratilishida A. Qahhorning «O'g'ri» hikoyasini alohida o'rni bor.

«Podachi»dagi Ostonaqul chol jamoa xo'jaligidagi ho'kizning harom o'lishiga sababchi bo'ladi, shu ho'kiz Ostonaqul cholning qozonini qaynatgan, og'irini yengil qilgan, uni kasalligini bilgan chol so'yishga qo'li bormaydi, natijada ho'kiz o'ladi. Ostonaqul jamoa xo'jaligiga uning xunini to'lashga majbur. Hikoyadagi bo'lim boshlig'i bilan bo'lgan munozara, «qasddan o'ldirgan hisoblanadi» degan gapi ota yuragini teshib yuboradi.Asarning xuddi shu o'rinlari Qobil boboni eslatadi.Chexovning «Otboqar»hikoyasi bosh qahramonining holatini ham ko'z oldimizdan o'tishi tabiiy.

«Og'ir tosh ko'chsa» to'plamida «Olam tortilish qonuni» degan hikoyasi bor. Bu hikoya ham ma'naviy-axloqiy muammoga doxil. Hikoyada umrini maishatlarga bag'ishlagan Husan akaning hayoti tasvirlanadi. Hatto shu maishat deb o'zining jigargushasini so'nggi yo'lga ko'zatishga bormaydi. Xuddi shu narsalar uni qalbini kemiradi. Dunyo keng, biroq u hisobli ekanligini hikoya qahramoni Husan aka tushunib yetadi.

80-yillarning o'rtalarida «Bodom qishda gulladi» to'plamini e'lon qildi. Bu to'plamni shartli ravishda to'rt faslga bo'ladi: tog', dasht, qishloq, shahar hikoyalari. Darvoqe, yozuvchi qahramonlari ham shu to'rt manzilda yashaydi. Ularning har birida turli xarakterdagi qahramonlar bor, ularning o'z dardi, o'z orzusi bor. Ularning muammolari o'zbekning – millatning muammolar bilan mushtarakdir. Ushbu to'plam Shukur Xolmirzayev ijodining tadrijiy taraqqiyotini ko'rsatdi. To'plamga 1966-yilda yozilgan «Yovvoyi gul» hikoyasidan tortib,

undan yigirma yil keyin yozilgan «Bodom qishda gulladi» hikoyasigacha kiritilgan.

80-yillarga kelib Shukur Xolmirzayev hikoyalarida zamon ruhi yanada teranlashdi. Bu xususiyatni uning «Yashil Niva», «Ustoz», «Xumor», «O`zbek xarakteri», «Yig`i» hikoyalarida ko`zda tutish mumkin. «Yig`i» (1988)ni janr tabiatiga ko`ra novella deb ham atash mumkin. Unda sho`ro askarlarini Afg`on hududida olib borgan janglardan lavha keltiriladi. Bir qaraganda, asar uzuq-yuluq kompozitsion qurilishga ega, asar oxirida bu usulni yozuvchi ataylab tanlaganini guvohi bo`lamiz. Shukur Xolmirzayevning «Zov ostida adashuv» hikoyasida zamonning qator muammolari o`z ifodasini topgan.

90-yillarga kelib yozuvchi hikoyalarida zamon ruhi yanada teran va yorqin namoyon bo`la boshladi. «Ko`k dengiz» hikoyasi nafaqat Shukur Xolmirzayev ijodining, balki XX asr o`zbek hikoyachiligining yutug`i bo`ldi.

Oltoyda chor-nochorlikda yashagan Ivan Ivanovich O`zbekistonga mehmonga chaqirilgan. Bu yerda yashab ijod etgan Ivan Ivanovich O`zbekistondagi hayotni ko`rib hamma yer shunday ekanda deb o`z yurtini qo`msab qoladi.

Shukur Xolmirzayev «Ko`k dengiz» hikoyasida faqat Oltoy xalqi, faqat o`zbek xalqi emas, Sovet Ittifoqi deb atalgan sho`rolar mamlakatidagi ko`pdan ko`p xalqlarning XX asr nihoyasidagi milliy dardini singdira olgan.

Ijodiy jarayon sirli. «Ko`k dengiz» o`zbek hikoyachiligining xalqaro nufuzini ko`taradigan, jahon hikoyachiligining nodir namunalari qatorida tura oladigan darajadagi asardir.

Shukur Xolmirzayevning «Qadimda bo`lgan ekan» hikoyasida adabiyotimizda birinchilardan bo`lib, jamiyatimizda yuz berayotgan ana shu so`nggi o`zgarishlarning, qiyinchiliklarning inson qalbiga ko`rsatadigan ta`sirini badiiy gavdalantirgan. Ahvol shu darajaga yetdiki, hatto asriy an`analar, urf-odatlar ancha mustahkam turuvchi va udumlari osonlik bilan o`zgarmovchi qishloq kishilari tabiatida ham o`zgarishlar sodir bo`la boshladi. Hikoyada O`sar va uning momosi o`rtasidagi munosabat ko`rsatib beriladi. O`sar xotini gapiga kirib, momosini qaytib kelolmaydigan joyga tashlab keladi. Vijdoni qiynalgan O`sar momosi oldiga borganda momo yo`q bo`ladi. Uni boshqa insonparvar kishilar olib ketishgan bo`ladi. O`sar bilan xotini umrbod azobda qolishadi.

80-yillarning ikkinchi yarmida «Bukri tol» nomi bilan, so`ng «To`lqinlar» nomi bilan bosib chiqarilgan qissasida Mamurjon singari o`spirinlarning hayoti tasvirlangan. Taniqli yozuvchilarning yuragiga «jiz» etib tekkan Shukur Xolmirzayevni tanitgan qissasi «O`n sakkizga kirmagan kim bor?» qissasidir.

Asarda hayotga endigina mustaqil qadam qo`yayotgan Jamshid, Umida, Tilob singari yoshlarning orzu-umid, armonlari aks ettiriladi. Adibning maqsadi hayotga mustaqil qadam qo`yayotgan yoshlar hayotini ko`rsatib berishdir.

70-yillar oxirida Shukur Xolmirzayev yirik janrga, muhim muammo tasviriga qo`l urdi. Buxorodagi sho`ro inqilobiga bag`ishlangan «Qil ko`prik» romanini yozishga kirishdi. Asar 1983-yilda nihoyasiga yetdi.

«Qil ko`prik» romani markazida Buxoro mustaqilligi va umuman, Turkiston mustaqilligi uchun kurashni tashkil etuvchi, sho`rolar razvedkachisi Qurbon obrazi turadi. Qurbon va Oyparcha muhabbati ham keng o`rin oladi.

Romanda Anvar poshsho avvallari bosmachilik deb atalgan, hozirda xalq ozodligi uchun kurash deb nomlanayotgan harakat rahbari Ibrohimbek singari tarixiy shaxslarning qiyofasi tasvirlangan.

«So`nggi bekat» romanida Shukur Xolmirzayev sho`ro tuzumi davrining so`nggi bosqichlaridagi hayotimizda, uning taraqqiy etishga deysinish va hatto, tanazzulga ketish sabablarini badiiy tahlil qiladi. Bu maqsadga yozuvchi «Bekat» jamoa xo`jaligini ko`rsatib berish bilan erishadi. Shukur Xolmirzayev romanlarida ko`proq tanqidiy ruh hukmron. «So`nggi bekat» asarida ham bu xususiyat yetakchilik qiladi. Kishilarning iqtidoriga qarab ish bilan band emasligi ko`rsatib beriladi.

«Yo`lovchi»(1987) romanida Shukur Xolmirzayev qayta qurish sharoiti imkoniyatlaridan kelib chiqib turg`unlik davri asoratlariga, ularning ijtimoiy ildizlariga nazar tashlaydi. Asarda jamiyatning shu holga tushuviga sababchi bo`lganlar toifasidan paxta punkti rahbari Iskandar Qalandarov, olg`ir Ashur Yasharov singari obrazlarga duch kelamiz. Asar bir muncha shoshilib yozilgani uchun kitobxonlarga uncha ma`qul bo`lmaydi.

«Ola bo`ji» - O`zbekiston mustaqillikka erishguncha, o`zbek adabiyotida yaratilgan so`nggi romanlardan bir bo`ldi. Asar 1991-yilda yozildi. Asarda Surxondaryodagi olis tog` qishloqlaridan biri hamda tuman markazidagi hayot aks ettiriladi. Shukur Xolmirzayev ushbu asarda roman janrining mumtoz xususiyatlaridan unumli foydalangan holda, uni imkoniyatlarini tasvirdagi erkinlik, xolislik, kenglik hisobiga yanada boyitadi. Roman nomiga yozuvchi ramziy ma`no singdirgandek bo`ldi: «Olabo`ji». U balki Sho`ro tuzumidir, balki sog` bo`la turib jinni deb e`lon qilingan Ultondir. Yetim cho`qqida paydo bo`lgan, bo`kirib, g`o`ldirab yurgan odamsimon ayiq emasmikan? Shu ayiq Ulton emasmi, yo unga Ulton ruhi ko`chdimikan. Shu ruhdagi Adolatdir, Erkdir, balki Olabo`jidir. Xulosaga kelishni yozuvchi kitobxonning o`ziga qoldiradi.

Shukur Xolmirzayev 1977-yili «Qora kamar» dramasini yozadi.

Dramaga 1925-yil 1-dekabrda bir kun davomida ro`y bergan voqealar asos qilib olinadi. Unda sho`rolarga qarshi kurash olib borayotgan Xurrambek obrazi asos qilib olinib, uning ichki dunyosi, uni qurshagan muhit hamda yalovbardor, yosh inqilobchi Abdulla Nabiyevning vatanparvar kuchlar qo`lida o`lishi ko`rsatilgan.

«Qora kamar» - tarixiy drama. Asar muallif fantaziyasi bilan yo`g`rilgan bo`lsa-da, voqealarning o`zi, ular ro`y bergan joy, vaqt, deyarli barcha ishtirokchilar mavjudligi bilan tarixiy dramadir. Shukur Xolmirzayev va Tohir Usmonov A.Nabiyev hayotini bu asar yozilguncha obdon o`rgandi. Natijada «Ostin-ustin» sarlavhali esse (1984), «Abdulla Nabi o`g`lining so`nggi kunlari»(1983) hamda «Essiz, Eshniyoz» (1987-88) nomli tarixiy qissalar maydonga keldi.

Asarda Xurrambek kuchli va mustahkam irodali obraz sifatida tasvirlanadi.

Dramada xalq qasoskorlari bilan qizil askarlar o`rtasidagi ochiq jang yo`q, bunga zarurat ham yo`q. Dramaturgning asosiy maqsadi – ular o`rtasidagi murosasizlikni ko`rsatib beradi.

O`zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, O`zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev 2005-yil 29-sentabrda og`ir kasallikdan vafot etdi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Shukur Xolmirzayev qachon, qayerda tug`ildi?
2. U qayerlarda tahsil oldi?
3. Adibning dastlabki asari qachon chop etildi, qanday nomlanadi?
4. Uning prozasi haqida nimalar deya olasiz?
5. «Qilko`prik» romanida qanday mavzu asos qilib olingan?
6. Hikoyalari haqidagi fikringiz?
7. Shukur Xolmirzayev dramasini qanday nom bilan atadi?
8. «Qora kamar» dramasini dramatik tur nuqtai nazardan qanday baholaysiz?
9. Adib ijodi haqida qanday ilmiy maqolalar o`qigansiz?
10. Sizning shaxsiy fikringiz qanday?

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| “XX ASR – YANGI O’ZBEK ADABIYOTI” FANIGA KIRISH. G’AFUR G’ULOMNING HAYOTI VA IJODI | 3 |
| OYBEK – XX ASR O’ZBEK ADABIYOTINING YIRIK VAKILI..... | 7 |
| ABDULLA QAHHORNING HAYOTI VA IJODI | 11 |
| MAQSUD SHAYXZODANING HAYOTI VA IJODI | 16 |
| HAMID OLIMJONNING HAYOT VA IJOD YO’LI | 20 |
| MIRTEMIR. HAYOTI VA IJODI | 24 |
| ZULFIYA. HAYOT VA IJODI | 28 |
| ASQAD MUXTORNING HAYOTI VA IJODI | 33 |
| SAID AHMADNING HAYOTI VA IJODI | 36 |
| ODIL YOQUBOVNING HAYOT VA IJOD YO’LI | 39 |
| PIRIMQUL QODIROV – TANIQLI PROZAIK, ADABIYOTSHUNOS OLIM | 43 |
| ERKIN VOHIDOVNING HAYOTI VA IJODI | 48 |
| ABDULLA ORIPOVNING HAYOTI VA IJODI | 53 |
| O’TKIR HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI | 58 |
| RAUF PARFINING HAYOTI VA IJODI | 63 |
| SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HAYOTI VA IJODI | 67 |